

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI PEDAGOGIKA FAKULTETI
MAKTABGACHA TA‘LIM YO‘NALISHI MAKTABGACHA TA‘LIM
KAFEDRASI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: ”O‘SMIRLIK DAVRIDA QADRIYAT
TUSHUNCHASINING TAKOMILLASHUVI”

Bajardi: Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi bitiruvchi
kursi talabasi
Mallayeva Sayyora Ma‘rifjon qizi

Ilmiy rahbar:

Andijon 2016

MUNDARIJA

KIRISH.....

I BOB. QADRIYAT TUSHUNCHASINING VUJUDGA KELISH OMILI

1.1. Qadriyat turlari va qadriyatlarning xalqimiz hamda yoshlarimiz qalbida aks etishi

1.2. O'smirlarlarda qadriyat tushunchasini shakllanishida oila, mahalla va jamiyatning o'rni

1.3. Milliy an'ana, urf-odat, udum va qadriyatlarining o'smir shaxsi tarbiyasidagi psixologik mexanizmlari.

II BOB. O'SMIRLARDA QADRIYAT TUSHUNCHASINING TAKOMILLASHUVINING PSIXOLOGIK ASOSLARI

2.1. O'smirlarda qadriyat tushunchasini shakllantirishda psixologik usul, vosita va metodlar

2.2. O'smirlarda qadriyat, urf-odatlarni mustahkamlashda Sharq mutafakkirlarining boy merosidan foydalanish

2.3. O'smirlarda qadriyat tushunchasining rivojlanishida ta'lim va tarbiyaning o'rni

XULOSA.....

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....

Reja

I BOB. QADRIYAT TUSHUNCHASINING VUJUDGA KELISH OMILI

1.1. Qadriyat turlari va qadriyatlarning xalqimiz hamda yoshlarimiz qalbida aks etishi

1.2. O'smirlarlarda qadriyat tushunchasini shakllanishida oila, mahalla va jamiyatning o'rni

1.3. Milliy an'ana, urf-odat, udum va qadriyatlarining o'smir shaxsi tarbiyasidagi psixologik mexanizmlari.

II BOB. O'SMIRLARDA QADRIYAT TUSHUNCHASINING TAKOMILLASHUVINING PSIXOLOGIK ASOSLARI

2.1. O'smirlarda qadriyat tushunchasini shakllantirishda psixologik usul, vosita va metodlar

2.2. O'smirlarda qadriyat, urf-odatlarni mustahkamlashda Sharq mutafakkirlarining boy merosidan foydalanish

2.3. O'smirlarda qadriyat tushunchasining rivojlanishida ta'lim va tarbiyaning o'rni

XULOSA

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

KIRISH

O'z davlat mustaqilligini e'lon qilgan O'zbekiston oldingi totalitar jamiyat-sotsialistik jamiyatdan demokratik jamiyatga o'tish yo'lini tutdi. Mamlakatda nafaqat davlatning siyosiy tizimi, jamiyatning mazmun-mohiyati o'zgarib boshladi, balki xalqimiz ongi va turmush tarzida ham yangi bir davr boshlandi. Fuqarolar dunyoqarashida demokratik qadriyatlar, shu bilan birga, o'zaro uyg'un holda milliy va umuminsoniy qadriyatlar yuksala boshladi. Mustaqillik davrida eski mafkura va qarashlardan butunlay xoli bo'lgan yosh avlod shakllandi. Ular hayotida shiddat bilan olg'a intilish, o'z taqdirini Vatan taqdiri bilan bog'liq holda tasavvur etish kabi yangilanishlar boshlandi.

O'zbekiston respublikasi davlat mustaqilligining e'lon qilinishi bugungi kun yosh avlodlariga nasib etdi. Respublikada insonparvar demokratik huquqiy davlat qurmoqda. Bunday davlatni barpo etish esa jamiyatdagi rivojlangan huquqiy tizimning, xalqning, ayniqsa yoshlarning yuksak darajadagi huquqiy bilimi, ongi, madaniyatini taqozo etadi.

Mustaqillik yillarida to'plangan tajriba va ijtimoiy hayot rivoji aslida inson, jamiyat g'oya va mafkurasiz yashay olmasligini ko'rsatdi. Zotan, odamzot o'zining ruhi va shuuridagi ko'pdan-ko'p savollarga javob bo'ladigan, uni doimiy faoliyatiga undab turadigan hayotbaxsh g'oyaga hamisha ehtiyoj sezib yashaydi. Chunki tabiatda, jamiyatda bo'shliq bo'lmagani kabi inson qalbi va ongida ham bo'shliq bo'lmaydi. Jamiyat hayotida sog'lom g'oya ustivor bo'lib turmasa, odamlarning qalbi va ongini yot, zararli g'oyalar egallab, xalqning turmush tarzini izdan chiqaradi. Prezidentimiz jamiyatda sog'lom turmush tarzini, qadriyatlarni kelajak avlodga yetkazish haqida shunday degan edi: «Men milliy istiqloq g'oyasi bugun tez sur'atlar bilan o'zgarayotgan dunyoda o'zligimizni anglash, bizning kimligimizni, qanday buyuk ajdodlarning merosiga, necha ming yillik tarix, betakror madaniyat va qadriyatlarga ega ekanimizni his etib yashashga bu boylikni asrab-avaylab, demokratik qadriyatlar butun jahon taraqqiyoti yutuqlari bilan oziqlantirib, yangi o'sib kelayotgan avlodga etkazishga xizmat qilmog'i zarur, deb bilaman»

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin qabul qilingan ilk Qonun "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qonun bo'lib, o'tgan davr mobaynida yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashning huquqiy asoslarini kafolatladi.

Mamlakatimiz rahbari tomonidan 2008 yilning "Yoshlar yili", 2010 yilni "Barkamol avlod yili", 2012 yilni "Mustahkam oila yili", 2014 yilni "Sog'lom bola yili" deb e'lon qilinishi va qabul qilinayotgan davlat dasturlari mamlakatimizda sog'lom avlodni shakllantirish, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan izchil siyosatning in'kosi bo'lib hisoblanadi.

Xalqimizning madaniy-ma'naviy boyliklari va milliy qadriyatlarini to'la, odilona egallash va rivojlantirish hozirgi avlodlarning vazifasidir. Gap o'tmish madaniy-ma'naviy boyliklariga ega bo'lishdagina emas, balki uni chuqur egallab, yangi yuksak bosqichiga ko'tara bilishdadir.

Xalqimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, eng qimmatli milliy urf-odat, an'ana va udumlar: halollik, rostgo'ylik, or-nomus, sharmu-hayo, mehru-oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar, eng avvalo, oilada shakllangan.

Mustaqillik yillarida eski, o'zini tarix oldida oqlamagan mafkuradan voz kechildi, yangi mustaqillik g'oyasi, uning asosiy tamoyillari, yoshlarni ma'rifatli qilish borasidagi vazifalar davlatimiz rahbari I.A. Karimov asarlarida muxtasar, aniq bayon etilgan. Ular asosida mamlakatimizda yangi «Ta'lim to'g'risidagi Qonun» va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» qabul qilindi. Ular yoshlarni eng ilg'or ilm - fan yutuqlaridan bohabar qilish, buyuk allomalar merosini chuqur va teran o'rganish, zamonaviy texnologiyalar asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, yoshlarni ma'rifatli qilishning barcha shart-sharoitlarini yaratishni nazarda tutadi. Bu say'i-harakatlar ma'naviyat borasidagi islohotlar, o'zbek madaniyati, san'ati, adabiyotini rivojlantirish ishlari, tariximizni tiklash borasida amalga oshirilayotgan olamshumul ishlar tabiiy, yoshlarimizda yangicha dunyoqarashning shakllanishiga asos bo'ladi.

Jamiyatimizning keyingi davridagi o'zgarishlar tufayli milliy an'analarni asrab qolish muammolari bir-biri bilan chigal tugun xosil qildi. Bu muammolarning har biriga juda katta e'tibor berish lozim. Har birining ortida tirik odamlar, butun-butun millatlarning taqdiri turibdi. Shuning uchun ham xalqlarning o'zligini anglab, milliy qadriyatlarni chuqurroq xis qila boshlaganligi sharoitida kishilarning an'anaviy urf-odatlar va qarashlarida aks etgan, tarixiy o'tmishning yangi saxifalarini ochishga imkon beradigan an'anaviy turmush madaniyatini o'rganish eng dolzarb masalalaridan biriga aylandi. O'tmishdan bizning zamonamizgacha saqlanib kelinayotgan an'anaviy milliy udumlarni batafsil tadqiq qilish ularning shakllanishi va turmushda saqlanib qolishi qonuniyatlarini aniqlashga, bu esa ularning hozirgi hayotimiz uchun zarur tomonlarini tiklash va rivojlantirishga yordam beradi.

O'zbek xalqining ma'naviy qiyofasi uning milliy xususiyatlari bilan go'zal va boshqa xalqlardan ham u o'zining ana shu xususiyatlari bilan ajralib turadi. Milliy udumlar, urf-odatlar va an'analari xalq ma'naviyatini boyituvchi muhim omil ekanligi haqida gapirib, I.A.Karimov quyidagi fikrlarni bildirib o'tadi: "Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi"².

Qadriyat tushunchasi hayotning o'zi kabi keng qamrovli bo'lib, u har bir xalq ming yillar davomida hayotning turli sohalari bo'yicha sayqallab to'plagan tajribalaridir. Axloqiy qadriyatlar, harbiy qadriyatlar, davlatchilik qadriyatlari - bularning hammasi bir butun holda xalqning dunyoviy qiyofasini o'ziga xos tarzda belgilaydi. Darhaqiqat, O'zbekistonning kuch - qudrati manbai - xalqimizning umuminsoniy qadriyatlariga sodiqligi, ulug' ajdodlarimizning avlodlarga o'tayotgan ma'naviy merosining kuchliligida, fuqarolarimizning el - yurtga, ona-zaminga bitmas-tuganmas mehrida, milliy g'ururidadir.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 29-30-b.

Milliy qadriyatlar ustida fikr yuritganda yana bir muhim masalani alohida ta'kidlashga to'g'ri keladi. Ma'lumki, qadimiy urf-odatimizga ko'ra, o'zbek oilalarida, ayniqsa, ko'p bolali xonadonlarda o'smirlar bolaligidanoq mehnat quchog'ida tarbiyalanadi, mehnatda chiniqadi. Dalada, uy-joyda ota-onaga yordam berib, mehnat qilib, hali hech bir bola mayib bo'lgan emas. Aksincha, mehnat qilgan o'smir chiniqqan, oq-qorani tanigan, ota-onasining qadriga yetgan. Mehnat qilib murakkab hayot yo'lida uchrashi mumkin bo'lgan har qanday to'siq va qiyinchiliklarni sabr-toqat bilan yengib o'tishga o'rgangan.

Bugun G'arbning ayrim "o'ta liberallar"i milliy urf –odat, an'analar mamlakat taraqqiyoti va undagi demokratiyaga zid keladi, iloji boricha ulardan voz kechish kerak, degan qarashlarni targ'ib etmoqdalar. Ular G'arb mamlakatlarida mavjud an'ana, udum va odatlar, turmush tarzi yer yuzining hamma joyida birday amal qilishini istaydilar. Ularning istagiga ko'ra, SHarq mamlakatlari o'z milliy qiyofasi, ma'naviy–axloqiy qadriyatlaridan voz kechishi, ya'ni, xalq yoppasiga amerikalashishi yoki yevropalashishi kerak. G'arb mamlakatlaridagi «buyuk tafakkur» egalari fikricha, farzand ulg'aygandan so'ng, u butunlay mustaqil shaxs, u endi ota–ona maslahatlariga muhtoj emas, har qanday ishni bemalol o'zi hech kimning maslahatisiz hal eta oladi. Oilada ham har bir kishi o'z muammosini o'zi mustaqil hal etishi kerak, har kim o'zi uchun yashaydi, er xotin ishiga, xotin er ishiga aralashishi mumkin emas. Kishidagi betgachoparlik, manmanlik, andishasizlik ular uchun o'z huquqini himoya qilish, ya'ni "demokratiya" deb baholanadi. Bu va bunga o'xshash illatlarni xalqimiz azal–azaldan qoralab kelgan. Bu illatlar g'arbliklar jar solayotgan "yuqori madaniyatli"lik belgisi emas, bu milliy qiyofasini buzish, milliy iftixor, milliy o'zlikni anglashdan mahrum etish, turli illatlarni kuchaytirib, ruhiy–ma'naviy fazilatlarni, ya'ni odamiylikni yo'q qilishdir. Bu g'oyat qabix niyatdir. Bunda nafaqat alohida shaxslar shikastlanadi, balki butun millatlar yemiriladi va odamlarimiz shunday g'oyani olib kelib singdirganlar uchun tayyor qurolga, «taraqqiy etgan» qulga aylanadilar. Ana shunday ahvolga tushmaslik uchun o'smirlarimiz qalbida milliy–ma'naviy qadriyatlarni tinmay tarbiyalab borishimiz zarur. Bugun milliy ma'naviyatimizni izdan chiqarishga qaratilgan buzg'unchi kuchlarga zarba berish uchun birinchi galda ularning mafkurasi va falsafasini, bu kuchlar qayerdan ma'naviy oziqlanayotganligi hamda maqsadlarini aniq - tiniq tasavvur etish kifoya va yoshlarga ularning buzg'unchi niyatlarini ochiq–oydin tushuntirib berishimiz darkor.

Mustaqil davlatda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari kundankunga O'zbekistonning buyuk kelajagiga ishonch, yurt tinchligi, Vatan farovonligiga aloqador muqaddas tushunchalarning mohiyatini anglash, milliy an'analar, urf-odat, qadriyatlar tushunchalarini yosh avlod qalbiga singdirish vazifalarini dolzarb mavzu sifatida ilgari surmoqda. Shu bois milliy qadriyatlar–an'ana va udumlar muxim ijtimoiy masala sifatida e'tirof etilayotgan bugungi kunda milliy qadriyatlarni yosh avlod ongi, tafakkuri, dunyoqarashiga singdirish tizimini tartibga solish ushbu ishning bosh muammosi hisoblanadi.

MAVZUNING DOLZARBLIGI.

Mustaqillikka erishgan O'zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyati oldida o'zining yuksak potentsial imkoniyatlarini namoyon qila boshladi. Xalqaro arenada teng huquqli davlatlar O'zbekiston o'zining tarixan boy, sharqona betakror an'analar va madaniyatga ega bo'lgan mamlakat ekanligini birin-ketin tan ola boshladilar.

Prezidentimiz I.A. Karimov iqtisodiy isloxlarning yangi davriga xos vazifalarini belgilab berar ekan, u shunday deydi: «Taraqqiyot taqdirini ma'naviy jixatdan yetuk odamlar xal qiladi. Texnikaviy bilim, murakkab texnikani egallash ijtimoiy ma'naviy barkamollik bilan, mustaqil tafakkur bilan birga erishish kerak, aql zakovat va ruxiy-ma'naviy salohiyat ma'rifatli insonning ikki qanotidir».

Ma'naviyat masalasi ijtimoiy hayotimizning eng asosiy masalalaridan biriga aylanib borayotgan hozirgi xalq urf-odatlarini tiklash avlodini milliy an'alarimiz ruxida tarbiyalash o'z dolzarbligi bilan yechimini topishi zarur bo'lgan birinchi darajali vazifa hisoblanadi. Xalqimizning qadimiy ma'naviy bisoti xilma-xil shaklda turli qadimiy arxitektura yodgorliklari, xaykallar, rasmlar, an'anaviy urf-odatlar va boshqa tarzda avloddan avlodga o'tib kelgan.

Ammo ustozlarning bu sohada orttirgan tajribalar yig'indisi yetarlicha umumlashtirilmagan milliy urf-odatlar va an'alarining tub mazmuniga borib yetmaslik, Xalq psixologiyasi, uning tarixiy yashash tarzi, milliy an'analari o'ziga xos xususiyatlarini bilmaslik, uning asosiy tomiridan yashash manbasidan ajratib ko'yishga olib kelishi tabiiy, xatarli bir holdir.

Bugungi kunda yoshlarga shunday ilmiy-amaliy yo'llanmalar berish kerakki, bu ularning o'zlarini takomillashtirishlari, ma'naviy o'sishlari, hayot yo'llarini tanlashda masuliyatli qarorlar qabul qilishda ko'maklasha olish kerak.

Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat o'zbek mentalitetiga xos xususiyatdir. Shuning uchun ham yoshlar ongiga milliyligimizga xos bo'lgan or-nomus, milliy g'urur, mehribonlik, vijdonlilik, sadoqat, mehmondo'stlik, ahillik, ota-bobolardan faxrlanish, nasl-nasabini ulug'lash kabi vatanparvar bo'lishga undaydi.

“O'zbekiston tanlagan yo'l – umuminsoniy va umume'tirof etilgan demokratik qadriyatlarga erishishga qaratilgan, ko'p asrlik madaniyatimizning eng sara yutuqlari, milliy an'alarimiz” ajdodlarimiz diniga bo'lgan sadoqatimiz bilan uyg'unlashib ketgan yo'l – biz uchun o'zgarmasdir. O'smirlar tarbiyasida barqaror qadriyatlarning ahamiyati katta.

O'smirlarimiz orasida ba'zida loqayd, ijtimoiy taraqqiyotning o'ziga xos tomonlaridan bexabar, xudbin, mustaqil fikrdan yiroqlari ham uchrab turadiki, aynan shular orasidan ommaviy madaniyatga berilib, o'zligini unitayotganlar, giyohvandlar, ichkilikka berilganlar

chiqayotgani achinarli holdir. Albatta, o'smirlarning bunday yo'llarga kirib ketishi jamiyatimiz va ijtimoiy taraqqiyotimiz uchun katta xavfdir. Chunki yoshlar jamiyatimizning tayanchi ekan, nafaqat ularning jismonan sog'lomligi, balki ruhan ma'naviy sog'lomligi ham katta ahamiyatga egadir.

Qadriyatlarni teran anglagan o'smirlar ota-onalari yaratib bergan imkoniyatlar va sharoitlardan foydalanibgina qolmay, o'zlari ham kelajaklari uchun harakat qiladilar. Bu borada mukammal bilim olib, uni hayotga tadbiq eta bilish katta ahamiyatga egadir.

Qadriyatlar uyg'unligi insonning komil inson darajasiga yetish uchun intilishida, erkin yashashida, farovon hayot kechirishida alohida vosita hisoblanadi. Qadriyatlarni asrab-avaylash, rivojlantirish ijtimoiy taraqqiyot uchun muhimdir. Xalqimiz azal-azaldan o'tgan ajdodlarini, o'tmishga aylangan hayotining esda qolgan ayrim ijobiy qirralarini eslab, bu holatni eng aziz va muqaddas tuyg'u-xotira deb atayda. Chunki, prezidentimiz ta'kidlaganlaridek. Tarixiy xotirasiz kelajakni tasavvur qilish qiyin. Xotira bizga o'tmishni eslatib, saboq beribgina qolmay, o'tayotgan har bir kunning qadriga yetishni ham o'rgatadi.

Demak, hayot tarzini o'zgartirish uchun tafakkurni o'zgartirish kerak. O'smirlarimiz o'z fikrlash tarziga ega bo'la borgan sari o'zligini, ma'naviy merosimizning ahamiyatini anglay boshlaydilar. Shuning uchun avvalo o'smirlarda fikrlash qobiliyatini shakllantirishga alohida e'tibor berish kerak. Donolik insonni shahardagi o'nta hukmdordan qudratliroq qiladi. Inson yaxlit bir "men"ga yetishi kerak. O'zlikni tanish degani ana shu. Nafsni yo'lga solgandan keyin ahloqiy me'yorning qadri oshadi.

Shunday qilib, istiqlol davrida erishilgan eng katta ijtimoiy taraqqiyotdagi yutug'imiz bu milliy o'zlikni anglash davri bo'ldi. Ajdodlarimizga xos mehnatsevarlik, adolatparvarlik, halollik, insonparvarlik milliy istiqlol g'oyasi orqali o'smirlar qalbiga yetkazilmoqda va shakllantirilmoqda. Mustaqillikni asrash va uni taraqqiy ettirish e'tiqodli, elim deb, yurtim deb yashayotgan har bir insonning yuragidan joy olmoqda. Milliy o'zlikni anglashda yangi qadriyatlarning o'rni muhimdir. Ularni xalqimiz o'zining ehtiyojlariga muvofiq umuminsoniy qadriyatlar bilan uyog'unlashtirilmoqda. Qaysidir xalq uchun qadriyatli bo'lgan voqea, jarayon, narsa, predmet boshqa millat uchun ahamiyatsiz bo'lishi mumkin. Ma'naviy madaniyati yuksak o'zbek xalqining qadriyatlari ham ajdodlari merosi kabi yuksakdir. Qadriyatlarni xalqning ijtimoiy ongidan,

ma'naviyati va madaniyati hech qachon siqib chiqarish mumkin emas.

O'zbekiston jamiyatining ma'naviy yangilanishi jarayonida xalqimiz ongida yuksalish ro'y berdi. Zero, mustaqillikning ma'naviy asoslarini mustahkamlashda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi muhim ahamiyatga ega.

Rivojlanayotgan dunyoda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga uyg'unlashishni davrning o'zi taqozo etmoqda. Zero, globallashtirish jarayonida chetdan kirib kelayotgan qadriyatlar o'smirlarimiz ongiga o'zining ijobiy ta'siri bilan birgalikda salbiy ta'sirini ham o'tkazmoqda.

Bu o'smirlarga "ommaviy madaniyat" ning ta'sirida yanada yaqqolroq ko'zga tashlanadi.

Mustaqillik sharofati bilan hayotimizning barcha jabhalarida, xususan madaniyat sohasida ham katta o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. «Biz barpo etayotgan yangi jamiyat ma'naviy va ahloqiy qadriyatlarga tayanadi va ularni rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi. Bu jarayon milliy istiqloq mafkurasiga, o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik ruxida tarbiyalashga asoslanadi», -deydi I.A. Karimov.

O'zbekistonda yashayotgan barcha millat va elatlarning madaniyati, urf - odat va an'analarini rivojlantirish, ularga berilgan imkoniyat va sharoitlarni yanada kengaytirish - davlat siyosatining muxim yo'nalishini tashkil etadi. bu bejiz emas, albatta. Hayot saboqlari shundan dalolat beradiki, bir xalqni o'ziga tobe qilishni istagan kuchlar, avvalo uni madaniyatidan, tarixidan, o'zligidan judo qilishga intiladi. Bu o'smirlarga ham daxldordir.

I.A. Karimov «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tashabbus guruhi bilan uchrashuvda so'zlagan nutqida ta'kidlaganidek, «Agarda kimda-kim bizning mustaqil taraqqiyot yo'limizdagi orzu - maqsadlarimizga erishish yo'lini, yangi jamiyat qurish yo'lini to'smoqchi bo'lsa, avvalo, xali suyagi qotmagan, mustaqil dunyoqarashi shakllanib ulgurmagan yoshlarimizning qalbi va ongining mo'rtligidan foydalanib, ularning ma'naviyatini buzib, bizning azaliy tabiatimiz va muqaddas odatlarimizga mutlaqo zid bo'lgan g'oyalar bilan chalg'itib, o'zining g'arazli va jirkanch niyatlarini amalga oshirish yo'lida qurol qilib olishga intiladi».

Mana shunday urinishlar va tajovuzlarning oldini olish uchun bugungi milliy taraqqiyotimizga xizmat qiladigan umuminsoniy qadriyatlar bilan bir qatorda milliy madaniyatimizni, urf-odat va

an'analarimizni hamda ma'naviyatimizni har bir insonning, ayniqsa yosh avlodning ongi va qalbiga jo etish katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbek xalqining amaliy san'ati, hunarmandchilik ildizlari uzoq o'tmishga borib tutashadi. O'zbek xalq hunarmandchiligi tarixiga xozirgi zamon nigoxi bilan nazar tashlaydigan bo'lsak, manbalar, o'tmishdan saqlanib qolgan yodgorlik va obidalar eramizdan avvalgi minginchi yillarda yaratilgan san'at durdonalaridan guvoxlilik beradi. Avlod-ajdodlarimiz qadimdan naqqoshlik, o'ymakorlik, tikuvchilik, zargarlik, zardo'zlik, gilamdo'zlik, misgarlik, sangtaroshlik, musiqa asboblarini yasashga va boshqa sohalarda katta maxorat ko'rsatganlar. Ular nozik va go'zal, jahonda tengi yo'q naqsh ustasi bo'lganlar, faqat yog'ochga emas, shuningdek, marmar toshga, metalga o'ta nozik va go'zal naqsh solganlar, rang-barang gullar solib gilam va matolar to'qiganlar. Bularga qarab ota-bobolarimiz, momolarimizning maxoratlari va didlariga qoyil qolamiz.

Yoshlar bizning kelajagimiz, ularni qanday tarbiyalab, ta'lim bersak kelajagimiz ham shunday bo'ladi. bu o'rinda prezidentimiz: «Kelajakda O'zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas, balki bilimdon, ma'naviy jixatdan yetuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qilishi lozim. Mamlakatimiz mard, fidoiy kishilar yurtiga, mehru-shavqat, muhabbat barqaror bo'lgan, tafakkur va ijod qaynagan muqaddas makonga aylanishiga aminman» degan so'zlari ta'lim-tarbiya sohasini mamlakatning rivojlanishidagi ustivor yo'nalishlardan biri ekanligidan dalolat beradi.

O'smir hulq ahloqi, xatti-harakatlarini tartibga solish va boshqarishda ijtimoiy odatlar aloxida ahamiyatga egadir. Ahloq xulq namunalarining ko'p marta takrorlanishi o'smir sezgisini mustaxkamlaydi va ularda odat tusiga kiradi. O'smir xulq-atvori, odobini tartibga solishda turli tarbiyaviy metodlardan tashqari milliy urf - odatlarning ham xizmati katta bo'lib, ular ongni ortiqcha zo'riqishdan holi qiladi va o'smirlardagi istak va maqsadlar mushtarakligini yuzaga keltiradi. Ma'naviy qiyofani tarkib toptirishga asos bo'ladi.

Mamlakatimizdagi ijtimoiy – iqtisodiy , madaniy-siyosiy yuksalish , millatlararo tolerantlik asosida tinchlik va xotirjamlik , barqarorlikni soqlab qolish yo'lidagi matonatli kurash , bag'rikenglik va vijdon erkinligi , ma'naviv merosimizni tiklash , milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlash , taraqqiyot sari bosqichma – bosqich harakat hamisha va har qadamda

umuminsoniy manfaatlar bilan integrallashuv negizida amalga oshirib kelindi.

Mustaqillikning ilk yillaridanoq respublikamiz ravnaqiga eng katta to'siq – bu g'oyaviy bo'shliq ekanligi har qadamda seziladi. Bugun jamiyatimizda inson kamoloti, yoshlarimizning hayotda o'z o'rinlarini topishlari uchun milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi asosida sog'lom muhit va keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Maktab, litsey, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarida milliylikka asoslangan diniy qadriyatlar farzandlar ongiga singdirilmoqda. Ammo ma'lum bir sabablarga, ayniqsa "ommaviy madaniyat" ta'siri ostida axloqsizlik, ota-onaga nisbatan loqaydlik, kattalarga nisbatan hurmatsizlik, xudbinlik kabilarning avj olayotganiga diniy bilimsizlik ham sabab bo'layotgani sir emas.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni amalga oshirish o'smirlarimiz ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini singdirishda muhim ahamiyatga ega:

- o'smirlarimiz ongiga nafaqat dunyoviy bilimlarni, balki milliy va diniy bilimlardagi ezgu qadriyatlarni singdirishni kengroq yo'lga qo'yish;

- milliy qadriyatlar asosidagi urf-odat, an'ana va marosimlarni mustaqillik davrida shakllangan yangi qadriyatlar bilan boyitish;

- milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini halollik, bag'rikenglik, millatparvarlik, vatanparvarlik, axloqiylik, ilm-fanga va vatanga fidoiylik kabi tushunchalarni targ'ib qiladigan asarlar, videofilmlar, ko'rsatuv, eshittirish va tadbirlar orqali yoshlarimizga singdirish;

- jamiyatning ma'naviy yangilanishida Markaziy Osiyo Uyg'onish davri mutaffakkirlarining ma'naviy va ilmiy merosidan, jadidchilarimizning sabr – toqat bilan erishgan yutuqlaridan unumli foydalanish;

Oilalar va o'quv yurtlari hamkorligida mahallalarda milliy qadriyatlar ahamiyatini tahlil qilib beradigan tadbirlar o'tkazish;

- o'smirlarga hayotning o'zi eng buyuk qadriyat ekanini ta'lim va tarbiya uyg'unligi asosida anglatib, inson jismonan va ma'nan sog'lom bo'lsagina oldida turgan barcha maqsadlarga erisha olishi to'g'risidagi uslub va vositalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Ayni paytda o'zbek milliy madaniyati, madaniy merosining necha asrlar davomida umumjahon madaniy merosi darajasida qaror topganligini dunyo e'tirof etmoqda e'zozlamoqda. Ajdodlarimiz yaratgan ezgu va muqaddas qadriyatlar rivoj topib, insoniyatning kelgusi taraqqiyotiga ijobiy ta'sirini ko'rsatib, xalqlarni ma'naviy va ruhiy jihatdan buyuk o'zgarishlarga tayyorlab keladi.

Ma'rifatga intilish xalqimizning azaliy fazilatlaridan bo'lgani sababli mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi ham marifatli, ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalashdir.

Mamlakatimizda yoshlarning hayotda o'z o'rinlarini topishlari uchun olib borilayotgan islohotlar, avvalo, O'zbekistonda fuqorolik jamiyatni qurish va uning ravnaqi yo'lidagi sa'y-harakatlardir. Yurtboshimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: "Hamмамizga teran bir haqiqat ayon bo'lishi kerak – biz yurtimizning ertangi rivoji yo'lida qanday chuqur o'ylangan dasturlarni tuzmaylik, bu rejalarni bajarish uchun qanday moddiy baza va imkoniyatlarni yaratmaylik, buning uchun qancha sarmoya safarbar etmaylik, ularning barchasini amalga oshiradigan, ro'yobga chiqaradigan qudratli bir omil borki, u ham bo'lsa, yuqori malakali ish kuchi va yurtimizning ertangi kuni, taraqqiyoti uchun ma'suliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan yetuk mutaxassis yoshlarimiz, desak, o'ylaymanki, hech qanday xato bo'lmaydi". Yetuk mutaxassis milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi asosida shakllanishi, oila, jamiyat, Vatan oldidagi ma'suliyatni teran anglaydigan shaxslar bo'lib yetishishi katta ahamiyatga ega va bugunning talabidir.

Jamiyatning ma'naviy yangilanishi sharoitida yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini shakllantirishning istiqbollari belgilashda quyidagi tamoyillarga amal qilish maqsadga muvofiqdir:

- o'zbekona milliy qadriyatlarning betakrorligi va insonparvarligi;

- milliy qadriyatlarning asrlar sinovidan o'ta olganligi;

- milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga e'tiborning kuchayishi;

- diniy qadriyatlarning milliy qadriyatlarga bog'lanib ketgani;

- ijtimoiy taraqqiyot jarayonida milliy qadriyatlarning sayqallanib borishi;
- ta'lim va tarbiya uyg'unligiga qadriyat sifatida qaralayotganligi;
- insonning eng oliy qadriyat ekanligi;
- ma'naviy merosning qadriyat sifatida e'zozlanayotganligi va h.k.

Demak, milliy taraqqiyot qadriyatlarga bo'lgan ehtiyojni mudom aniqlashtirib borishni, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga dialektik nuqtai nazardan yondashishni taqozo etadi.

Oliygoxlarda ta'lim-tarbiya olayotgan iste'dodli, ijodkor va tashabbuskor yoshlar istiqloлга erishgan yurtimizni - dunyodagi eng qudratli, nufuzli maktablar qatoriga olib chiqishda o'z ulushlarini qo'shishlari kerak.

Yuqorida aytilgan nazariy fikrlardan kelib chiqqan holda, biz o'smirlar ma'naviy qiyofasi quyidagi fazilatlardan tarkib topishi mumkin deb hisoblaymiz.

1) Vatanparvarlik. O'z Vatanining mustaqilligini asrab avaylash, uning yo'lida fidokorona mehnat qilish, Vatan ximoyasiga tayyor bo'lish, Vatan tarixi va madaniyatini bilish, o'z Vatani bilan faxrlanish.

2) Odob- ahloqli bo'lish. Salom-alik odobini bilish, kattalarga xurmat munosabatida bo'lish, tengdoshlariga samimiy munosabatni namoyon qilish.

3) Xushmuomala bo'lish. Kishilar bilan muloqot qilish odobi, turli vaziyatlarda o'z xushmuomalaligi bilan muammolarni xal qila olish.

4) Mehnatsevarlik. Oldiga qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida bor kuchi va imkoniyatini ayamasklik, jamoat ishlarida faol ishtirok etish.

5) Insoniylik. Ota-onani e'zozlash, kattalarga va ayollarga xurmat ko'rsatish, yordamga muxtojlariga ixtiyoriy ravishda ko'maklashish, insonparvarlikka qarshi bo'lgan xatti-harakatlarga murosasiz bo'lish.

6) Jonkuyarlik. O'z manfaatlarini ko'zlamagan holda boshqalarga yordam qo'lini cho'zish, barcha ishlarga sidqidildan yondashish va kuchini ayamasklik.

7) Do'stlik. Do'stlik va oshnolikni ajratish, o'z do'sti uchun jonini ham ayamalik va unga yordam berish, do'stlik rishtalarini umrining oxirigacha uzsmalik.

8) Kamtarlik. «Kamtarga kamol» maqoliga rioya qilish, o'z bilimi, kuch imkoniyatlarini ko'z-ko'z qilmaslik, o'z ustida ishlash, o'z bilimi va imkoniyatlarini kengaytirish.

9) Ma'naviy boylik – O'zbek xalqining urf-odatlarini madaniyati, san'ati, yozuvi va yodgorliklariga xurmatda bo'lish, ularni asrab-avaylash, ularning tarixini bilish va boyitishga o'z xissasini qo'shish.

10) Intizomlilik. Jamiyat qonun - qoidalariga rioya qilish, kattalar buyurgan ishni tez va aniq bajarish, jamoada intizomni yuksak darajada bo'lishi uchun kurashish.

11) Faollik. Tashbuskorlik va tashkilotchilik qobiliyatlarini namoyon qilish, optimist, ya'ni kelajagi porloq ekanligiga ishonish va unga qarab o'z xatti- harakatlari bilan intilish.

12) Maqsad sari intilish. Aniq, katta ishlarni bajarishni maqsad qilib qo'yish; shu maqsadini amalga oshirish uchun qat'iyatli, o'z ideali va dunyoqarashiga sodiq qolish.

13) Baynalminallik. O'z xalqi va boshqa xalqlarning tarixi, san'ati va madaniyatiga yashash tarziga qiziqish, baynalminal xarakterdagi tadbirlarda ishtirok etish, o'zga mamlakatlarning mehnatkash xalqiga qardoshlarcha yordam tadbirlarida qo'ldan kelganicha qatnashish.

14) Rostgo'ylik. So'zi bilan ish birligi, to'g'riso'zlik, o'z xatolari va qilmishlarini ixtiyoriy tan olish.

15) Ishbilarmon, tadbirkor bo'lish. Iqtisodiy tafakkurni shakllantirish, hayotga tadbirona munosabatni ko'rsata olish.

16) Oilani mustaxkam, saqlash ruxida tarbiyalanish, oila jamiyatning negizi ekanligini anglash. Oilaviy munosabatlar haqida bilmga ega bo'lish.

17) Or-nomusli bo'lish. Qilgan salbiy xatti harakatlarni tan olish. Ularni to'g'rilashga harakat qilish. O'z o'zini nazorat qilishni shakllantirish.

18) Sog'lom, jismonan yetuklikka intilish. Sport to'garaklariga qatnashish.

19) Mas'uliyatni xis etish. Ijtimoiy burchni anglash. Jamiyat, Vatan, oila, maktab, do'stlar oldidagi mas'uliyatni anglash.

20) Vijdonlilik. Birovning xaqiga xiyonat qilmaslik. Vijdon azobida yonmaslik uchun yuqoridagi fazilatlarni o'zida shakllantirish.

Yuqorida keltirilgan mezonlarni o'zida mujassamlashtirgan o'smirgina «Ma'naviy yetuk» shaxs deb qabul qilinishi mumkin.

Prezidentimiz har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmasligini alohida ta'kidlagan. Shundan kelib chiqqan holda, **ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar** bu boradagi eng muhim omillar sifatida keltirilgan.

Sobiq sovet ittifoqi davrida Islom dini, musulmonchilik aqidalari, milliy qadriyat va an'analar bir chekkaga surib tashlandi. Ular haqida gapirish u yoqda tursin, o'ylash va fikrlash ham mumkin emas edi. Iymon-e'tiqodimizga oid asarlar, milliy tarbiya asosini tashkil qiluvchi Qur'oni Karim, Muhammad alayhisalom hadislari, tasavvuf va milliy, ma'rifiy-axloqiy ilmlar aks etgan kitoblar, risolalar terib olindi, yoqib tashlandi. Bu milliy tarbiya va tarbiyashunoslik sohasidagi eng katta yo'qotish edi. Chunki, "faqatgina chinakam ma'rifatli odam inson qadrini, millat qadriyatlarini, bir so'z bilan aytganda, o'zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib obro'li o'rin egallash uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin"².

Yurtimiz istiqlolga erishgan saodatli bugungi kunda, mamlakatimiz xalqlarining an'ana va marosimlari o'zining qadimiy ko'rinishlarini tiklab, jamiyatimiz taraqqiyotini tezlashtiradigan buyuk kuchga aylanmoqda, jamiyat hayotiga shodlik, quvonch bag'ishlaydigan, ularda mustaqillik va uning mevalaridan faxrlanish hissini uyg'otadigan an'ana va marosimlar keng ommalashmoqda, yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda ta'sirchan omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Shuning uchun ham o'tgan yillar mobaynida milliy va umuminsoniy qadriyatlarimiz, ularning o'ziga xos jihatlari, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, ularning jamiyat a'zolari hayotidagi o'rni, targ'ibot usullari borasida ko'pgina ilmiy-nazariy va amaliy ishlar amalga oshirildi, ularning metodologik asoslari

² Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т., Шарқ, 1998, 9-бет.

yaratildi. Garchi ma'naviy-ma'rifiy ishlarga, unutilgan, kamsitilgan ma'naviyatimizni, milliy qadriyatlarimizni tiklashga xamda yosh avlodning milliy g'ururini yuksaltirishga, ularni vatanparvarlik, yurtparvarlik, baynalminallik ruhida tarbiyalashga qaratilgan tadbirlar moxiyatini ochib berish, ularni tashkil etish metodikasini o'rgatishga oid talaygina ishlar amalga oshirilgan. Jondor Tulenovning "Qadriyatlar falsafasi", Ahmad Yassaviy "Hikmatlar", Abu Abdulloh Muhammad al-Buxoriy. "Al-adab al-mufrad". ("Adab durdonalari"), Mavrunov A. "Ma'naviy sog'lomlashtirish davri", "Barhayot milliy qadriyatlar", Inomova M. "Oilada bolalarning ma'naviy axloqiy tarbiyasi", Musurmonova O. "Ma'naviy qadriyat va yoshlar tarbiyasi", Qoraboev U. "Madaniy tadbirlar", Ergashev Q. "Yoshlarning ma'naviy tarbiyasi" va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin. Biroq, jamiyat hayotida yuz berayotgan ayrim muammolar bugungi kunda darsdan tashqari ma'naviy – ma'rifiy tadbirlar jarayonida yoshlarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish asosida tarbiyalash borasidagi tadqiqotlarning etarli emasligini ko'rsatmoqda.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. O'smirlarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida ma'naviy tarbiyalash bugungi kunda ta'lim-tarbiya maskanlari oldida turgan dolzarb masalalardandir. Shu ma'noda O.Musurmonova¹ning tadqiqoti katta e'tiborga molik. "Bizning nazarimizda, - deb ta'kidlaydi O.Musurmonova, -shaxsning ichki ma'naviy dunyosi ma'naviy ehtiyoj, ma'naviy qiziqish, ma'naviy faoliyat va ma'naviy qadriyat kabi asosiy belgilar tizimidan iboratdir.

Shaxs ma'naviyatini tarbiyalash va rivojlantirish, eng avvalo, oiladan boshlanadi va maktabda davom ettiriladi. Xuddi shu yerdan e'tiboran maktab bilan oila o'rtasida uzviy aloqa o'rnatiladi. Oilaning o'rta maxsus va oliy o'quv yurti, mahalla va mehnat jamoasi bilan hamkorligi tarkib topib boradi. Darhaqiqat, shaxs shakllanishida oilaning roli katta. Chunki, ma'naviyat, Prezidentimiz I. A. Karimov aytganlaridek, "Tarbiya insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti

¹ Musurmonova O. "Талабаларнинг маънавий маданиятини шакллантириш". - Фан, 1993; Musurmonova O. "Юкори синф талабалари маънавий маданиятини шакллантиришнинг шакл ва методлари". Фан, 1995; Musurmonova O. "Маънавий кадрят ва ёшлар тарбияси". -Ўқитувчи. 1996.

bilan singadi"¹. Olima M. Inomova² ham "Oilada bolalarning ma'naviy-ahloqiy tarbiyasi" risolasida oilaviy tarbiya muammosi, unda o'smirlarni ma'naviy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish masalalari xususida fikr yuritadi. Uning ta'kidlashicha, "Oilada eng yaxshi va olijanob an'analar, milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan bola o'zini anglashga, o'zligini ko'rsatib, o'z shaxsini namoyon etishga harakat qiladi".

Ana shunday shaxslarni tarbiyalash nafaqat oilaning balki, jamiyatning bugungi asosiy vazifasi bo'lib qolmog'i lozim. Bu vazifani bajarishda milliy qadriyatlar, urf-odatlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mamlakatimizda yaratilgan bu betakror an'ana va marosimlar, milliy qadriyatlar, urf-odatlar olimlar tomonidan ko'p yillardan beri mutazam o'rganilib kelinadi. Bu borada ayniqsa, Hasanboev J, Turopova M, Hasanboeva O., Mavrunov A. va Qoraboev U. kabi olimlarning ishlari va maqolalarini eslatib o'tish maqsadga muvofiqdir³.

Mazkur tadqiqotlarning hozirgacha har tomonlama va chuqur xronologiyasi yaratilib, ularda xalq pedagogikasining ta'lim oluvchi shaxsga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish muammosini amalga oshirishda erishilgan yutuqlari yoritilgan. Boshqa tadqiqotlar orasida M. Ochilov, A. K. Munavvarov, S. Axmedov, S. Ochilov, O. Musurmonova, M. Inomova, S. Nishonova tomonidan doktorlik ishlarini alohida qayd etish joiz⁴.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi.

O'smirlarda milliy qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot hamda milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasini yoritishdan iborat.

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. – Т., Маънавият, 2008, 18-бет.

² Иномова М. Оилада болаларнинг маънавий ахлоқий тарбияси. - Т. 1999.

³ Ҳасанбоев Ж, Туropова М, Ҳасанбоева О. Маънавий-ахлоқий тарбия асослари. Тошкент. Фафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 2000.-111 б. ; Маврунов А. "Маънавий соғломлаштириш даври", 1994 йил; Қорабоев У. "Маданий тадбирлар". - Т. 2003 йил.

⁴ Иномова М. "Оилада болаларнинг маънавий ахлоқий тарбияси". Т. 1999; Мусурмонова О. "Талабаларнинг маънавий маданиятини шакллантириш". - Фан, 1993 йил; Мусурмонова О. "Юқори синф талабалари маънавий маданиятини шакллантиришнинг шакл ва методлари". Фан, 1995; Мусурмонова О. "Маънавий қадрият ва ёшлар тарбияси". - Ўқитувчи. 1996 йил; Зиёмухаммедов Б. ва бошқалар. "Маънавият асослари". - Т. 2003 йил; Қорабоев У. "Маданий тадбирлар". - Т. 2003 йил; Эргашев Қ. "Ёшларнинг маънавий тарбияси", Маънавият, 1998; Йўлдошева С. "Барҳаёт анъаналар", Т. 1999 йил; Бегматов А. "Маънавият фалсафаси ёхуд Ислоҳ Каримов асарларида янги фалсафий тизимнинг яратилиши. Шарқ., 2000.-96 б.; Эркаев А. "Маънавият миллат нишони". Маънавият. 1999; Жавлиев Т. "Анъаналар - ҳаёт сабоғи" , Т. "Ўзбекистон" , 1992 йил.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Milliy qadriyatlar va ularning asrlar davomida sayqallanishini yoritish;
- Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning xalqimiz tomonidan avaylab-asrab kelinishini yoritish;
- Mustaqillik yillarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning tiklanishi masalasini yoritish;
- Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'smirlar tarbiyasidagi rolini yoritish;
- Dars jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida o'smirlarni tarbiyalash;
- Darsdan tashqari tadbirlarda o'smirlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash muammosi;

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy asoslari. Tadqiqotning metodologik asosini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida ilgari surilgan ma'naviy axloqiy barkamol avlodni tarbiyalash g'oyalari, Sharq mutafakkirlarining ma'naviy-axloqiy barkamol insonni tarbiyalashga doir falsafiy-axloqiy qarashlari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi, Oliy va o'rta maxsus va xalq ta'limi Vazirliklarining me'yoriy hujjatlari, ilmiy tadqiqotlar tashkil qiladi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikkita bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar, mavzuga oid tayanch so'zlar va ilovalar ro'yxatidan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti. O'smirlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish asosida tarbiyalashga qaratilgan darsdan tashqari ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. O'smirlarni darsdan tashqari ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirgan holda tarbiyalash, ular ongida xalqimizning an'ana va marosimlari, udumlari hamda ma'naviy merosimiz orqali ezgu xislat va fazilatlarni kamol toptirishga ilmiy yondashish.

Bitiruv malakaviy ishi metodlari. Taqqoslash, induksiya, deduksiya, qiyosiy tahlil va tarixiy materiallarni ilmiy jihatdan o'rganishdan iborat.

I.1. Qadriyat turlari va qadriyatlarning xalqimiz hamda yoshlarimiz qalbida aks etishi.

Respublikamizning mustaqillikka erishishi bilan ta'lim- tarbiya sohasiga qator yangiliklar va shu bilan birga xalq etilishi zarur bo'lgan muammolar yuzaga keldi. Ayrim o'smir yoshlar orasida ahloqqa, mehnat, bilim olishga nisbatan munosabatning yuzakilashib borayotgani, ta'lim-tarbiya jarayonida ba'zi bir kamchiliklarga yo'l qo'yilishi sababli ular orasida bezorilik, ahloqsizlik kabi salbiy holatlar uchrab turibdi.

Tarbiya - bu shaxsning ijtimoiy, ma'naviy va ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorlash maqsadida uning ma'naviy, jismoniy kamolotiga muntazam ravishda ta'sir ko'rsatish jarayonidir. O'rta ta'lim va yangi turdagi zamonaviy o'quv muassasalarida tarbiya jarayonini taxlil qilish, unda yuz berayotgan qarama-qarshiliklarni aniqlash, pedagogika va psixologiya fanlarining asosiy vazifalaridan biridir. Tarbiya jarayonining asosi bo'lgan ahloqiy tarbiya muammolari va ularning xalq etish vazifasi esa bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi. «Ta'lim to'g'risida»gi qonunning qabul qilinishi, unda yangi turdagi o'quv muassasalari, milliy kadrlar tayyorlash masalalariga alohida e'tibor berilishi yuqorida sanab o'tilgan vazifalar bilan uzviy bog'liqdir. Jumladan, O'zbekistan Res'ublikasi Oliy Majlisining birinchi chaqiriq IX sessiyasida milliy kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish va faoliyat ko'rsatishning asosiy tamoyillarida ta'lim tizimining tuzilishi va mazmuni jihatidan isloh qilish uchun o'smir yoshlarni Vatanga sadoqat, yuksak ahloq, ma'naviyat va ma'rifat, mehnatga vijdonan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash kabilarga alohida o'rin ajratilgan.

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da ham umumlashtirilgan holda kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish va bugungi kun talabiga javob bera oladigan faoliyatni ta'minlashga alohida e'tibor beriladi.

Bugungi kunda ko'p yillik tarixga ega bo'lgan milliy ahloqimizning azaliy mezonlarini tiklash orqali xalollik, to'g'riso'zlik, or-nomuslilik, iffatlilik, insonparvarlik, hamjamiyatlilik, vatanparvarlik, fidoiylik, sadoqat kabi ko'pdan-ko'p go'zal insoniy fazilatlarni kamol toptirish vaqti keldi. Tarbiyaviy chora-tadbirlar, yo'l va usullarning markaziga o'z milliy manbalarimizga, iymonu-e'tiqodimizga, qadriyatimizga muvofiq keladigan ahloqiy talablarni yosh avlod oldiga qo'yishimiz zarur.

1994 yil 23 aprelda O'zbekiston Prezidentining «Respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazini tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni, 1996 yil 9 sentyabrda esa «Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi faoliyatini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish to'g'risida»gi Farmoni va boshqa manbalarda quyidagi qadriyatlar haqida gapiriladi:

1. Vatan - eng oliy makon, u menikidir.
2. Eng oliy qadriyat - inson.
3. Mulkning eng oliy shakli - intellektual mulk va inson faoliyatining eng oliy turi - intellektual mehnat.
4. Vaqt eng oliy boylik.
5. Umuminsoniy qadriyatlar.
6. Moddiy qadriyatlar.
7. Milliy qadriyatlar.
8. Tabiiy qadriyatlar.
9. Iqtisodiy qadriyatlar.
10. Ijtimoiy - siyosiy qadriyatlar.
11. Ma'naviy qadriyatlar.
12. Axloqiy qadriyatlar.
13. Diniy qadriyatlar.
14. Oilaviy qadriyatlar.

15. Demokratik qadriyatlar va h.k.

Prezident Islom Karimov o'tgan 15 yil mobaynida o'zbek xalqining ma'naviy-axloqiy negizlarini asoslab berdi:

1. Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik.
2. Xalqimiz ma'naviy merosini mustahkamlash, rivojlantirish.
3. Insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi¹.
4. Vatanparvarlik.

Milliy- ma'naviy meros, qadriyatlarning tarkibi. Milliy ma'naviy meros va qadriyatlar tushunchasi keng qamrovli tushuncha bo'lib, uning tarkibi quyidagilardan tashkil topgan:

- 1) Tarixiy meros va tarixiy xotira.
- 2) Madaniy yodgorliklar, osori-atiqalar, qadimiy qo'lyozmalar.
- 3) Ilm-fan yutuqlari va falsafiy tafakkur durdonalari.
- 4) San'at va milliy adabiyot.
- 5) Axloqiy fazilatlar.
- 6) Diniy qadriyatlar.
- 7) Urf-odat, an'ana va marosimlar.
- 8) Ma'rifat, ta'lim-tarbiya va hokazolar.

Milliy ma'naviy qadriyatlarning ana shu har bir ko'rinishi muhim ahamiyatga ega. Bularning har birini misollar tariqasida chuqur tushuntirib berish mumkin.

Bizga ma'lumki milliy istiqlol mafkurasini Xalqimiz qalbi va ongiga singdirishda milliy qadriyatlarimizni mustaxkamlash va rivojlantirishning o'rni katta. Mustaqil O'zbekiston o'ziga xos va o'ziga mos istiqlol va taraqqiyot yo'lidan borayotgan hozirgi davrda totalitar

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.1. -Т.: Ўзбекистон, 1996, 76-бет.

tuzumdan meros bo'lib qolgan ma'naviy inqirozga xotima berish, kishilarning ongi va dunyoqarashida yangicha tafakkur madaniyati shakllantirish kechiktirib bo'lmaydigan ijtimoiy vazifadir. Tarix tajribasi shuni ko'rsatadiki, o'zi mansub bo'lgan Xalq tarixini, uning madaniyati, an'analari, urf-odatlarini, tafakkur tarzini bilmagan kishi o'zini anglay olmaydi. O'zligini anglamagan insonda milliy oriyat va g'urur bo'lmaydi. Milliy g'ururi bo'lmagan inson tobelikka moyil bo'ladi. Yurtboshimiz I.A.Karimov ta'kidlab o'tganidek, «Fikr qaramligi, tafakkur qulligi esa har qanday iqtisodiy yoki siyosiy qaramlikdan ham ko'ra daxshatlidir¹»

Abdulla Avloniy shunday deb yozadi «Aql insonlarning piri komili, xurshidi yagonasidir. Rux ishlovchi, aql boshlovchidir». Ulardan biri: «Agar aqlning quli nafsingni jilovini ushlasa, uni yomon yo'llardan saqlar. Har narsa ko'p bo'lsa bahosi arzon bo'lur, aql esa ilm va tajriba soyasida qancha ko'paysa, shuncha qimmat baho bo'lur dermish». Shuning uchun ham aql-zakovat ma'naviyat asosi hisoblanadi.

O'smirlar jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy yangilanishining muxim sube'ktlaridan bo'lib, turmushida ro'y berayotgan jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkazadi va taraqqiyotni harakatga keltirishda muxim rol o'ynaydi. Mamlakatimizning ertangi kuni qanday bo'lishi yoshlarning har tomonlama salohiyati va yetukligiga bog'liq. Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek, yosh avlod madaniyatimiz va ma'naviyatimizni, taraqqiyotining intellektual qadriyatlarini kelajak jamiyat a'zolarining ongiga yetkazadi.

Yoshlar bunday ma'suliyatli vazifani bajarishlari va ularning erkin rivojlanishi ijodiy bunyodkorlik faoliyatiga qulay imkoniyatlar yaratib berish uchun O'zbekistonda katta amaliy ishlar qilinmoqda.

O'smirlarning aqliy qobiliyatlari va imkoniyatlarini yuzaga chiqarish muammosi – ularni ma'naviy kamol toptirish, mehnat faoliyatida shaxsiy ijtimoiy manfaatlarni uyg'unlashtirish, Vatan taraqqiyoti ehtiyojlarini anglab yashash, mehnat qilishga o'rgatish bizning aniq va muxim vazifamizdir. Xalqimizda yaxshi naql bor: «Aql orzusi – bilim» degan. Aqliy faoliyatga qobiliyatli bo'lgan, aqliy ist'dod

¹ И.Каримов жамиятимиз мафкураси халқни-халқ, миллатни-миллат қилишга хизмат этсин: Т.: Ўзбекистон

bilan boshqalardan ajralib turadigan ayrim yoshlarni maxsus tafakkur metodlariga o'rgatish ham juda muxim ahamiyatga ega. Yangi zamonaviy ilmiy-texnikaviy taraqqiyotini zukko, oliy tafakkur xislatlariga ega bo'lgan yoshlarimizsiz tasavvur qilish qiyin. Shu sababli oliy o'quv yurtlarida, yoshlar tashkilotlarida, o'rta maxsus va umumiy o'rta ta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilari orasida ilmiy tafakkur talab qiladigan, uning xislatlarini rivojlantiradigan, takomillashtiradigan maxsus mashg'ulotlar olib borish va shu sohani yaxshi o'zlashtirgan mutaxassislar tayyorlash barcha o'quv muassasalarida ommaviy ravishda olib borilishi lozim.

Jamiyat hayoti va ta'lim soxasida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar o'smir shaxsining milliy – ma'naviy qadriyatlarni egallash extiyojlarini aniqlash va uni qondirish zaruriyatini vujudga keltirmoqda. O'smirlarda eng avvalo milliy-ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirishga bo'lgan zarurat va talabni qaror toptirish lozim. Ular o'z faoliyatlarida milliy – ma'naviy qadriyatlarga nisbatan zaruriyat va muxtojlikrini his etishlari kerak. Shu zarurat tufayli ham 5-9 sinf uquvchilirining o'z-o'zlarini tarbiyalashlari milliy –ma'naviy jixatdan takomillashtirishlari kabi masalalar ilmiy nuqtai nazardan aloxida dolzarblik kasb etmadi. Bunda badiiy adabiyot , tarix , milliy sang'at va madaniyat namunalaridan foydalanishga ahamiyat berildi.

Vaholangki o'smirlar bu davrda o'zlarini tanib anglab boradilar, ularning ichki ma'naviy olami ochiladi. Bu davrda o'smir xayotida ma'suliyatli bo'lib, bunda o'smirlarda milliy ahloq ko'nikmalari tarkib toptiriladi , o'zi, atrofdagilar hamda jamiyat a'zolariga nisbatan qaror topadi. Bu esa mazkur 11-18 yoshdagi o'quvchilarning asosiy mayllarini tashkil etadi. Bular o'zini-o'zi anglash, o'zligini nomoyon etish , o'zligini ta'kidlash va tasdiqlatish o'zini tadbiiq qilishga bo'lgan kuchli intilishlar orqali nomoyon bo'ladi. Maktabdagi mavjud xolatni taxlil qilish natijalari shuni ko'rsatmoqdaki 5 -8 sinf o'quvchilarida moddiy boyliklarga ega bo'lish istagi ma'naviy qadriyatlarni egallash istagidan kuchliroqdir .

Albatta har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi , o'ziga hos urf-odatlar va an'analari , hayotiy qadriyatlardan ayri xolda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu

borada tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'xna tarixiy yodgorliklar eng muxim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda olimlar o'smirlarning milliy qadriyatlarni egallashga bo'lgan ehtiyojlarni shakllantirishning muxim bilish jarayoni bilan bog'liq ijtimoiy, estetik, axloqiy, tarixiy, madaniy jihatlariga alohida e'tibor qaratishlari lozimligini kuzatishlarimiz yaqqol ko'rsatdi.

Yuqori sinf o'quvchilarida ma'naviy ehtiyojni shakllantirishning yo'llari S.A Gurevich va Ye. V. Kvyatkovskiylar tomonidan qisman tadqiq etilgan. Ehtiyoj, shu jumladan qadriyatlarni egallashga bo'lgan ma'naviy ehtiyojni shakllantirishning pedagogik vositalari hamda o'z-o'zini takomillashtirish masalalari L.S.Necheporenka tomonidan o'rganilgan.

Yuqorida bayon etilgan fikrlarga asoslangan xolda shuni takidlash kerakki;

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida vujudga kelgan zaruriyat bilan milliy-ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirish jarayoni orasidagi qarama-qarshilikni bartaraf etish uchun yagona maqsadga yo'naltirilgan o'smirlarning milliy-ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirishga qaratilgan tizimni vujudga keltirish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan bir qatorda, 5-8- sinf o'quvchilarida milliy-ma'naviy qadriyatlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish strategiyalarni aniqlash va ularni amaliyotga tadbiiq etish vositalari, usul va metodlarni belgilab berish ham muhim vazifalardan biridir.

Bu borada quyidagi muommolarni yechish zaruriyati tugilmoqda: o'smirlarda milliy-ma'naviy qadriyatlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni shakllantirishning ilmiy asoslarini belgilab berish, o'quv-tarbiya jarayonida 5-8- sinf o'quvchilarida milliy-ma'naviy qadriyatlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik tizimni vujudga keltirish kabilar.

Bugungi kunga kelib shaxs ma'naviyati hamda ma'naviyatlilik darajasi haqida juda ko'p gapirilmoqda. Bu sohada talaygina ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Bu ishlar, shubhasiz ta'lim oluvchilar ma'naviyatini, ularning ehtiyojlari

darajasida shakllantirishda muxim o'rin egallaydi. Biroq, ushbu yo'nalishdagi aksaryat ishlarda ma'naviyat tushunchasi, uni o'smir ongiga yetkazish, u yoki bu o'quv predmeti doirasida ta'lim oluvchilar ma'naviyatini shakllantirish haqida fikr yuritilgan. Shuning uchun ham bugungi kunda o'smir shaxsi ma'naviyatini shakllantirishda muhim o'rin egallaydi. Biroq, ushbu yo'nalishdagi aksariyat ishlarda ma'naviyat tushunchasi, uni o'quvchi ongiga yetkazish, u yoki bu o'quv predmeti doirasida ta'lim oluvchilar ma'naviyatini shakllantirish haqida fikr yuritilgan. Shuning uchun ham, bugungi kunda o'smir shaxsi ma'naviyatini shakllantirishning muhim jihatlari, jumladan, ular milliy-ma'naviy qadryatlarni egallashga bo'lgan ehtiyojlarni tarkib toptirish orqali, o'quvchilarning ma'naviyatini shakllantirish ustida izchil, tizimli tadqiqot ishlarini amalga oshirish muhimdir.

o'smirlarda milliy-ma'naviy qadryatlarni egallash ehtiyojlarini shakllantirish muammosini pedagogik, psixologik, falsafiy jihatdan chuqur tahlil etish lozim.

Ma'naviyat tushunchasi o'zida bir qator tushunchalarni mujassamlashtiradi. Turli ilmiy manbalarda ma'naviy ehtiyoj tushunchasiga turlicha ta'rif beriladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi prezidenti I. A. Karimov ma'naviyat tushuncha quyidagicha ta'rif beradi: "ma'naviyat - insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymom-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir. U o'z fikrini davom ettirib quyidagilarni ta'kidlaydi: "Mening nazarimda, "ma'naviyat" tushunchasi jamiyat hayotidagi g'oyaviy, mafkuraviy, ma'rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o'zida to'la mujassam etadi. Shuning uchun ham bu mavzuda fikr yuritganda, mazkur qarashlarning barchasini umumlashtirib, keng manoda "ma'naviyat" tushunchasi orqali ifoda etish mumkin".

O'zbekiston Milliy ensklopediyasida ma'naviyat tushunchasi quyidagicha izohlangan: Ma'naviyat –"mano" so'zidan olingan bo'lib, inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o'z ichiga oladi".

Ma'naviyat tushunchasi tarkibiga kiradigan turli tushunchalar, o'quv predmetlararo munosabatlar orqali kengayib,

boyib boradi. Insonning ma'naviy dunyosini hamda o'ziga xosligi vujudga keladigan ma'naviy ehtiyojlarining asosini tashkil qiladi. Shuning uchun ham birinchi navbatda, o'quvchilar milliy-ma'naviy qadiryatlarini egallash ehtiyojini vujudga keltiradigan manbalarni aniqlash lozim. Milliy-ma'naviy qadiryatlar tushunchasi milliy, diniy, tarixiy tushunchalar bilan bevosita bog'liqdir. Milliy-ma'naviy qadiryatlar tushunchasi o'zbek xalqi madaniyati, diniy qarashlarini egallash ehtiyoji bilan chambarchas bog'liqdir. Chunonchi diniy qarashlar va diniy e'tiqod insonni poklaydi, uning ruhiyatini yengillashtiradi insonning ichki dunyosi va ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatishda islom dini keng imkoniyatlarga ega. Diniy qarashlarda inson jismi va ruhiyati, yaxshilik va yomonlik, gunoh va savob qarama-qarshi qo'yilib, bu tushunchalar insonni ma'naviy takomillashuviga chorlaydi. Biz o'z tadqiqotimiz davomida o'quvchi ruhiyati va uning ma'naviy poklanishiga bo'lgan ehtiyojlarini shakllantirish muammolari ustida ham to'xtalamiz.

Ma'naviyat kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy badiiy, ahloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmuidir. Ma'naviyat - mafkura, tafakkur tushunchalariga yaqin va ular bir-birlarini taqazo etadilar. Ma'naviyat insonning butun umri davomida uning kuchiga kuch qo'shadigan aql idroki zakovatini kengaytiradigan va mustahkamlaydigan vositadir. Ma'naviyatimiz - O'zbekistonning porloq kelajagiga dadil ishonch bilan borayotganligi, xalqimizda yuksak insorparvarlik qadriyatlarini tiklanayotganligi va takomillashayotganligini ifodalovchi o'ziga xos dunyoqarashidir. O'zbekistonning kelajakda buyuk davlatga aylanishi, mustaqilligimizning taqdiri, milliy istiqbolimizning taqdiri - milliy istiqbolimiz posbonlari bo'lgan yosh avlodlarimizning kuch-g'ayratli, aql-idrokli, yetuk, bilimdon, amaliy tayyorgarlikka ega bo'lishiga aqliy, jismoniy, ma'naviy-madaniy kamolatga erishuviga bog'liqdir. Yoshlar-vatanimiz, millatimiz kelajagidir. Ular o'z zimmalariga yuklanayotgan mas'uliyatni anglab yetishlari, chuqur xis qilishlari, unga munosib bo'lishlari shart. Prezidentimizning Vatan manfaatini mustaqillik manfaatini hamma narsadan yuqori qo'yadigan, qalbida o'ti va erk tuyg'usi jo'shib turgan, g'ayratli bilimdon yosh kadrlar tayyorlashga aloxida e'tibor berib kelayotganligi, ularga katta umid va ishonch bilan qarashi, qo'llab-quvvatlashi bejiz emas. Prezidentimiz I.A.Karimovning asarlaridagi

bebaho nazariy qoidalar, dastur, yo'l-yo'riqlar, Xalqimizning, ayniqsa yosh avlodning g'oyaviy, siyosiy, ma'naviy ma'rifiy dunyoqarashini shakllantirish va faollashtirishda ahamiyati katta bo'lgan donishmandlik namunasidir. Ota-bobolarimiz bizga qoldirgan boy ilmiy meros, kelajak avlodning tafakkur, dunyoqarashini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirib, ularning bunyodkorlik faolligini oshirishda mustaqillik poydevorini mustaxkamlashning asosiy garovidir. "Xalqning ma'naviyati va madaniyati uning, haqiqiy tarixi va o'ziga xosligi - deb yozadi prezidentimiz I.A. Karimov qayta tiklanayotganligi, jamiyati uni yangilash va taraqqiy ettirish yo'lidan muvaffaqiyatli ravishda olg'a siljitishda xal qiluvchi, ta'bir joiz bo'lsa belgilovchi ahamitga egadir².

Qadriyatlar muammosi Platon davridan boshlab tadqiqotlar obyekti sifatida yashab kelmoqda. Unga nemis klassik falsafasi tomonidan ancha aniqliklar kiritildi. Nemis olimi Kant birinchi marta insonni qadriyatlarni aniqlash asosida talqin etdi:

Inson ikkita olamga mansub mavjudot sifatida tushunildi:

1) erkin bo'lmagan, hali o'z yo'lini anglab yetmagan, o'z instinktiga ergashib yuradigan tabiat olami. Bu olamda qadriyatlar mavjud bo'lmaydi;

2) erkinlik va idroklash olami. U o'zining taqdirini belgilaydi va uni o'zi belgilagan o'z ideallari, maqsadlari asosida quradi. Bu olamda qadriyatlar mavjud, lekin ular ochiq mujassam bo'lmaydi, balki maqsad sifatida namoyon bo'ladi. Qadriyatlarni Kant talqinicha idrok etishda uning sof subyektiv hosila ekanligi, ya'ni ularni har bir shaxs o'z hayoti qadriyatlarini o'zi aniqlashi ilgari suriladi.

Ko'plab insonlar uchun obyektiv mazmunga ega umumiylik mavjud emas. Ular uchun qadriyatlar aniq obyektlar hayoti vaziyatlarga bog'liq holda chorlaydigan his-tuyg'ular va ichki kechinmalardir.

Shunga muvofiq holda qadriyatlarni uchta tushunchasi shakllandi:

Qadriyat — har qanday foydali va ma'qul bo'lgan narsa. Bu utilitar nuqtayi nazar sifatida paydo bo'ldi.

Qadriyat--- ideal, muqaddas hodisa, his-tuyg'ular intilishi sifatida tushiniladi. Bu san'atga mansub tushuncha sifatida amalga oshiriladi.

Qadriyat – inson uchun obyektلامي muhim ahamiyat kasb etishi sifatida anglanadi.

Qadriyat o'z mazmuniga muvofiq obyektiv mazmunga egadir. Obyektiv qadriyatlar odamlar tomonidan aynan bir xil munosabatlarni paydo bo'lishini bildirmaydi. Shuning uchun ham qadriyatlarni baholash subyektiv bo'lishi mumkin. Qadriyatlarning obyektiv ekanligini aniqlash uchun mezonlar ishlab chiqiladi. Bu kabi mezonlar sifatida hodisalar yoki voqealarning ijtimoiy jihatdan foydali ekanligini ko'rsatish mumkin. Undan qadriyatlar iyerarxiyasi va umuminsoniy qadriyatlar to'g'risidagi masala paydo bo'ladi. Umuminsoniy qadriyatlar deganda, barcha davrlarda mavjud bo'lgan va barcha insonlar

² И.Каримов. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир III том Т. Ўзбекистон 1996 й 274-бет

qadriyatlarini tushuniladi. Barcha qadriyatlar ichida umuminsoniy qadriyatlar unchalik ko'p emas:

1. Hayot
2. Salomatlik
3. Bilim
4. Mehnat

Aksiologik nuqta'i nazardan qaraganda oddiy askar va qo'mondonning hayoti garchi amalda namoyon bo'lmasa ham bir xil qimmatga egadir. Umuminsoniy qadriyatlar bizning hayotimizda ideallar sifatida ishtirok etib turishiga bog'liq ravishda ulardagi umuminsoniy mazmunning mavjudligi darajasiga muvofiq ravishda qadriyatlar iyerarxiyasini tuzish mumkin. Qadriyatlar iyerarxiyasini qadriyatlarni tasniflash bilan adashtirib bo'lmaydi. Qadriyatlarni sinflarga bo'lish mumkin:

Turmush darajasi bo'yicha: a) oliy qadriyatlar; b) moddiy hayot qadriyatlari; d) ijtimoiy qadriyatlar; g) ma'naviy qadriyatlar.

Subyektlar bo'yicha: a) shaxsiy qadriyatlar; b) guruhiiy qadriyatlar; d) sinfiy qadriyatlar; e) ijtimoiy qadriyatlar.

Ijtimoiy ong shakllari bo'yicha: a) fanlar qadriyatlari; b) ahloqiy qadriyatlar; d) estetik qadriyatlar; e) siyosiy qadriyatlar; f) huquqiy qadriyatlar; g) diniy qadriyatlar.

Ko'pincha yuqorida ko'rib o'tgan qadriyatlar bilan uyg'unlashadigan, lekin o'zining alohida xususiyatlariga ega bo'lgan milliy qadriyatlar ham bir necha minglab yillardan buyon rivojlanib va takomillashib kelmoqda.

Milliy qadriyatlar ildizlarini anglab yetishda, tasniflashda va aniqlashda uni soddalashtirishdan ehtiyot bo'lish zarur. Bu ijtimoiy va oliy qadriyatlarning bir-birlari bilan o'zaro bog'liq bo'lgan hamda o'zaro bir-birini taqozo qiladigan, lekin, shu bilan birga, nisbatan o'zini barqarorligi va mustaqilligini saqlay oladigan hodisasi sifatida namoyon bo'ladi.

Fanda «milliy qadriyatlar», «milliy qadriyatli-yo'naltirilgan ong» va «milliy millatning universal umuminsoniy qadriyatlari» ma'lum etnosni ijtimoiy, psixologik o'ziga xosligini, boshqa shu kabi birliklardan farqlanishini, mazkur etnosning barcha a'zolarini umumiy g'oyalar va yo'l-yo'riq ko'rsatmalar asosida birlashuvini ifodalaydi. Rivojlanish va shakllanishining turli bosqichlarini o'z boshidan kechirayotgan ko'plab etnoslar tarixini o'rganish shuni ko'rsatadiki, etnos a'zolarining birligi boshqa narsalardan ko'ra ko'proq ma'lum psixik xislatlarning mavjudligi, voqealar va munosabatlarni o'zlashtirish va baholash kabi qadriyatlardagi umumiylik bilan ta'minlanadi. Milliy qadriyatlarni anglashda shu kabi his-tuyg'ular va munosabatlarning ayni shu birikuvlari nuqtayi nazari bilan yondashish talab etiladi.

Milliy ruhning universal umuminsoniy qadriyatlari, milliy qadriyatlar va milliy qadriyatli yo'naltirilgan ong nafaqat psixologik — his-hayojonli xarakter kasb etadi, balki etnik biriik tomonidan e'tirof etiladigan hayotiy muhim moddiy obyektlar, timsollar, nishon-belgilarni ham o'zida ifodalaydi. Bu qadriyatlarning e'tirof etilgan muhimligi asosida aniq bir etnos vakili bo'lgan insonning tub manfaatlarini yotadi: yashamoqlik, rivojlanish, ideal maqsadlarga erishish. Har bir

millat faqat uning o'zigagina mansub bo'lgan temperament birikuvi, tafakkurlash va dunyoni idrok etish turi bilan yaqqol ajralib turadi. Ma'lum bir o'ziga xos shaklda axborot olayotgan millatning ichki dunyosining noyobligi, ichki tuzilishining barqarorligida har qanday millat vakillarining bioijtimoiy hamjamiyati va madaniy birligi sifatidagi qadriyati turadi.

Bugungi kundagi turli zararli ta'sirlardan saqlanish, har qanday sharoitda ham xalqimizga azaldan xos bo'lgan milliy qiyofa, betakror fazilatlar egasi bo'lib qolishimizda qadimiy an'ana va qadriyatlarimizni asrab-avaylab, ularga amal qilib yashash o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Yer yuzidagi har bir millat faqat uning o'ziga xos bo'lgan an'ana va qadriyatlari bilan alohida ajralib turadi, tabiiyki, har qaysi xalqning bebaho boyligi bo'lgan bunday qadriyat va a'analar bir-ikki kunda paydo bo'lib qolmagan. Insoniyatning necha ming yillik tarixiy tajribasi shuni ko'rsatadiki, biror-bir narsaning an'anaga, ayniqsa, qadriyatga aylanishi uzoq davrni talab qiladi. Yillar, asrlar davomida muayyan qarash, odat, tushuncha, tajribalar zamonlar, avlodlar sinovidan o'tadi, sayqal topib boradi. Agar ular keyingi avlodlar tomonidan ham qabul qilinsa, davom ettirilib, urf-odatga aylansa, demakki, endi ularni milliy an'ana va qadriyat deb atash mumkin bo'ladi.

Holbuki qadriyat aksiologiyaga xos kategoriyadir. Qadriyatni aksiologiya nuqtai nazaridan talqin qilish uni kategoriya sifatidagi mohiyati, mazmuni, ob'yektiv asosi, namoyon bo'lish shakllari va xususiyatlarini o'rganish imkonini beradi. Qadriyat kategoriyasi faqat buyum va narsalarning iqtisodiy qimmatini emas, jamiyat va inson uchun biror ahamiyatga ega bo'lgan voqelikning shakllari, holatlari, narsalar, voqealar, hodisalar, talab va tartiblar va boshqalarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladi. Ijtimoiy jarayonlar ta'sirida kishilarning qadriyatlar to'g'risidagi qarashlari o'zgarib boradi. Tarixiy zaruriyatga qarab goh u, goh bu qadriyat ijtimoiy taraqqiyotning oldingi safiga chiqadi. Masalan, yurtni yov bosganida — ozodlik, imperiya hukmronligi nihoyasida — istiqloq, urush davrida — tinchlik, tutqunlikda — erkinlik, kasal yoki bemorlikda — sihat-salomatlikning qadri oshib ketadi. Qadriyatlar ijtimoiy tarixiy taraqqiyot mahsuli sifatida o'z tarixiy ildizi, rivoji, vorislik jihatlariga ega. Qadriyatlar mehnat, ishlab chiqarish sohasidagi faoliyat, insonlar o'rtasidagi munosabatlar uchun foyda keltiradigan narsalar, hodisalar, xatti-harakatlar majmuasi sifatida yuzaga kelib, ayrim kishilar, ijtimoiy guruhlar faoliyati, xatti-harakatini ma'lum yo'nalishga buradigan, tegishli me'yorga soladigan ma'naviy hodisaga aylanadi. Qadriyatlar umumbashariy, milliy, shaxsiy bo'lishi mumkin. Olam, tabiat va jamiyatning eng muhim tomonlarini, qonun-qoidalarini, aloqadorliklarini ifodalaydigan qadriyatlar umumbashariy xususiyatga ega. Bunday qadriyatlar o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan, abadiy qadriyatlardir. Muayyan bir elat, millat, xalqning hayoti, turmush tarzi, tili, madaniyati, ma'naviyati, urf-odat va an'analari, o'tmishi va kelajagi bilan bog'liq qadriyatlar milliy qadriyatlardir. Inson, uning faoliyati, turmush tarzi, e'tiqodi, umr ma'nosi, odobi, go'zalligi bilan bog'liq qadriyatlar shaxsiy qadriyatlardir. Qadriyatlar komil insonni tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Qadriyat, hayotda qadriyatlarga moslashish, qadriyatlarni mo'ljallab ish tutish madaniyatshunoslik fanining muhim kategoriyasidir.

Kishilar ongida qadriyat kategoriyasi turli narsa va hodisalarni taqqoslash orqali shakllanadi. Inson dunyoni anglab olganidagina, dunyoda sodir bo'lgan va bo'layotgan hodisalar, voqealar, o'zgarishlarni tushunib yetgandagina, o'zining hayoti uchun nimalar muhim yoki muhim emasligini, nimalarsiz yashash mumkin yoki mumkin emasligini ajrata oladi. Tabiiyki, har bir inson o'z qadriyatlar dunyosini o'zicha aniqlaydi. Demak, qadriyatlar bu narsalar emas, balki narsalarga, hodisalar va boshqalarga munosabatdir. Shunday qadriyatlar borki, ularsiz ma'lum davr madaniyati kemtik, noqulay bo'lib qoladi. Shaxs madaniyati misolida bu holatni quyidagicha tasvirlash mumkin bo'ladi: qadriyat shunday narsaki, usiz biron shazsning to'la yoki qisman mavjudligi o'z ahamiyatini yo'qotadi.

Qadriyatlar deganda nimani tushunish kerak?

Qadriyatlar- borliq va jamiyat, narsalar, voqealar, hodisalar, inson hayoti, moddiy va ma'naviy boyliklarning ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'laniladigan tushuncha. Ko'pgina hollarda kishilar qimmatbaho buyumlarni qadriyat deyishadi. Aslida esa qadriyat so'zining ma'nosi boshqacharoq. Masalan, ming yillar ilgarigi buyumning bahosi arziyas bo'lishi mumkin, negaki, uni hozir ishlatib bo'lmaydi. Ammo meros sifatida u buyum nihoyatda qadrli, ahamiyatli bo'lishi mumkin. Qadriyatlarni madaniyat singari moddiy va ma'naviy qadriyatlarga ajratish mumkin.

Moddiy qadriyatlarga insonlar uchun jismoniy qulayliklar yaratuvchi xo'jalik, texnik, sog'liq, jinsiy juftlik, boylik, qulay maishiy shart-sharoitlar, toza suv, sifatli oziq-ovqat va boshqalarni kiritish mumkin.

Ma'naviy qadriyatlarga ilmiy, axloqiy, estetik, diniy, badiiy va boshqa qadriyalar kiradi. Ayrim qadriyatlar tarixiy, davriy xususiyat kasb etib, davr o'zgarishi bilan o'zgarib borishi mumkin. Shu bilan birga doimiy, universal ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar ham mavjud. Masalan, odamni qahramonlikka, Vatanga sodiqlikka undovchi qadriyatlar. Badiiy, ahloqiy qadriyatlar han universal qadriyatlar hisoblanadi. Eng yuksak qadriyatlar ezgulik, mehr va muhabbat, mehnat, hayot, muhabbat, adolat, haqiqat, baxt singari mezonlarda ifodalanadi.

Qadriyatlar amal qilish doirasiga ko'ra milliy, mintaqaviy va umuminsoniy turlarga ham bo'linadi.

Milliy qadriyatlar murakkab ijtimoiy-ruhiy hodisa bo'lib, u millatning ganofondi, tili, turmush tarzi, madaniyati, tarixi, urf-odatlarini, an'analari, milliy ongi, moddiy va ma'naviy boyliklari, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha jihatlarida namoyon bo'ladi. O'z milliy qadriyatiga ega bo'lmagan millat yo'q. milliy qadriyatlarning sohibi muayyan millatdir. Millatning tanazzuli ayni holda milliy qadriyatlarning ham tanazzulidir. Har bir millat o'z qadriyatlarini yaratuvchisi, asrab-avaylaguvchisi va kelajakka yetkazuvchisi hamdir. Millat siyosiy jarayonlar natijasida biror imperiya yoki davlatga qaram bo'lib qolganda ham o'z milliy qadriyatlarini saqlash tuyg'usi yo'qolib ketmaydi, milliy qadriyatlar ma'lum darajada saqlanib qoladi. O'zbek xalqining boy, o'ziga xos betakror milliy qadriyatlari bor, ular bir necha ming yillar davomida shakllangan. Qadriyatlar dastlab mahalliy mazmunda, ya'ni Xorazm, Surxondaryo, Buxoro, Samarqand,

Toshkent, Farg'ona va hokazo hududlarda yashovchi aholiga xos urf-odatlar, rasmlar, marosimlar tarzida shakllanadi. So'ngra ularning eng muhimlari asrlar davomida saralanib umumilliy qadriyatlar darajasiga ko'tariladi. O'zbek xalqiga xos quyidagi jihatlar uning milliy qadriyatlari sifatida boshqa xalqlar tomonidan e'tirof etilgan:

- tug'ilgan makon va yurtga ehtirom;
- avlodlar xotirasiga sadoqat;
- kattalarga hurmat, kichiklarga izzat;
- mehmondo'stlik;
- bolajonlik;
- ma'naviyat-axloq-odob-ma'rifat;
- muomalada mulozamat, hayo, andishalik;
- og'ir kunlarda vazminlik, sabr-toqat va hokazo.

Qadriyatlar haqida gap borganda *mintaqaviy qadriyatlar* ham inobatga olinadi. Mintaqaviy qadriyatlar hududi, tarixi, iqtisodiyoti, madaniyati, dini, tili, urf-odatlari va an'analari mushtarak bo'lgan xalqlar manfaatiga hizmat qiladigan tabiiy va ijtimoiy hodisalar majmuasini tashkil etadi.

Umuminsoniy qadriyatlar - odamzod uchun, kishilik jamiyati uchun eng qadrlil bo'lgan narsalar, hodisalar, faoliyat va boshqalarning umumijtimoiy qadrlini, ahamiyatini ifodalash maqsadida qo'llaniladigan tushunchadir. Umuminsoniy qadriyatlar butun insoniyat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan, insoniyatning mavjudligi, o'tmishi, buguni va kelajagini, yashashning asosiy yo'nalishlari, qonun-qoidalari, talab va tartibotlarini, odamlarning eng azaliy orzu-umidlari va ideallarini o'zida aks ettiradigan qadriyatlar nazarda tutiladi. Butun insoniyat uchun umumiy foydalanish imkonini beradigan universal texnologiyalar, ishlab chiqarish, boshqarishni tashkil etish, kosmonavtika, kibernetika, axborot texnologiyalari umuminsoniy qadriyatlar jumlasiga kiradi.

Umuminsoniy qadriyatlar madaniyat, ma'naviyat, fan, din, san'at, huquq, siyosat, ijtimoiy ong shakllari bilan bog'liq yutuqlar, kashfiyotlar, yaratilgan boyliliklar, ma'naviy kamolotning yo'nalishlari, vositalari kiradi. Inson, uning hayoti, yaxshilik, go'zallik, adolat, haqiqat, erkinlik, tenglik, do'stlik muhabbat, baxt-saodat, vatanparvarlik va hokazolar umuminsoniy qadriyatlarning eng oliysi, ideal qadriyatlardir.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan bir davrda jamiyat va davlat o'zligini uskurmalariga munosabati turli ma'rifiy madaniy g'oyalar tushunchalar anglagan vatanparvarlik tuyg'usi bilan millat, xalq manfaatlari, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy ravnaqi uchun ma'suliyatli ilmiy bilim, mehnat va kasb hunar kunikmalarini o'zida mujassam etgan ma'naviy madaniyatili shaxsni tarbiyalab yetishtirishda manfaatdordir. Bunday shaxsni shakllantirishda asrlar davomida xalqimizning ma'naviy ixtiyoji, talabi asosida yaratilgan qadriyatlar muxim rolb o'ynaydi.

Ma'lumki, umumiy ta'lim oldiga qo'yilgan eng muhim maqsad - umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayangan xolda ta'lim tarbiyaning mazmunida

insonparvarlik g'oyasini kuchaytirish, xalq chillashtirish va shular asosida yoshlarda ma'naviy madaniyatni shakllantirishdan iborat.

Mamlakatimizda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar demokratik ta'lim tizimiga asoslangan bo'lib, unda olg'a surilayotgan g'oyalar quyidagilardan iborat:

- 1) Shaxsning ma'naviy madaniyatini xozirgi davrda insoniyat erishgan barcha yutuqlar asosida kurish lozim;
- 2) Ma'naviy madaniyatni shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvor bo'lishiga erishmoq lozim;
- 3) Ma'naviy madaniyatni shakllantirishda miliylikdan yiroq va unga zid unsurlardan vos kechmoq zarurdir.

Madaniyat arabcha so'z bo'lib, u jamiyatning ishlab chiqarish. Ijtimoiy va ma'naviy hayotida qo'lga kiritilgan yutuqlari majmuidir. Madaniyat shaxs kamolatiga ikki xil jihatdan ta'sir qilib, ular quyidagilardan iborat:

1. Moddiy ya'ni texnika, ishlab chiqarish tajribasi, moddiy boyliklar.
2. Ma'naviy ya'ni fan, adabiyot maorif, san'at, din muminsoniy va milliy ruxiy qadriyatlar.

Ana shu moddiy va ma'naviy madaniyatning o'zaro aloqasi o'zaro tasiri natijasida aqlan yetuk, ahloqan barkamol, jismonan sog'lom, dunyoqarashi keng, yaxlit shakllangan ya'ni komil inson shakllanadi.

Ma'naviy madaniyat bu shaxsning tashki olam, xolat ichki kayfiyatlar ta'minlash, erkparvarlik orqali qabul qilib olish jarayonidir. Bunda umuminsoniy va milliy qadriyatlar, shaxsning ijtimoiy tuzum tug'risidagi qarashlari ma'naviy madaniyatning negizini tashkil etadi va uning mohiyatini namoyon etuvchi ob'ekt shaxs hisoblanadi. Shaxs ma'naviy madaniyatining asosiy manbasi bo'lgan ma'naviy ruhiy qadriyatlar, fan, adabiyot, san'at, maorif, din komil insonni shakllanishida muxim roly o'ynaydi. Ma'naviy madaniyat aqliy, siyosiy, iqtisodiy, xuquqiy, ekologik, estetik, badiiy, diniy madaniyat kabilardan tuzilgandir. Bular ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi yoki talaba jamiyatning har bir a'zosi ongiga singdiriladi. Aqliy madaniyat - jamiyat va tabiat qonun qoidalariga munosabat; Xodisalar va ularning bir - birlari bilan bog'lishg'i; Insoniyat hayoti, turmush tarzi; jamiyat taraqqiyoti xaqidagi ilmiy bilimlarni o'zlashtirish, yaxlit idrok etish, takrorlash, tasavvur va tafakkur etish xolatlari jarayonida shakllanadi.

Jamiyatning moddiy va ma'naviy rivojlanishida diniy ta'limot, ya'ni asrlar davomida tarbiya vositasi bo'lib xizmat qilib kelayotgan diniy ma'naviy qadriyatlar ham muxim roly o'ynaydi. Din siyosat bo'lmasdan u ma'naviy hayotning tarkibiy qismidir.

Biz yuqorida sanab o'tgan ma'naviy qadriyatlar mezonlariga amal qilish yaxlit tarzda olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Ma'naviy madaniyatning shakllanishida asosiy yo'nalishni beruvchi metodologiya quyidagi muammolarni yechishda xizmat qilmog'i lozim:

Milliy ukuv muassasasi negizida ta'lim- tarbiya tizimini milliy lashtirish;

1. Har bir jamiyat a'zosi xatti-xarakati, hulq-atvorida umuminsoniy, milliy-ma'naviy qadriyatlarni tarkib toptirishda tayanch bo'lish;

2. Shaxsni milliy, umumbashariy madaniyat manbalarining mohiyatini chuqur anglab yetishida dasturiy yo'llanma berish;

3. Shaxsni madaniy qadriyatlar orqali jahon miqyosidagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jarayonlarga intilishida tug'ri yo'llanma berish.

Tarixan tarkib topgan milliy an'a-na, urf-odat, rasm-rusm, taomil, marosimlarning vujudga kelishi va ri-vojlantirishiga bir qancha omillar bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Ay-niqsa, milliy marosimlar va urf-odatlar taraqqiyotida moddiy va ma'naviy madaniyat, tabiiy muhit, xo'j&tik munosabatlari ta'siri beqiyos bo'lib, vaqt o'tgan sari ular tobora mustahkam-lanib avlodlarga meros bo'lib o'tib kel-gan va shu tariqa ularning barqarorli-gini ta'minlagan.

Jamiyat taraqqiyoti tufayli milliy marosimlar va urf-odatlar ham o'zgarib, ularning ayrimlari amaliyotdan chiqib unutilgan. Turmushga, zamonga qarab, yangi-yangi urf-odatlar va marosimlar kirib, takomillashib borgan. Xalqchil urf-odatlar va marosimlar zamonlar osha davr sinovlariga bardosh berib yashab kelmokda. Qolaversa, asrlar davomida bir makonda aralash yashab kel-gan xalqlarning an'analar va urf-odat-larida o'xshashliklar ko'p. Turli tari-xiy davrlarda O'zbekistonning tub yerli turg'un aholisiga kelib qo'shilgan qabila va elatlar o'troqlashib, o'zbeklarning udumlarini qabul qilganlar va ayni vaqtda unga o'z hissalarini qo'shganlar.

O'zbeklarning Movarounnahr va Xo-razm hamda ularga tutash mintaqalarda o'troq dehqonchilik va hunarmandchilik madaniyati sohibi bo'lgan tub joy (mahalliy) xalq ekanligiga xalqimizning ona tabiatga, yerga, suvga, havoga, olov-ga bo'lgan cheksiz hurmati va ularni e'zozlash b-n bogliq turfa xil urf-odat va marosimlari, an'anaviy dehqonchilik va hunarmandchilik udumlari mi-sol bo'ladi. SHuningdek, xalqimizning qad. milliy qadriyatlari bugungi kunda o'ziga xos tarzda rivojlanayotgan shaharsozlik va me'morlik an'analari, boy folklor namunalari, yozma meros, ada-biyot, san'atga bo'lgan qiziqishlarda, Navro'z, Mexrjon bayramlari, gul sayl-lari, Hosil bayramlari hamda nikoh, sunnat marosimlari b-n bog'liq udum-lar, rasm-rusmlarda aks etib kelmoq-da. Bu bayram va marosimlarda uzbek xalqining mardlik, lafzi halollik, bag'rikenglik, saxovatpeshalik, hojat-barorlik kabi xislatlari yorqin ifo-dasini topgan. Bu, ayniqsa, o'zbeklarning to'y-tantanalar uchun yillar mobay-nida yig'ib-terib elga tarqatishdan zavq-shavq olishida, aza va yo'qlov ma-rosimlarini uyushgan holda o'tkazishda, bola tug'ilishidan tortib to motam ma-rosimlarigacha bo'lgan barcha marosim va urf-odatlarda keng jamoatchilik va ma-halla ahlining doimo bosh-qosh bo'li-shi kabi udumlarda namoyon bo'ladi. Milliy mentalitetda, shuningdek, qad. aj-dodlarga xos chillak, chavgon, ko'pkari, kurash kabi milliy o'yinlar, «quloq tishlar», «beshik kerti», «qalin», «to'qqiz» kabi rasm-rusm va udumlar ham aks etgan.

O'tmishda O'zbekistonda barcha hayotiy masalalar b-n shaharda mahalla, qish-lokda qishloq va ovul jamoalari shu-g'ullangan. Mahalla va qishloq jamoa-sini jamoa yig'inida saylangan oqso-qol (Xorazmda — kadxudo) boshqargan. Ijtimoiy hayot masjid, choyxona va bo-zorlarda mujassamlashgan, ularda, aso-san, erkaklar ishtirok etgan. Kishining e'tiqodi, millati va ijtimoiy mavqei emas, balki, muayyan

jamo'a hududida yashashining o'zi uning \$'sha jamoaga man-subligining yagona belgisi hisoblangan. Jamoadagi kishilar, kasb-hunari va mavqeidan qat'i nazar, jamoa ishlari (hashar) va marosimlarga qatnashishlari zarur bo'lgan, aks holda bunday shaxe xalq nazaridan qolgan. Uzbek xalqi oila qurish an'alariga rioya qilishda, qiz uzatish yoki kuyov tanlashda ham quda

bo'lmish tomoni xususida ma'lumotga ega bo'lib, ularning ijtimoiy kelib chiqishini, jamoada tutgan o'rni va obro'-e'tiborini hisobga oladi. Agar kuyov yoki kelin bo'lmish tomonning aqli, odobi, husni-malohati bir hissa bo'lsa, ularning qarindosh-urug'lari, avlodning jamoadagi mavqei va bu xususdagi jamoatchilik fikri ikkinchi, aksariyat hollarda hal qiluvchi omil va-zifasini o'tagan. Farzannlarni yaxshiga qo'shish, bu borada xato qilib qo'ymaslikda jamoa, jamiyat ra'yi, ko'pchilikning kengashli fikri muhim rol o'ynaydi. SHu boisdan ham, jamoatchilik fikrining shaxe turmush tarzi, takd-rini belgilashdagi ustuvorlik mavqei beqiyosdir. SHu bois xalq orasida «G'arb qonunlar, SHarq urf-odatlar b-n bosh-qariladi», degan naql keng tarqalgan. Darhaqiqat SHarqda, shu jumladan, o'zbeklarning turmush tarzida ham ko'plab urf-odatlar qonun darajasida yuqori turadi.

O'zbeklar orasida keng tarqalgan jamoatchilik an'analari chuqur tarixiy ildizlarga ega. Bu tartibotning ibtidoi mintaq xalqlarining eng qad. yozma manbai hisoblangan «Avesto» kitobida bayon etilgan. Yozma va arxeologik manbalarda mintaqaning qad. shaharlari aholisi orasida jamoalar faoliyat ko'rsatganligi, faqat turmushdagina emas, balki i. ch.da ham jamoa asoslari mavjudligi qayd etilgan. O'rta asrlarda jamoa faqat jamoaviy asoslardagi sug'orish tizimini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash, binobarin, dehqonchilik b-n shug'ullanish mumkin bo'lgan qishloq aholisi uchun ham, shuningdek, shahar aholisi uchun ham o'zining ilgari ahamiyatini saklab qolgan va barcha udumlar, marosimlar qishloq va shaharda mahalla jamoalarining tashabbusi b-n o'tkazilgan.

O'zbekiston va O'rta Osiyodagi boshqa mamlakatlar mustaqillikka erishgach, boshqa qadriyatlar qatorida Navro'z bayrami ham qayta tiklandi. Hozir O'zbekistonda Navro'z umumxalq bayramlaridan biri sifatida nishonlanadi. 21 mart kuni dam olish kuni deb e'lon qilingan. Har yili shu kuni respublikaning barcha viloyatlaridagi xiyobon va maydonlarda bayram sayillari tashkil qilinadi, konsertlar beriladi. Bir necha kun mobaynida mahallalarda Navro'zga bag'ishlangan tadbirlar o'tkaziladi, sumalak, halim va b. taniq taomlar pishiriladi. Navro'z kunlari hokimliklar, mahallalarning faollari, xayr-ehson tashkilotlari — mehribonlik uylari bolatari, urush va mehnat faxriylari, yolg'iz keksalar huzuriga tashrif buyurib, ularni qutlab, sovg'a-salomlar ulashadi.

O'quvchilarda ta'lim-tarbiya jarayonida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma'naviy boyliklarni, milliy qadriyatlarni egallash maqsadi shakllantirilgandagina bu maqsad milliy-ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini vujudga keltiradi. O'quvchini oliy maqsadga ega bo'lishlari, ularning madaniyatliliklari va ma'naviyatliliklari mezonidir.

O'quvchining o'ziga xos idealga ega bo'lishi natijasida uning umuminsoniy, ijtimoiy ruhiyati namoyon bo'ladi. U o'zining oliy

darajadagi hayotiy faoliyati rejasini tuzadi. Bu rejada o'quvchining mdaniy-ma'naviy ehtiyojlari, intilishlari aks etgan bo'ladi. CHunki milliy-ma'naviy qadryatlarda jamiyat a'zolarining tafakkuri, ajdodlarning oliy maqsadi, intilishlari va ehtiyojlari o'z ifodasini to'gan.

Ma'naviy ehtiyojlar o'quvchining holatini belgilaydi. Ular o'quvchilarni oliy madaniy maqsadlar sari yetaklaydi.

O'quvchining go'zallikka intilishi natijasida ularning badiiy didi, hissiyotlari, dunyoqarao'lari, saviyalari, nuqtai nazarlari, ehtiyojlari. Ijodiy faoliyat ko'nikmalari tarkib to'adi. Nafosat sirlarini egallashga intiladigan o'quvchilar undan zavqlana olishlari bilan ajralib turadilar. Go'zallikni egallashga bo'lgan ehtiyoj eng avvalo, o'quvchining undan zavqlana olishida namoyon bo'ladi.

SHuni ta'kidlash kerakki, har qanday ehtiyoj bosqichlarga ega bo'ladi.

“Qadriyat” tushunchasining ilmiy isteg'molga olib kirilganiga ko'' vaqt bo'lmagan, ammo uning negizi, substantsional mohiyati insonning ijtimoiy faoliyati yekanligi mudom yeg'tirof yetiladi. Antik davr mutaffakkirlarida”qadriyat”, “qadr”, ”qadrlash” tushunchalarini ijtimoiy borliq, inson faoliyatining bahosi, baholanishi, borshqalar tomonidan mag'lum bir normalar asosida qadrlanishi tarzida tushunganlar. Masalan, Aristo telning fikriga ko'ra, qadriyat hodisalarga baho, munosabat, yaxshilik va yovuzlik, qimmat tushunchalarida, shuningdek, insondagi sog'liq, kuch-quvvat, guzallik sifatida talqin qilinadi. Mutaffakkir qadriyat so'zini “Insonning qadr-qimmatini” mag'nosida qo'llab, uni kamolotga yetishishi, biror narsaga bo'lgan munosabatining ifodasi sifatida qaraydi.

Aflotun asarlarida g'oya, ideal,haqiqat va qadriyat bir-biridan ajratilmagan. O'rta asrlarga kelib yesa inson SHarq va G'arb Xudo, Alloh nomi bilan ish ko'rgan. Demak, ilohiy qadriyatlarga eg'tibor katta bo'lgan. Bugunga kelib yesa diniy qadriyatlar bilan uyg'unlashib ketmoqda.

Nemis qadriyatshunosi G.Rikkert falsafa qadriyatlar haqidagi fan yekanligini tag'kidlaydi. Rikkert qadriyatlarni o'rganish to'g'risida ko''roq madaniyat va ang'anaviy go'zal qadriyatlarga yeg'tibor berish kerakligini taklif qiladi. I.Kant odam haqiqatni izlash uchun fikrlashini uqtirib, haqiqatni go'zallik vayaxshilikka bo'ladi. Haqiqat bahs orqali tug'iladi, qadriyat yesa aql bilan yaratiladi, deydi faylasuf. SHarq mutaffakkiri Abu Hamid G'azzoliy inson faqatgina tafakkur orq aligina dunyoni anglashini uqtiradi.

“Qadriyat” tushunchasi SHarq va G'arbda qadimdan qo'llanilganiga qaramay, XX asrga kelibgina faylasuflar u to'g'risida tag'limotni ruvojlantira oldilar. CHunki XX asrda qadriyatlar haqidagi tag'limotning ruvojlaniishi uchun barcha imkoniyatlar vujudga keldi. .

Falsafa qomusiy lug'atida “Qadriyat- voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-ahloqiy, mag'naviy-madaniy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan falsafiy-sotsiologik va aksiologik tushuncha. Jamiyat va

insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsa.hodisa va voqealar: erkinlik, ezgulik.tenglik,haqiqat,mag'rifat,madaniyat,moddiy va mag'naviy boyliklar, obida-yodgorliklar, go'zallik, ahloqiy xislat hamda fazilatlar, ang'ana, urf-odat, udum hisoblanadi",-deb qayd etiladi.

Demak, "qadriyat" falsafiy kategoriya, tushuncha sifatida muayyan moddiy va mag'naviy hodisalar, shuningdek, ularning ayrim xususiyatlari ifodasidir. Bu hodisalardan jamiyat o'zining amaliy ehtiyojlarini qondirish uchun foydalanadi. Insonning ijtimoiy-siyosiyYu iqtisodiy, ahloqiy, estetik jihatlardan olamga bo'lgan munosabatini ifodalovchi tushunchalar har xil sharhlanib kelinmoqda. Qadriyat shakllari orasida qonuniy, zaruriyo uyg'unlik mavjud bo'lib,ular doimo dialektik aloqadorlikdadir. Kundalik hayotda faol qo'llaniladigan qadriyatlar iborasi odamlar uchun zarur ahamiyat kasb etadigan narsa, hodisa, obg'ekt, 'redmet kabilarga nisbatan ishlatiladi. "Qadr" tushunchasi o'zbek tilidagi bag'zi ibora va so'zlarda o'rqona falsafiy mazmun borligidan dolalat beradi hamda serqirra mag'no kasb etadi.

Qadriyatlar ichida eng birinchi va eng umumiy hayotnin uzidir, chunki hayotdan mahrum bo'lish qolgan barcha qadriyatlardan foydalanishni yo'qqa chiqaradi... qolgan qadriyatlar, aslini olganda , hayot neg'matlarining mohiyatidir va mag'naviy qadriyatlardir.

Olim J. Tulenov fikricha esa "qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan , millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hodisalari majmui tushuniladi". Inson hayot bo'lsagina narsalar, tabiat, butun borliq, moddiy va mag'naviy madaniyat qadr-qimmatiga ega bo'ladi.

Insoniyat tarixining dastlabki bosqichlarida shakllangan mehmondorchilik odati hayotiy zaruratlar bilan bog'liq bo'lgan va tarixning turli bosqichlaridan o'tib hozirga qadar yetib kelgan. Ma'lum sabablar bilan tarqalib ketgan urug'-aymoqlar bir-birlarini axtarib topgach, ular ulug' mehmon tarzida izzat-ikrom bilan kutib olingan. Bora-bora mehmondorchilik xalqlarning udumiga aylangan; mehmonga nafaqat urug'doshlar va qarindoshlar, hatto begona kishilar, musofir yo'lovchilar ham kabul qilingan. Mahalla va qishloq jamoalari xonadonlarida mehmonni kutish uchun maxsus xonalar — mehmonxonona qurilgan. Odat bo'yicha mehmon mehmonxonada qabul qilingan. Mehmonxonasi bo'lmagan xonadon uni yashab turgan uyida kutgan.

Xonadonga kelgan mehmonni, qavm-qarindoshni kattalar bilan bolalar ham birgalikda chiqib kutib olganlar. Mehmon, odatda, mehmonxonona yoki uyning to'riga o'tqaziladi. To'kin dasturxon yozilib, non va choy keltiriladi. Keyinroq taom pishirilib (ko'pincha palov, norin, qovurdoq, sho'rva) tortiladi. Agar mehmon ot yoki ot-arava minib kelgan bo'lsa ot-ulovini bola (o'spirin) yoki maxsus otboqar otxonaga kiritib, beda-pichan bergan. Mehmon ketar vaqtda uning oti yoki ot-aravasi yo'lga hozirlangan va otga minishiga yordam berilgan; bolalar mehmon bilan kattalar qatorida xayrlashganlar. Mezbon iloji boricha mehmonga saxovat ko'rsatishi shart bo'lgan. Mehmon imkon darajasida kutib olinmasa, xonadon sohibi jamoa nazaridan qolgan.

O'zbekcha mehmondorchilik taomilidan yana biri — mehmon kimning xonadoniga kelishidan qat'i nazar, uni zudlik bilan borib ko'rishishga oshiqqanlar. Chunki mehmon, ayni vaqtda, qishloq yoki mahalla jamoasining ham mehmoni hisoblangan. Mehmonni navbati bilan boshqa xonadon sohiblari ham uylariga taklif qilish odat bo'lgan. Ulug' mehmon oyog'i tagiga poyonoz to'shab, ba'zan qo'y so'yib kutib olingan. Ziyofatga qo'shnilar, mahalladoshlar yoki qishloq oksoqollari, hurmatli kishilar taklif etilgan. Mehmonni kuzatish oldidan sarpo kiydirish odati ham bo'lgan. Uzbek xalqining mehmondorchilik taomillari ajdodlardan avlodlarga o'tib, hozirgacha saqtanib kelmoqda.

Kattalarni hurmat qilish uzbek xonadonida umuminsoniy qadriyatlardan bo'lib, bolaga juda yoshligidan boshlab o'rgatilgan. Yoshi katta kishining ishiga yordamlashish odat va odob hisoblangan. Jamoa yetakchisining yoki oila boshlig'ining qarori oila va jamoa manfaatlariga mos kelganligi uchun uni bajarish shart hisoblangan. Qariyalar ayni vaqtda o'tmishdan meros bo'lib kelayotgan va kundalik hayot uchun zarur bilimlarni, xususan, o'tmishdan meros bo'lib qolgan taomil (urf-odat)larni yoshlarga o'rgatganlar. Bolalar nafaqat ot-onaning, balki qishloq yoki mahalla jamoasi kattalarining ham diqqat e'tiborida bo'lgan. Yoshlar aynan jamoada milliy meros va urf-odatlarni o'rganib boradi.

Uzbek xalqining hayotida mavjud bo'lgan tartib va qoidalar xalq an'analarida hamda islom dini va shariat qoidalari asosida yuzaga kelgan, albatta. Odob qoidalariga rioya qilish oiladan boshlangan. Yoz paytlarida, ayniqsa, barvaqt turilgan. Bolalar bet-qo'llarini yuvib kattacharga salom bergan. Kattalar, ayniqsa, mehmonlar qo'lga suv quyib sochiq tutish yoshlikdan, bolalikdan o'rgatilgan.

Dasturxon oilaning ko'rki, to'kinlik ramzi hisoblangan. Uning atrofida yig'ilib o'tirish ham ma'lum odob doirasida bo'lgan. Dasturxonga hurmat bajo keltirish

odatga aylangan. Dasturxon «Bismilloh» bilan ochilib, Yaratganga shukrona aytilib, o'tganlar haqqiga duoi fotiha qilib, tiriklarga sihat-salomatlik, dasturxonga qut-baraka, elu-yurtga tinchlik va farovonlik tilab yig'ishtirilgan.

1.2. Sharq mutafakkirlarining milliy qadriyatlar haqidagi qarashlari

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishishi munosabati bilan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti yangi bosqichiga ko'tarildi. Yangi demokratik jamiyatni barpo qilishning muhim omili hisoblangan umuminsoniy va umumbashariy qadriyatlarga hamda milliy an'analar rivojiga keng imkoniyatlar ochib berildi.

Markaziy Osiyoda, jumladan O'zbekistonda tarbiya borasida to'plangan tarbiya uslublari kamol topayotgan yosh avlod ta'limi hamda tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. O'zbek halqi barcha sharq halqlari kabi yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga juda katta ahamiyat bergan. Bu an'ana avloddan - avlodga, halq donishmandligining timsoli sifatida o'tib kelgan va milliy madaniyatimizda o'ziga xos o'rin tutadi.

Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosida ta'lim-tarbiya masalalari muhim o'rinni egallaydi. Ayniqsa ular yoshlarni oilaviy qadriyatlar asosida tarbiyalashga katta e'tibor berganlar.

Qolaversa, sharqda shunday diniy – tasavvufiy asarlar ham mavjudki, ularda yosh avlodni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalash masalalari ilgari surilgan bo'lib, ular ma'naviyatimiz tarixida munosib o'rinni egallaydi.

Xalqimizning buyuk farzandlari jahon madaniyatiga aql bovar qilmaydigan darajada ta'sir ko'rsatgan. Birgina Farobiyning 160 dan ortiq asarlari jumlasiga «She'r san'ati», «SHoirlarning she'r yozishi to'g'risida», «Musiqqa haqida so'z», «Ohanglar tasnifi haqida kitob» kiradi. Farobiy barcha insonlarni baxtga erishish uchun hamkorlikka chaqiradi.

Uning fikricha har qanday inson kamolatga erishuvida boshqalarning ko'maklashuvlariga va ular bilan birlashishga muxtoj yoki majburdirlar.

Ayniqsa, Sayyid Muhammad ibn Sayyid Baxouddin Naqshbandiyning ta'lim-tarbiya haqidagi fikr-mulohazalari va pandu-nasihatlari g'oyat qimmatlidir. Baxouddin Naqshbandiy barkamol insonni tarbiyalashni, dastlab odobdan boshlanishini ta'kidlab, shunday degan edi. “Adab hulqini chiroyli qilish, so'z va fe'lni soz qilishdir”. “Adab saqlash–muxabbat samarasi, yana muxabbat daraxtining urug'i hamdir”. Agar adabdan ozgina nuqsonga yo'l qo'ysang ham, nimaiki qilmagin, beadablik ko'rinadi. Odam o'zini bir xil sifat va ko'rinishda olib yurishi lozim, toki odamlarda unga tasarruf (ta'sir qilish) ta'masi paydo bo'lmagan bo'lsin. Naqshbandiy do'stlik va o'rtoqlikka katta e'tibor bergan va agar do'st aybiga boqsangiz, do'stsiz qolasiz, hych kim dunyoda beayb emas, degan purhikmat satrlarni qoldirib ketgan.

Sharq mutafakkirlari o'z zamonasidayoq yosh avlod tarbiyasining ijtimoiy vaziyat (shart - sharoit) bilan bog'liq ekanligini, bu vaziyatni o'zgartirilishi uning tarbiyasiga ta'sir qilishi tabiiydir,-degan xulosaga kelishgan.

Markaziy Osiyoda tasavvuf ta'limotini Al-Xorazmiy, Abu-Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Xoja Ahmad Yassaviy, Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Imom at-Termiziy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Amir Temur va boshqa yirik siymolar rivojlantirishgan. Bular jumlasiga Yusuf Hos Hojibning “Qutadg'u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Xibbatul-

xaqoyiq”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Shayx Sa’diyning “Bo’ston va Guliston”, A.Jomiyning “Bahoriston”, Alisher Navoiyning “Hayratul Abror” va “Maxbubul qulub” va hokazolarning asarlarini kiritishimiz mumkin.

Abu Nasr Muhammad Forobiy “Har bir shaxs munosib odam, unga ta’lim va tarbiya zarurdir. U ta’lim orqali nazariy kamolotga erishadi, tarbiya orqali esa, kishilar bilan muloqotning qadr-qimmatini va amaliy faoliyatni o’rganadi”, degan. Forobiy bolalarning fe’l-atvoriga qarab tarbiya jarayonida “qattiq” yoki “yumshoq” usullardan foydalanish kerak, deb hisoblagan.

Forobiyning ta’lim–tarbiya xaqidagi g’oyalari avvalo Ollohni bilishga, insoniyat yaratgan ilmiy bilimlarni o’zlashtirishga qaratilgan. U ta’lim–tarbiyaning vosita va usullarini asoslab bergan (15).

Abu Rayhon Muhammad bin Ahmad Al-Beruniyning (973-1051) oilada ota-ona va farzand tarbiyasi xususidagi fikrlari e’tiborga loyiqdir. Faylasuf, olim o’zining “Hindiston”, “Minerologiya”, “Kitob-as-Saydona”, “Geodeziya”, “Yodgorliklar”, “E’tiqodlar va dinlar haqida” va boshqa asarlarida odob, ahloq, nafosat, mehnat tarbiyasi, oila va oilada, ota–ona va farzand tarbiyasi xususida qimmatli fikrlarni bildirgan. Beruniyning oilada ahloq-odob tarbiyasini amalga oshirish va uning uslublarini takomillashtirish sohasidagi fikrlari juda diqqatga sazovordir.

Abu Rayhon Beruniy insoniyatning istiqbolli kelajak sari rivojlanib borishida ilm-fanning, madaniyat va ma’naviyatning, kishi dunyoqarashining hamda mehnatning o’rni beqiyos ekanligini uqtiradi. Beruniy kishilar hayotidagi yomonlikni qoralaydi. Uning fikricha, bu illatni yo’qotishning asriy yo’li uning ildizlarini topish va kesib tashlashdir. Yomonlikning shoxobchalari ko’p, ammo ularning asosi uch narsa: ta’ma, g’azab va ilmsizlikdir. Agarda bu asoslar qirqib tashlansa, shoxobchalar quriydi.

Buyuk qomusiy olim sifatida Sharq mutafakkirlarining yana biri, Abu Ali Ibn Sinodir (980-1037). Uning pedagogik–psixologik qarashlari ilmiy asosda qurilgan bo’lib, u bolaning fe’l-atvori va tasavvurlari tariqasida umuminsoniy g’oyalar qo’llanilishini ishlab chiqqan.

Ibn Sinoning yozishicha, insonning eng yaxshi fazilatlaridan biri o’zining yomon axloqiy xislatlarini anglab, ularni yo’qotishga intilishidir. Uning yaxshi xislatlari ichida boshqalarga e’tibor va g’amxo’rlik bilan munosabatda bo’lishi maxsus o’rin tutadi. Kimki o’zining axloqini tarbiyalash uchun o’z oldiga qo’ygan vazifasini bajarib, o’z xulqini tuzatishga intilsa, uiga hеч narsa qo’rqinchli emas. Kimki o’z xatosini tuzatolsa, u boshqalarning tarbiyasi haqida g’amxo’rlik qila olishi mumkin.

Ahmad Yugnakiy o’z zamonasining iste’dodli shoiri, adibi, donishmandidir. U o’z asarlarida Turkiston xalqlariga Qur’oni Karim oyatlari va payg’ambar Muhammad alayhissalom hadislarini asosida ta’lim–tarbiya berish g’oyasini ilgari suradi. Ahmad Yugnakiy o’zining pedagogik va psixologik qarashlarida sir saqlash xislatlari haqida ham fikr bildiradi. Uning fikricha, diniy ma’naviy e’tiqod paydo bo’lishi natijasida or-nomus, iffat, izzat, hurmat, g’azab, yovo’zlik kabi xis–tuyg’ular hosil bo’lgan. Bu his–tuyg’ular ta’sirida insonlarda

ezgulik bilan yovo'zlik xislatlari kuchayib savob yoki gunohlar sodir bo'ladi, deydi.

IX asrning buyuk mutafakkiri va shoiri Yusuf Xos Hojib o'zining "Qutadg'u bilig" nomli shoh asarida inson va uning hayotiga oid qarashlarini bayon qiladi. U odamning Olloh tomonidan yaratilganligini hamda odamning dunyoga kelishi va uning kelajakda qanday odam bo'lib voyaga yetishi va kelib chiqishiga, hayotda shug'ullanayotgan faoliyatiga, atrofga nisbatan munosabatlariga bog'liqligini aytib "Kimning nasli otadan boshlab toza bo'lsa, undan elga yaxshilik, ko'p manfaatlar keladi", deb hisoblaydi. Yusuf Xos Hojib "Qutadgu bilig" dostonida til odobi, sevgi va sadoqat, rostgo'ylik va halollik kabi masalalar bo'yicha hikmatli so'zlarni bayon qiladi, mayxo'rlik va mutakabbirlikni tanqid qiladi, kishining yurish-turishi, o'zini tutishi haqida o'git beradi.

Abulqosim Mahmud ibn Umar Zamahshariy–zabardast o'zbek olimi, arabshunos, shoir va yozuvchi. Zamahshariy o'zidan kattalarni hurmatlash, bolani tarbiyalash va unda ota–onaning vazifalari haqida qimmatli fikrlarni bayon qilgan. Uning fikricha, ota–ona bolani xushhulq, odobli, mehnatsevar, aql-idrokli qilib tarbiyalamoqchi ekan, avvalo uni me'yoridan ortiq erkalamasligi, doimo nazoratda tutishi kerak. "Hayvonni qashlasa shodlanib egasin tepadi, odam bolasi erkalansa ota–onasini azobga qo'yadi", degan fikrlarni bildirgan.

Abdurahmon Jomiy–bolalarni tarbiyasi haqida bir qancha asarlar yaratadi. Bunday asarlar jumlasiga "Bahoriston", "Xirodnomai Iskandariy", "Guxfatul axror", "Silsilatus zahab" va boshqa asarlarini kiritish mumkin. Bu asarlarda ta'lim–tarbiya tanlash, yaxshi xislat, adab egallash borasida qator ta'limiy va uslubiy fikrlar bayon etiladi. Jomiy tarbiya orqali insonni o'zgartirish, aqliy qobiliyatini o'stirish mumkin, deyishi bilan birga, bola tarbiyasi bilan juda ham yoshligidan boshlab shug'ullanish lozim; chunki, go'dakligida kishi hych qanday nuqsonsiz, yaxshi-yomon odatlardan xoli bo'ladi, deydi. Jomiy, o'zining nasl–nasabini maqtab, ota–onasining davlatiga ishonib, taralla–bedod qilib yurgan yoshlarni qattiq tanqid qiladi.

Markaziy Osiyoda keyingi ilmiy-madaniy taraqqiyot sohibqiron Amir Temur (1335-1405) va temuriylar sulolasi hukmronligi davrida yuz berdi. Buyuk bobokalonimiz har vaqt: «Insonparvarlik va mardlikni Olloh ham, xalq ham ulug'laydi», degan hikmatli so'zini takrorlashni xush ko'rgan va hayotda o'zi bunga amal qilgan. Shuningdek, Amir Temur odob-axloq, iymon, e'tiqod, ta'lim–tarbiya sohasida o'zi yuksaklikka, mukammallikka erishgan siymolardan biridir.

Jahon madaniyati tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk mutafakkirlar orasida faxrli o'rin sohibi, Alisher Navoiy (1441-1501) o'zining badiiy asarlarida komil inson obrazini yaratib, ta'lim–tarbiya to'g'risidagi fikrlarini ifodalagan bo'lsa, ta'limiy–ahloqiy asarlarida esa, komil insonni shakllanti-rishning mazmuni, yo'llari, usullarini bayon etgan.

A. Navoiy o'z asarlarida tasavvurlaridagi bola tarbiyasi bilan oilada va maktabda shug'ullanib namuna uslubida foydalanishni tavsiya etadi. Shu bilan birga, ta'lim–tarbiya ota–ona hamda o'qituvchi tomonidan olib borilishi lozim, deb ta'kidlaydi.

A.Navoiy bolalarga jismoniy jazo berish emas, balki xushmuomalalik bilan muomalada bo'lishni tavsiya etgan, lekin bunda Navoiy o'qituvchining talabchan bo'lishiga undagani, ammo har ikkalasida ham ma'lum me'yorni bilishi zarurligini uqtirgani ma'lumdir. A.Navoiy tarbiya haqida gapirar ekan, "Qobiliyatini tarbiya qilmaslik zulmdir va qobiliyatsizga tarbiya xayf", deb ta'kidlaydi. Alisher Navoiy ta'lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor berar ekan, tarbiya jarayonlarini, vositalarini va talablarini ko'rsatadi. U ta'limda ilmiylikka asoslanganlik, kabi talablarni asos qilib oladi.

Somoniylar davrida (X asr) faqat Samarqandning o'zida 20 ga yaqin madrasalar mavjud bo'lgan. Abu Ali ibn Sino (980-1037) o'zining «Donishnoma» («Bilimlar kitobi») nomli asarida mazkur madrasalarda faqat musulmonchilikka oid bilimlar berilibgina qolmay, balki dunyoviy ilmlar ham o'rganilganligi, ilmiy tadqiqotlar olib borilganligi, ularning negizida ilmiy maktablarning yuzaga kelganligi qayd etiladi.

O'z davrida madrasalarda o'qitilishi yo'lga qo'yilgan fanlarni Abu Ali Ibn Sino quyidagi tizimlar bo'yicha ajratadi: odob (xulq etikasi), astronomiya, tibbiyotshunoslik, til va uning grammatikasi, fikh (musulmon qonunchiligi).

Alloma tomonidan taklif etilgan tarbiya turlari esa quyidagilardan iborat: 1) aqliy tarbiya; 2) jismoniy sog'lomlashtirish; 3) estetik tarbiya; 4) ma'naviy tarbiya; 5) hunarga o'rgatish. Abu Ali Ibn Sino tomonidan taklif etilgan tarbiya turlari Markaziy Osiyoda, Uyg'onish davrida (IX-X asr) ta'limning insonparvarlik va shaxsning barkamol rivojlanishi borasidagi g'oyalarga asoslangan edi deyishga imkon beradi.

Muhammad Tarag'ay Ulug'bekning (1394-1449 yillar) Samarqanddagi faoliyati XIV-XV asrlarda madrasalarning fanlar rivojini ta'minlovchi markazlari vazifasini bajarganligini ko'rsatadi. Muhammad Tarag'ay Ulug'bek Samarqandning hukmdori bo'lishi bilan birga, astronom, matematik va tarixchi sifatida mashhur bo'lgan. SHuningdek, allomaning mohir pedagog ham bo'lganligini tarixiy dalillar qayd etadi. CHunonchi, alloma ko'plab iste'dodli yoshlarni tarbiyalagan. U odamlar, ayniqsa, yoshlarning ilmiy bilimlarni o'rganishlariga katta ahamiyat bergan.

Alloma o'z davlatida ta'lim sohasida jiddiy islohotlarni tashkil etdi. U madrasalarni davlat ta'minotiga o'tkazdi, mudarris (o'qituvchi)larga oylik ish haqi belgilagan, shogird (talaba)larga stipendiya ajratgan.

Muhammad Tarag'ay Ulug'bek madrasa o'quv rejasiga quyidagi fanlar: arab tili, adabiyot, Qur'on, Hadis, ritorika, mantiq, falsafa, fikh (qonunchilik), metafizika, matematika, astronomiya, tibbiyot, geografiya, tarix kabi fanlarni kiritadi.

Mutafakkir tomonidan barpo etilgan hamda o'zi bevosita ta'lim bergan madrasalarda o'qish quyidagi bosqichlardan iborat bo'lgan:

1. «Anda» (kichik) – o'qish muddati 2 yil.
2. «Aust» (o'rta) – o'qish muddati 3 yil.
3. «A'lo» (oliy) – o'qish muddati 3 yil.

Bunday yondashuvda, bugungi kun nuqtai nazaridan aytganda, bakalavriat va magistratura ko'zga tashlanadi. Ayni vaqtda ular o'rta asr evropa universitetlari uchun ham xos bo'lgan.

Buyuk iste'dod egasi sifatida alloma o'z davridan bir necha asrlarga o'zib ketgan. Deyarli 600 yil avval Muhammad Tarag'ay Ulug'bek quyidagi aksiomani ilgari surgan: «Bilim olishga intilish davlat ravnaqiga yo'l demakdir». Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning hozirgi tajribasi mazkur fikrni to'la tasdiqlaydi.

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) bola tarbiyasi haqida, u farzand tarbiyasida qo'llanilishi lozim bo'lgan usullar deb:

1. Ota-onaning farmoni farzand uchun vojibligi.
2. Barcha insonlarga yaqinlikni o'rgatish.
3. Har bir paytda o'zingizni ibrat aylab ko'rsatish.

4. Mustaqillik, qat'iylilik va uddaburonlik uchun bolaga doimiy talablarni qo'yish va uning ijrosini kuzatishlarini hisoblaydi. Boburning ta'lim-tarbiyaviy qarashlaridagi bosh masala Vatanga cheksiz muxabbatdir. Uning shu mavzudagi she'rlari kitobxonni Ona Vatanni sevishga, unga fidoyi, sodiq bo'lishga, o'z xalqiga xizmat qilishiga chorlaydi, o'quvchining qalbida yuksak insonparvarlik tuyg'ularini uyg'otadi.

Asrimizning yetuk ma'rifatparvari (1878-1934) Abdulla Avloniyning 1913 yildagi yozgan "Turkiy guliston yohud ahloq" asarida bola tarbiyasi borasida va umuman uning ijtimoiy roli falsafiy-pedagogik jihatdan keng ochib berilgan. Alloma tarbiya jarayonida oila va jamoatchilikning rolini, uning hamkorligini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, barkamol shaxsning ko'p qirrali bilimlarga ega bo'lishi, yaxshi bir kasbu-korning sirlarini egallash bir tomondan ijtimoiy muhit va oilaviy sharoitga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan bolalarning g'ayrat va shijoatiga, sa'y-harakatlariga, xohish-istaklariga bog'liq bo'ladi. Shuningdek, taniqli shoir va pedagog A.Avloniy "Bolaning sog'ligi va baxti, avvalo uning yaxshi tarbiyalanishiga, badanning tozaligiga, e'tiqod hosil qilishiga, yaxshi hulqqa ega bo'lishiga, uni g'ayri ahloqiy harakatlardan ogohlantirilishiga bog'liq" - degan edi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, islom olamining muqaddas kitoblari Qur'oni Karim, Muhammad alayhissalom o'g'itlari, hadislar va Sharq mutafakkirlarining bola tarbiyasi, ma'naviyati, bolalar va yoshlarni yetuk, barkamol inson qilib tarbiyalashda hamda shakllantirishda milliy qadriyatlarining o'rnini o'rganishga doir juda ko'plab qimmatli psixologik-pedagogik qarashlarni, maslahat va fikrlarni olish mumkin.

1.2. O'smirlarlarda qadriyat tushunchasini shakllanishida oila, mahalla va jamiyatning o'rni

Yosh avloga tag'lim-tarbiya, bilim berish, uni ijtimoiy hayot va faoliyatga tayyorlashning asosiy mezonlaridan biridir. Tag'lim tarbiya orqali yoshlarning milliy qadriyatlar sirasiga kiruvchi ahloqiy fazilatlar shakllanadi, jamiyatdagi g'oyaviy, mafkuraviy jarayonlarga nisbatan munosabati o'zgaradi va barkamol shaxs bo'lib yetishishida imkoniyatlar 'aydo bo'ladi. SHexsning ijtimoiy mavqeini aniqlashda, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tizimini isloh qilish, ijtimoiy tartib va barqarorlikni qo'llab-quvvatlash, ishtimoiy nazoratni amalga oshirishda tag'lim-tarbiya jarayoni muhim ahamiyat kasb yetadi.

Islom Karimov oila qadriyatlari yoshlarning barkamol insonlar bo'lib shakllanishiga alohida ahamiyatga yegaligi, xalqimiz mustabidlik davrida ham o'z qiyofasini unutmagan, insoniylik o'zbek xalqi qadriyatini asosi yekanligini tag'kidlaydi.

Har qaysi mamlakat, yeng avvalo, o'zining yuksak madaniyati va mag'naviyati bilan qudratlidir. Mustaqilligimizning boshidayoq yurtimizda iag'niviy merosga asoslangan qadriyatlarni tiklash, mag'naviy va mag'rifat ishlariga alohida ahamiyat bergani muximdir.

O'zbekistonda umuminsoniy qadriyatlarga xurmat azaliy milliy yondashuv sanaladi. Xalqimizga xos bo'lgan mehmondo'stlik, birodarlik, do'stlik, sadoqat, halimlik umuminsoniy hamjihatlikning asosini tashkil yetadi. Umuminsoniy manfaatlarga milliy tiklanish g'oyasining uyg'unlashuvi istiqloлга yerishgan vatanimiz tashqi va ichki siyosatining o'zagini tashkil yetadi. Milliy o'xlikka yegalik, ozodlik, hurriyatni qo'ldan bermaslik, uni oliy qadriyat deb bilish milliy mentalitetimizning negizidir.

SHu bois, yoshlarni yezgulikka yo'g'rilgan qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularga vatan'arvarlik g'oyalarini singdirish muhimdir. Vatan'arvarlik, yeng avvalo, davlatimiz ramzlari bayroq, madhiya. Gerbimizda o'z ifodasini to'gan. Til orqali yesa yurtimizni ulug'laymiz, yoshlarimizni uning qadriga yetishga chaqiramiz. Ramzlarda xalqimizning orzu-umidlari, hayot yo'li, urf-odatlar, tabiatga bo'lgan munosabati, qadriyatlariga sodiqligi, mehr-muhabbati kabilar o'z aksini to'gan.

Vatan ona allasiga yo'g'rilgan beshikdan boshlanib, ota-onani tanlab bo'lmaganidek, Vatan ham tanlanmaydi. U Vatanni sevish, ardoqlash, taraqqiy yetishiga hissasini qo'shish imkoniyatiga yega. SHu orqali u hayotda ham o'ziga, ham oilasiga baxt bera oladi. Xalqimizda ota-ona qanchalik ulug'lanib, ardoqlansa, tug'ulib o'sgan Vatan shu nchalik qadrlidir.

O'zbekistonda oila va farzand masalalarining ilmiy tadqiq etilganligi holati

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, «Oila xayotining abadiyligi, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishga bevosita ta'sir kursatadigan tarbiya o'chog'i ekanligini tan olishimiz darkor. O'smir tug'ilgan kundan boshlab oila muxitida yashaydi, oilaga xos an'analar, kadriyatlar, urf-odatlar o'smir zuvalasini shakllantiradi. Eng muximi farzandlar oilaviy xayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, xis etadi»

Darxaqiqat, kelajagimiz poydevori bo'lgan yoshlarning ta'lim-tarbiyasi, avvalo, oilada shakllanadi. Shaxsga xos bo'lgan xarakter xislatlari, shuningdek, millatimizga xos bo'lgan etnik xususiyatlarimizdan, kattalarni e'zozlash, kichiklarni izzat qilish, Vatanni sevish va burch kabi xislatlarimiz aynan oila muxitida kamol topadi.

Shaxsga xos xarakterologik xususiyatlarning shakllanishiga kuchli va bevosita ta'sir etuvchi mikromuxitlar majmui bo'lgan muxitdir. Avvalo, bu uning ota-onasi, maktabgacha muassasa tarbiyachilari, qarindoshlari, tengqurlari, pedagoglar va boshqalardir. O'smirlarning xarakterini shakllantiruvchi, qobiliyatlarini rivojlantiruvchi mikromuxit insonga ikki yoqlama ta'sir ko'rsatadi. Bular:

a) jamiyatdagi ijtimoiy guruh tomonidan tashkil etilgan stereotiplar ya'ni, an'analar, qoidalar, me'yorlar va kundalik xayotdagi odatiy shart-sharoitlarning ta'siri;

b) yaqin muxit ya'ni, oilaning o'ziga xos xususiyatlaridan iboratdir.

Ta'kidlash mumkinki, o'smirlik davriga xos xarakter xususiyatlarining shakllanishiga ta'sir etuvchi bir qator komponentlar oilada shakllanib boradi, oqibatda, nosog'lom oila sharoitida tarbiya topayotgan farzandlar xulq-atvorida o'ziga xos salbiy individual psixologik xususiyatlar shakllanishiga sabab bo'lmoqdadir.

Bilamizki, oilaviy xayot har bir insonning to'la-to'kis rivojlanishini belgilab, shaxs xayotiy faoliyatining asosiy shartidir. Oila o'z xayotiy davrlarining turli bosqichlarida turfa xil qiyinchiliklar, jiddiy muammolar ichra yashaydi. Oilaviy xayot dinamik xususiyatga ega bo'lib, u o'zgaruvchandir va shu bois ham unda ba'zan stress xolatlari uchrab turadi. Oilaviy stressorlar paydo bo'lishining sabablari sifatida har bir oila a'zosining individual psixologik tasniflari bilan bog'liq stressorlar shuningdek, oiladan tashqaridagi stressorlar ham bo'lishi kuzatiladi.

Jumladan, ota-onalar ruxiyatini shikastlovchi shaxsiy xislatlarni o'rgangan olim A.I.Zaxarov tadqiqotlari ko'rsatishicha, shunday oilalarning bir necha avlodida shaxsiy ta'sirlanish tipi yetakchi xislat sifatida ko'zga tashlanadi. Bu xarakter aktsentuatsiyasidan darak beruvchi ya'ni, nevrozda shartli ichki psixologik konfliktni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Olimning fikricha, "Bola bir yoshli davridayoq uning emotsional rivojlanishida aktsentuatsiyani aniqlovchi ta'sirni ona ko'rsatadi va nevroz bolalarning oilada ona tomonidan

shaxsiy patogen nuqsonlari bo'lishi mumkin. O'g'il bolalar nevrozining eng ko'p tarqalgani, ularning qizlarga nisbatan xissiyotlari (ta'sirchanligi)ning kuchlilikidadir. Shuningdek, bu bolaning dunyoga kelishidan oldingi va keyingi ta'sirlarga xam bogliqligini ta'kidlaydi“

Ota - onalarning shaxsiy xislatlariga qarab, ma'lum darajada oila xarakterini va ularning bola tarbiyasidagi nuqsonlarni bilib olish mumkin. Bu o'z navbatida ota - onalarda ham shaxsiy anomaliyalarning mavjudligi xususida taxmin kilish imkonini beradi.

O'smirlardagi nevroz, klinik psixologik fonomen bo'lib, u oilaning bir necha avlodlar shajarasi davomida shakllanishi kuzatuvlar jarayonining natijasida keltirib o'tilgan. Bunda ta'sirlanishning nevroitik markazi senzitivlik, emotsional labillik, kuchli ta'sirchanlik, xavotirlanish, o'z shaxsiy fikridan qaytmaslik, shaxsning giperijtimoiy yo'nalganligi (burch, mas'uliyat xissining yuqoriligi) kabilarni o'z ichiga oladi. Demak, aytish mumkinki bolalardagi xarakter aktsentuatsiyasining kelib chiqishiga, ularda yuzaga kelgan nevroz xolatlari xam o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Yuqoridagi keltirilgan o'smirlarga xos bo'lgan xarakter aktsentuatsiyalari tipini aniqlash maqsadida tadqiqotlarimizda, V.V.Boykoning.

A.E.Lichko tomonidan keltirilgan salbiy xususiyatlar yig'indisi asosida ishlab chiqilgan qarindoshlar so'rovnomasidan foydalandik. Bu so'rovnoma bolalardagi salbiy xatti-harakatlarni tezkor tashxis qilish imkoniyatini beradi. So'rovnoma natijalari xarakterdagi salbiy xolatlarning belgilari borligi haqida ma'lumot beradi hamda ota-onalar bilan birgalikda umumiy tarbiyaviy, bevosita ta'sir qilish taktikasini qo'llashga izn beradi.

So'rovnoma 76 ta savoldan iborat.

So'rovnoma davomida ota-onalar yoki boshqa yaqin qarindoshlar yordamida o'smirlardagi 10 tagacha bo'lgan xarakterdagi salbiy xususiyatlarning, jumladan, gipertim tip, tsikloid tip, labil-tsikloid tip, stenonevroitik tip, epilep-goid tip, isteroid tip va beqaror tipning qaysi biri ustunlik qilishi aniqlanadi.

Har bir aktsentuatsiya uchun berilgai band (savollar) ball xisoblanadi. So'ngra bu ballar foizlarga aylantiriladi. O'tkazilgan tadqiqotlarda ota-onalar tomonidan olingan ma'lum'otlar kuyidagi kursatkichlarni namoyon etdi.

Ota-onalar bergan ma'lumotlarida 57 foiz gipertim tip, 50 foiz tsikloid tip, 62 foiz labil tip, 42 foiz astenonevroitik tip, 44 foiz senzitiv tip, 44 foiz psixoastenik tip, 37 foiz shizoid tip, 50 foiz epileptoid tip, 66 foiz isteroid tip, 49 foiz beqaror tipni tashkil etadi.

Yuqoridagi raqamlardan ko'rinib turibdiki, so'rovnoma natijasi o'smirlar orasida gipertim tip (57 foiz), labil tip (62 foiz), isteroid tiplar (66 foiz) yuqori ko'rsatkichga egaligidan dalolat berdi.

Ota-onalar so'rovnoma yakunida o'z farzandlaridagi xarakter aktsentuatsiyasi shakllanishida maktab, maxalla va turli ijtimoiy institutlarning o'rni borligini tasdiqladilar, ammo o'smir tarbiyasidagi ota-onalik mas'uliyati xususida shaxsiy fikrlarini qayd etmadilar. Demak, aksariyat ota-onalar farzandidagi

xarakteri aktsentuatsiyasini paydo bo'lishi sabablarini ko'proq tashqi omillardan izlashar ekan. Tarbiyachilarga mazkur ma'lumotlar o'smirlarning tarbiyaviy ta'sir strotegiyasini tanlashga yordam beradi. Lekin, aslini olganda o'smirlarda xarakter aktsentuatsiyasini yuzaga chiqishida oilaviy muxit asosiy o'rinni egallaydi. Bularga:

- tolerantlikning pasayib ketishi;
- usmir xulk-atvorida jismoniy va psixologic noqulayliklarga chidamlilikning pasayishi;
- oila muxitida shakllangan tajovuzkorlik, xudbinlik kabi xulq stereotiplarini namoyish kilishga intilish;
- o'smirning o'ziga xos individualligini ko'rsatishni cheklovchi talablar, tanbexlarga nisbatan yuqori reaksiya ko'rsatish;
- tengdoshlari bilan o'zaro shaxslararo munosabatlarda qaxr-g'azablilik, mehrsizlik belgilari:
- ijtimoiy foydali faoliyatda faol qatnashish, jamoa mas'uliyatini xis qilishlikni hoxlamasliklarini ta'kidlash;
- personifikatsiyaning yuqori darajadaligi, ya'ni faqat shaxsiy fikri va o'zini o'zi ma'qullash;
- kattalar bilan o'zaro xamkorlik va ularning tajribasini inkor etish shular jumlasidandir.

Bir guruh psixologlarning aniqlashicha, xarakterning yangi sifatlarini yuzaga kelishi va ularning mustaxkamlanishi real vaziyatlarni taqazo etadi. Shuning uchun xam xatti-xarakat odatni, odat esa xarakterni va xarakter taqdirni yaratadi, degan fikr mavjud. Xarakter qandaydir turg'un va o'zgarmas xususiyat emas. Xususan, o'smirlik yosh davrida xarakter xususiyatlari odatda «jiddiylashish», «boshqacha bo'lib qolish» tarzida ko'rinadi. Bu xol ijtimoiy omillar ya'ni, atrofdagilarga nisbatan munosabatlarning murakkablashuvi, gormonal yetilish oqibati xam bulishi mumkin. Shaxs xarakteridagi o'zgarishlarni yetarlicha xisobga olmaslik ziddiyatli va nizoli munosabatlarni vujudga keltiradi. Aynan shu davrda o'smir xarakterida:

- a) emansipatsiya reaksiyasi (kattalar qaramog'idan «ozod» bo'lishlik);
- b) tengqurlari bilan guruhlashish reaksiyasi;
- v) xobbi reaksiyasi kabi bir qator aktsentuatsiya xususiyatlari ustuvorlik qiladi.

Ko'pincha o'smirlar o'rtasida sodir etilayotgan deviant xulq-atvor ko'rinishlari — jinoyatchilik (delinkvent), giyoxvandlik (narkomaniya), tajovuzkorlik (agressivlik), o'z joniga qasd qilish (suitsid) kabi turli ko'rinish va darajadagi illatlar shakllanadi. Bularning barchasi jamiyatimiz uchun yot bo'lgan illatlar bo'lib, ular oiladagi destruktiv shaxslararo munosabatlar oqibatidir.

Jumladan:

- a) ota-onalarning o'z farzandlari tarbiyasiga befarq, loqayd munosabatda bo'lishi;
- b) oilada sog'lom turmush tarzini to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi;

v) ota-onalarda farzandlarining gender xususiyatlari psixologiyasiga oid bilimlarning yetishmasligi:

g) yosh va jinsga xos bo'lgan shaxslararo munosabatlar tizimini to'g'ri tashkil etish borasidagi saviyaning yetishmasligi;

d) jamiyatimiz uchun zid bo'lgan xatti-xarakatlarning yuzaga kelayotganligi, ilmiy asoslangan ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarning psixologik jixatlarini ochib berishligini taqozo etadi.

To'g'ri, hozirgi globallashtirish va integratsiyalashuv jarayonlarining kuchayishi munosabati bilan oilaning etnopsixologik xususiyatlaridagi milliy barkarorlik susayib, zamonaviylashish tendentsiyasi - --od kuzga tashlanmoqda. Bu fikrga

V.V. Boyko xam qo'shib, o'smirlardagi xarakter xususiyatlari shakllanishiga ta'sir etuvchi zamonaviy oilalarning o'ziga xos jixatlarini quyidagicha ajratib ko'rsatadi.

Birinchidan, oilaning kam bolalik va nuklearligidir;

Zamonaviy oila ko'p bolali va ko'p avlodli oiladan farkli ravishda o'smir xarakterining shakllanishida o'ziga xos ijtimoiy-psixologik muxitni tashkil etadi. Bu yerda shaxslararo munosabatlarning qisqa zanjiri ustunlik qiladi, oila a'zolarining o'zaro bir-biriga ta'sir etish vositalari chegaralangan, shuningdek, taqlid qilish uchun ibrat namunalari ham kam shakllanganligi bilan farqlanadi.

Ikkinchidan, oiladagi bonding xolati va bir xildagi munosabatlar oqibatida o'smirlarning ota-ona xulqi namunalari mustaxkam egallashlari extimolini oshiradi. Ota-onalar xulq-atvoridan tanlab olish chegaralanganlik xususiyatiga ega bo'lganligi sababli o'smir ijtimoiy-tipik xususiyatlarni egallashi, o'zida mikromuxit hamda individual xususiyatlarining aks etishi extimolidan xoli emasdir.

Keltirilgan ilmiy-amaliy mas'uliyatlardan kelib chiqqan xolda aytish mumkinki, har bir zamonaviy oilaning o'ziga xos xususiyatlari o'sib kelayotgan shaxs uchun insonparvarlik tajribasining cheklanganligini keltirib chiqaradi.

Nuklear oilalarda kommunikativ tolerantlik (bag'rikenglik) sifatlarining yetarli emasligi, o'zaro ma'lumotlar almashinishning qoniqarli yo'lga qo'yilmaganligi, bari xam ommaviy axborot vositalari bilan aloqa o'rnatish orqali amalga oshirilishi, shuningdek, «Viz» tushunchasi va unga munosabat yetarlicha rivojlanmaganligi bilan ajralib turadi. O'smirlarning yuqori darajada «personifikatsiyalashuvi» ya'ni, oila davrasida uning o'z «Men»ining ko'rsatishi xisoblanib, bu o'zining xaqiligini ta'kidlash, o'zini ota-onalarga qarama-qarshi qo'yish, ularga qarshi xarakter xususiyatlar qilish, ularning qadri (obro'si)ni inkor etish, ular berayotgan maslahatdan to'liq foydalanmaslik kurinishida namoyon bo'ladi. Bu esa xarakter aktsentuatsiyasiga xos bo'lgan begonalashishning ayrim shakllarini yuzaga keltiradi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida keltirilishicha: «oilalar jamiyatning asosiy bo'g'inidir». Oilalar tinchligi, uning barqarorligi, oilalar a'zolarining hamjihatligi ko'p jihatdan shu oilani tashkil etuvchilarining o'zaro munosabatlariga, ularning oilaviy rollar haqidagi tasavvurlarining aniq va to'g'ri

shakllanganligiga bog'liq. Bunday ijtimoiy tasavvurlar o'zaro munosabatlar jarayonida, oiladagi ijtimoiy-psixologik muhit va tarbiyaning qay yo'sinda yo'lga qo'yilganligiga bog'liqdir. O'zbek oilasida ijtimoiy tasavvurlarning, jumladan, oilaviy rollar haqidagi tasavvurlarning qanday ekanligi, ularning jamiyat holati, oila baxt saodati bilan bog'liqligi mustaqil O'zbekiston sharoitida o'ziga xos yetuklikka ega.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi «Qonun»ining 30-moddasida shunday deyiladi: «Ota-onalar yoki qonuniy vakillarning vazifalari, voyaga yetmagan bolalarning qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilishlari shart hamda ularning tarbiyasi, maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishlari uchun javobgardirlar».

Farzand dunyoga kelgan birinchi kunidanoq ota-ona, aka-opalari mehramuxabbatidan ozuqalanadi. Demak, bolaning ma'naviy-madaniy shakllanishida oilaning roli beqiyosdir. Ota-onaning o'ziga talabchan bo'lishi, o'z oilasini hurmat qilishi, ota-ona o'zining har bir qadamini nazorat ostiga olishi lozim bo'lgan tarbiyaning birinchi va eng asosiy metodi hisoblanadi.

Ishda ta'kidlanganidek, o'smir shaxsini shakllantirish, jamiyatda shaxslarning o'zaro munosabatlari muammolarini o'rganish doimo insoniyat jamiyati taraqqiyoti davomida keng ilmiy jamoatchilik diqqat e'tiborida bo'lgan. Bu borada o'zbek xalqining urf-odatlarini va milliy (fenomenligi) etnik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha Respublikamizning qadriyatshunos olimlari o'zlarining munosib xissalarini qo'shganlar.

Hozirgi kunda o'smir shaxsining etnik stereotip va etnik ustanovkalarini o'rganish maqsadida jumhuriyatimizning pedagog va psixolog olimlari o'smir shaxsning har toonlama kamol toptirish jarayonida milliy qadriyatlar va o'zbek xalqining etnopsixologik xususiyatlari masalalarini o'rganishda o'z xissalarini qo'shmoqdalar.

Oilada bola tarbiyasi yuzasidan pedagog olimlardan D.J.Sharipova, M.Inomova, A.K.Munavvarov, O.To'rayeva va boshqalar, faylasuflardan J.T.Tulenov, E.Yu.Yusupov, I.M.Mo'minov va boshqalar; psixolog olimlardan M.G.Davletshin, E.G'.G'oziyev, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, N.A.Sog'inov, E.N.Sattarov, T.M.Adizova, G.M.Mamatov, A.M.Jabbarov, R.E.Gaynutdinov, R.I.Sunnatova, B.M.Umarov, Sh.A.Do'stmuhamedova, F.A.Akramova, M.Sh.Rasulova, N.S.Solayeva va boshqalar ilmiy jihatdan o'zbek xalqining etnik ustanovkalarini o'rganish maqsadida izlanishlar olib borishgan.

D.J.Sharipova - o'z izlanishlarini yosh bolasi bor ota-onalar o'rtasida tibbiy-pedagogik bilimlarni hal qilish borasida bir qancha ishlarni amalga oshirgan. U, oilada bolaning sog'lom, yetuk bo'lib tarbiyalanishi uchun ota-ona har bir bolaning o'ziga xos xususiyatlarini bilishi xuddi shu holat oilada bola tarbiyasiga ta'sir qilishi, oila oldida turgan tarbiyaviy vazifalarni aniq va ravshan bilish zarurligini, o'z bilimlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishlarini, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlarini tanlashga ijodiy yondoshuvlari lozimligini ko'rsatadi (155).

Milliy oilaviy tarbiya zamirida shaxs milliy madaniy merosidan bahramandlik, o'z xalqi tarixi, san'ati, ma'naviy-ruhiy qadriyatlari, dinni puxta

bilishlari, milliy o'zligini anglashlari, vatan, xalq, millat manfaatlari uchun ma'sullik, milliy g'urur, milliy harakterning sifat ko'rsatkichlaridir; shaxsda milliy harakterni shakllantirishda milliy ahloqiy madaniyatining ahamiyati benihoya kattadir.

M.O.Inomova ta'kidlaganidek, -tarbiya nazariyasi nuqtai-nazaridan milliy harakterni shakllantirish, bu shaxsning aqliy, ahloqiy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ekologik, estetik, badiy kabi ko'p qirrali tarkibiy qismlarini yaxlit jarayon sifatida amalga oshirishni anglatadi. Bunda milliy tarbiya shaxsni o'z hulqi, millati bilan bog'laydi.

A.K.Munavvarovning izlanishlariga ko'ra, har bir millat o'ziga xos madaniyati, milliy ruxiyatiga ega bo'lgani kabi o'zbek xalqining ham milliy xususiyati, harakteri, tuyg'ulari, o'z-o'zini anglash, quyi va ruhiy qiyofasi alohidaligi bilan boshqa xalqlarnikidan ajralib turadi.

Yirik psixolog olimlardan M.G.Davletshin - oilada ota-onalarning farzandlarga bo'lgan munosabatlarida o'zaro yordam, bir-birini qo'llab-quvvatlash, hamkorlikda ish olib borish, oilada mehnatni taqsimlash, xo'jalik ishlariga ko'maklashish kabi muammolar yechilmas ekan, ular o'rtasida doimiy tushunmovchiliklar, aytishib qolishuv va nizo-janjallar yuzaga kelib turishi mumkinligi to'g'risida gapiradi.

Hayot jarayonida bolada shunday motivlar shakllanadiki, bu motivlar bola uchun asosiy ahamiyatga ega bo'lib, boshqa barcha motivlarni o'ziga bo'ysundiradi. Bolaning hulq-atvori va faoliyati ustidan barqaror hukmronlik qiluvchi motivlar bola shaxsining yo'nalishini barpo etadi.

Respublikada bevosita o'zbek oilalarida ota-ona va farzand, oilada aka-uka, opa-singillarning o'zaro munosabat-lari psixologiyasiga oid dastlabki ilmiy ishlar G'.B.Shoumarov va Ye.A.Morshininalar tomonidan ham amalga oshirilgan. Respublika psixolog olimlari orasida ilk bor o'zbek oilasida bir necha avlodlararo va ikki avlod: ota-ona va farzandlar o'zaro munosabatlarning o'ziga xos etnopsixologik xususiyatlari o'rganilgan va ko'p farzandlik oilaning katta yoshli a'zolariga hurmat, oilada erkak mavqyei kabilar va bularning bola shaxsiga ta'siri yoritib berilgan.

Shuningdek, G'.B.Shoumarovning so'nggi o'n yilliklar davomida chop etilgan ishlarida o'zbek oilasida ota-ona va farzandlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar xususiyatlariga alohida e'tibor berilgan.

Shu bilan bir qatorda, psixolog olim M.G.Davletshin va G'.B.Shoumarovlar hozirgi zamon o'zbek oilasining xususiyatlarini o'rganish chog'ida, uning o'ziga xos jihatlaridan biri bo'lmish oiladagi farzand soni, uning ijtimoiy mavqyeiga ta'sirini hamda ota-onaning farzandlari ulg'ayib, kamol topib borishi orqali o'zlari yashab turgan ijtimoiy muhitda, mahalla-ko'y orasida obro'si, hurmat-e'tibori ulug'lana borishini ta'kidlaydi.

E.G'.G'oziyev, o'zbek xalqining etnopsixologiyasi va bolalar tarbiyasini o'rganar ekan, uning tarixiy an'analari, urf-odatlar, udumlari, rasm-rusumlari, ahloq me'yori, turmush tarzi, ma'naviy qadriyatlar, shaxslararo munosabatlari, muloqot maromi va boshqa xususiyatlari turli xalqlarnikidan ma'lum darajada tafovutlanishi haqida to'xtalib o'tadi. Shu bilan birga, ota-onaga, tug'ishganlarga

nisbatan milliy to'g'ri yo'g'rilgan munosabat, qarindoshlik rishtalari ham milliy ruxiyatni aks ettirishi hamda oila a'zolarining o'zaro samimiy munosabatlari, ayniqsa, atrofida bilan muntazam ravishda salomlashib yurish kabi xususiyatlar, milliy urf-odatlarimizning ibratli va o'ziga xos bir ko'rinishi ekanligini ta'kidlaydi.

V.M.Karimova, ota-onalarga xos xususiyatlar ularning far-zandlariga ham xuddi shu sifatlarni shakllanishi imkonini berishligi haqida gapiradi. Masalan: Ota-ona o'z oilasida oilaviy an'analarni muntazam ravishda tashkil qilib borishi bolalar shaxsining shakllanishida, oilaparvarlik sifatlarining rivojlanishida muhim asos bo'ladi. Mana shu tadbirlarda bola ishtirokining ta'minlanishi esa, unda oila a'zolariga bo'lgan hurmat, hamdardlik va hamfikrlilik kabi sifatlarni, yoshlikdan tashabbuskorlik, mustaqil ish yuritish ko'nikmasini, uning insonlarga nisbatan muomala malakalarini shakllanti-rishga yordam beradi, deb ta'kidlaydi.

O'zbek oilasining etnopsixologik va ijtimoiy psixologik xususiyatlarini ilk bor mustaqil tadqiqot ishi sifatida o'rgangan psixolog olim N.A.Sog'inov o'z ishlarida er-xotin munosabatlarining etnopsixologik xususiyatlarini, o'zbek oilalarida nikohdan keyingi holat xususiyatini o'rganar ekan avlodlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning boshqa millat vakillariga nisbatan mustahkam ekanligini, bu munosabat-lardagi xissiy yaqinlikni farzandlarning oila qurishi, farzandlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga ham ta'siri kuchli ekanligini ko'rsatib o'tgan. Shuningdek, N.A.Sog'inov o'zining qator maqolalari va risolalarida o'zbek oilasida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda hamda oilada bola tarbiyasi va shaxsning shakllanishida ota-onalarning o'zni masalalarining ijtimoiy va etnopsixologik xususiyatlarini yoritib berishga erishgan.

Tadqiqotchi, o'zbek oilasi muammolarini o'rganishga oid uslubiy materiallari, psixodiagnostik vositalar to'plamlari va boshqa nashr qilingan ishlaridan hozirgi vaqtda Respublika amaliyotchi psixologlari tomonidan ota-onalar va farzandlar bilan olib boriladigan psixodiagnostik, psixokorreksion, psixologik maslahat va psixologik oqartuv ishlarini olib borishda keng foydalanilmoqda.

Shu bilan bir qatorda G'.B.Shoumarov tahriri ostidagi N.A.Sog'inov, F.A.Akramova, D.U.Abdullayeva va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan akademik lisey va kasb-hunar kollejlari talabalari uchun mo'ljallangan "Oila psixologiyasi" darsligi alohida e'tiborga loyiqdir. Chunki, u o'zbek oilasining etnopsixologik xususiyatlari, jumladan, o'zbek oilalarida ota-ona va farzandlarning munosabatlarini hisobga olgan holda psixologik nuqtai-nazardan yozilgan ilk darslikdir.

Undan tashqari, Respublikamizning qator psixologlari tomonidan yozilgan "1001 savolga psixologning 1001 javobi" nomli o'quv qo'llanmasida ham o'zbek oilalarida ota-onalar va farzandlar munosabatlariga alohida o'rin berilgan.

T.M.Adizova o'z ijodiy ishlarida, - o'zbek oilalarida o'smir bolalar shaxsining muloqotga kirishuvchanlik sifatlarini oiladagi o'zaro munosabatlarni o'rganuvchi usullar yordamida aniqlashga muvaffaq bo'lgan. Tadqiqotchi ta'kidlaganidek, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar bolaning

harakteri shaxsiy psixologik xususiyatlarini tarkib topishida katta rol o'ynaydi. Ya'ni, oilada ota-onalar va bolalarni o'zaro munosabatlari bolaning muloqotchanlik sifatleri shakllanishining asosiy manbai bo'lib hisoblanadi. Oilada ota-onalarning bolalariga ishonch bilan qarashi, uning xatti-harakatlarini qo'llab-quvvatlashi natijasida bolada ochiq-ko'ngillik, muomalaga tez kirishuvchanlik sifatleri, yoki, aksincha, ota-onalarning o'z bolalariga nisbatan demokratik usulida yondoshuvi natijasida muloqotga kirishuvchanlik sifatlarini shakllanishiga, yoki, ularga nisbatan "Qattiqqo'llik, talabchanlik" munosabatda bo'lish usuli bo'yicha yondoshuvi natijasida, farzandlaridagi xissiy ta'sirchanlikning ortishiga, ya'ni, bola psixikasining jarohatlanishiga, muomaladagi qat'iyatsizlikka olib kelishi, shu bilan birga, ota-onaning farzandiga nisbatan munosabatning "kichik omadsiz" usuli bilan yondoshuvi natijasida, bolada muloqotchanlik sifatlarining past darajada rivojlanishiga, xavotirlanishning ortishiga, o'ziga ishonchning yo'qolishiga sabab bo'ladi, deb ta'riflaydi.

R.I.Sunnatovning ta'kidlashicha,- murakkab vaziyatlarda bola va uning ota-onalari o'rtasidagi munosabatlarni yo'lga qo'yishda amaliyotchi psixologlarning vazifalaridan biri, ota-onaning bolaga yondoshish texnologiyalarini maqsadga muvofiq tarzda amalga oshirish malakalarini singdirishdan iborat ekanligini ko'rsatadi.

F.A.Akramova o'z izlanishlarida yoshlarning oilaviy hayot to'g'risidagi tasavvurlarining etnopsixologik xususiyatlarini o'rgangan ishlarida o'zbek oilalarida ota-ona obro'si, o'rni va mavqeyi yuqori darajada ekanligini asoslab beardi va o'zbek oilalarida ota-ona va farzandlarning o'zaro munosabatlarida ichki xissiy komponentlarning yuqoriligini o'rgangan.

M.M.Mamatov ta'kidlaganidek, ota-ona hurmatini bajo keltirish, keksalarni e'zozlash kabi odat va an'analar boshqa xalqlar kabi o'zbek oilalarida ham yoshlikdan bolalar ongiga singdirilib boriladi. Ota-ona va kattalar tomonidan yoshlarga boshqalar bilan muomala qilish va munosabatga kirishish yo'l-yo'riqlarini o'rgatib, odamiylikdan insonparvalikdan saboq berib boriladi.

Z.T.Nishanova o'zining qator maqolalari va risolalarida o'zbek oilasida ota-onalarni bolalariga bo'lgan o'zaro munosabatlari jarayonida shakllanadigan tarbiya nuqsonlarini aniqlash usullarini ilk bor rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishga va qayta ishlab chiqishga erishgan.

A.M.Jabbarov o'zining ilmiy izlanishlarida, o'zbek oilala-ridagi davom etib kelayotgan xushmuomalalik, xush-fe'llik, bilimdonlik, yuksak ahloqiylik, shirinsuxanlik, mehribonlik, rahmdillik, mehnatsevarlik va hokazo kabi sifatleri milliy (etnik) psixologik xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan inson sifatida kamol topishi mumkin degan fikrlarni ilgari surgan.

B.M.Umarovning ta'kidlaganidek,- oila o'z urf-odati, yo'nalishi, etnik va estetik dunyoqarashiga ega bo'lgan mikro ijtimoiy guruh bo'lib, uning moddiy va ma'naviy tomonlari bo'ladiki, bu oilada bola shaxsi kamolatiga, hulq-atvoriga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Garchand sog'lom muhitli, xush oilalarda va o'smirlar hulqi og'ishidagi asosiy omillardan biri oilaviy tarbiyadagi nuqsonlar ekanligidan ko'z yumib bo'lmaydi. Oilaviy munosabatlarda nizolarning kelib

chiqishiga sabab bo'luvchi omillar orasida shaxslararo nizolar esa ko'pincha shaxslararo muloqot zamirida vujudga keladi.

M.M.Mamatov va R.Yu.Toshimovlarning yozishicha,-har bir xalq katta yoki kichik bo'lishidan qat'iy nazar, o'z milliy psixologik xususiyatlariga ega bo'ladi. Yashash sharoiti, muhiti, tarixiy taraqqiyot xususiyati, ijtimoiy-iqtisodiy tuzumiga ko'ra, har bir etnik birlikka (millat, elat, qabila va hokazo) boshqalarda deyarli uchramaydigan o'zining ichki munosabatlar tizimi shakllanadi, bu ichki tizim individ bilan etnos va individlar o'rtasidagi qat'iy belgilangan munosabatlar harakterini ta'minlab turadi. Ming yillar davomida shakllangan va amal qilib kelinayotgan bu an'ananing buzilishi, ko'pchilik tomonidan qoralanadi. Hozirgi kunda o'zbek oilalarida faqat o'tmishdan qolgan milliy psixologik xususiyatlarigina mavjud bo'lib qolmasdan, balki davr ruxi bilan bog'liq bo'lgan va qardosh qo'shni xalqlardan o'zlashtirilgan yaxshi urf-odatlar va an'analar, udum va marosimlar ham kirib kelayapti. Bu bizning milliy psixologik xususiyatlarimizni yanada yangi mazmun bilan boyib borishiga xizmat qiladi.

M.Sh.Rasulovning ta'kidlaganidek, bolalarni oilada tarbiyalash masalalari murakkab va ko'p qirralidir. Ota-onalarning chuqur bilimi, ziyrak va oqila bo'lishi talab qilinadi, zero har bir bola uchun o'ziga yarasha tarbiya usullarini topish lozim bo'ladi. Oilaviy ta'sir, ya'ni oiladagi turmush tarzi ota-ona nufuzi, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar, oila muhiti, ma'naviyatga intilish, qiziqish va boshqalarda o'z-o'zini anglash namoyon bo'ladi (118).

O'smirlik davrida shaxs xususiyatlari va ularning rivojlanishi jarayonini shakllanishlari to'g'risida O'zbekiston psixolog olimlaridan M.G.Davletshin, E.G'.G'oziyev, V.A.Tokareva, B.R.Qodirov, G'.B.Shoumarov va M.Qoplonova va boshqa psixolog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar e'tiborga molikdir.

Shuningdek, B.M.Umarov, G.K.Tulaganova va boshqa psixolog olimlar o'smirlardagi hulqi og'ish va pedagogik qarovsizlikning o'zaro aloqadorligi masalalarini tadqiqot etganlar.

B.R.Qodirov o'z izlanishlaridan birida oila va iste'dodli bolalar, ulardagi muammolar va yechimlarni o'rganish borasida bolalardagi ichki imkoniyatlar oilaviy muhit ta'siri ostida shakllanib borishi hamda ota-onalarning ana shu shakllana-yotgan layoqatlarga sharoit yaratishlari orqali, ularni yanada rivojlantirishlari mumkinligini ta'kidlaydi. Olim o'z tadqiqotlarida, bolaning har qanday qiziqish va intilishlari-riga oila a'zolarining sezgirligi, avvalambor, ota-onaning ahamiyat berishi, undagi pinhoniylay oqatni qobiliyatga aylantirish xususiyatini yuzaga keltiradi. Demak, oilada aqliy zakovati mukammal rivojlangan iste'dodli bolalarni yuzaga keltirishda, ota-onalarning sezgirligi va ularning ta'sirchan munosabatlari muhimdir, degan fikrni ilgari suradi.

E.A.Quljanov o'z ilmiy izlanishlarida tarbiya-koloniya-larida tarbiyalanayotgan o'smirlik yoshidagi mahkum o'smir-larning o'z-o'zini baholash darajasini aniqlagan hamda ota-onalarning bu yoshdagilarga bo'lgan munosabatlari, bu tipdagi o'smirlarning takror ijtimoiylashuvga moyilliklarining namoyon bo'lish jarayonini va ularning hulq-atvorini tuzatish usullarining ta'sirini o'rganishni tadqiq qilgan.

N.G.Komilova o'z izlanishlarida deviant-hulq-atvorli o'smirlarda o'zini-o'zi baholash xususiyatlarini tadqiq qilgan va ilmiy tadqiqot ishida o'smirlarning o'zini-o'zi baholash-ning xususiyatlarini va tizimini ham nazariy, ham metodologik jihatdan yoritib bergan. O'zini-o'zi baholash, shaxsning o'zini anglash reflektiv jarayonlarning shakllanishini hamda o'zini anglash, borliqqa emosional-differensial munosabatda bo'lishini va shaxsning ma'naviy yetukligini tadqiq qilgan.

F.S.Tatibayeva o'z izlanishlarida yuqori sinf o'quvchi shaxsining milliy psixologik xususiyatlarini tuzishda ijtimoiy taraqqiyot turining ta'sirini tadqiq etgan. Ilmiy ishida, asosan shaxsdagi milliy ongning tarkibiy qismlari, qadriyatlari, qarashlari nazariy tomondan taxlil qilingan, shuningdek, shaxsning milliy ruxshunoslik xususiyatini tuzishda ijtimoiy taraqqiyot jarayonidagi fazilatlar, bosqichlar va institutlar ta'sirini tadqiq etgan.

G.A.Bogdalova o'z ilmiy izlanishida, o'smirlar shaxsining emosional xususiyatlarini o'rganish bo'yicha tadqiqot ishlari qilgan. Tadqiqotchi, o'z izlanishlarida, o'smirlarning shaxsida emosional xususiyatlarini ijobiy yoki salbiy shakllanishiga nima sabab bo'liini tadqiq qilgan.

E.I.Ganeyeva o'z iz ilmiy izlanishida, ta'lim-tarbiya jarayonida o'smirlarda individual muomala uslubini shakllanishini o'rganish bo'yicha tadqiq qilgan. Tadqiqotchi tadqiqot jarayonida o'smirlarning integral individualligi strukturasi o'ziga xosligini belgilaydi, ya'ni turli iyerarxik bosqichlarining xossalari aloqadorligini determinasiya qilishda vositachi bo'g'in sifatida namoyon bo'lishini aniqlaydi.

M.T.Isakova o'z ilmiy izlanishida, milliy an'ana va ijtimoiy omillar ta'sirida ilk o'spirinlarda ma'naviy tasavvurlarni shakllantirish mavzusi bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borgan. Muazzam Tulkunovna o'spirinlardagi ma'naviy tasavvurlarga ta'sir etuvchi va ularni o'zgartiruvchi omillarni, ma'naviy tasavvurlarning rivojlanish dinamikasini aniqladi va tadqiq qildi.

M.S.Salayeva o'zbek oilalarida ota-ona va farzandlar o'zaro munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha tadqiqot ishlari olib borgan. O'zbek oilalarida bolalarning shaxslararo munosabatlari va ularning oilaviy ichki muhitga munosabati hamda ota-onalarning ota-onalik rolga nisbatan ustanovka va munosabatlarining ijtimoiy-psixologik, xududiy, jinsiy xususiyatlarini tavsiflovchi holatlarini tadqiqot qilishga erishgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'zbek pedagog va psixologlari tomonidan oila va oilada bola shaxsining milliy shakllanishini o'rganish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar mavjud bo'lib, biz o'rganmoqchi bo'lgan ko'plab qimmatli psixologik-pedagogik izlanishlardan foydalanish mumkin. Mavzu ma'lum ma'noda yuqoridagi o'tkazilgan tadqiqotlarning mazmunini boyitadi.

Oila haqida gapirar ekanmiz, avvalambor, oila hayotning abadiylikini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanini tan olishimiz darkor. Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas Vatan sanalgan. Agar oila sog'lom va mustahkam bo'lsa, mahallada tinchlik va hamjihatlikka erishiladi. Binobarin, mahalla, yurt

mustahkam bo'lsagina, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi. Zero, oila farovonligi milliy farovonlik asosidir” [1],

Keyingi yillarda Respublikamizdagi demokratik o'zgarishlar, milliy ongning yuzaga kelishi va uyg'onishi, milliy qadriyatlarning va madaniyatning rivojlanishiga shart-sharoitlar yaratish bilan ayni paytda oilada bolalarni milliy kayfiyat va milliy ruhda tarbiyalashga imkoniyatlar yaratildi, o'zligimizni, nasl-nasabimizni, o'tmishimizni va nihoyat, oilada farzandlarni milliy tuyg'u, milliy hissiyot bilan tarbiyalash mavridi yetdi.

O'zbek oilalaridagi o'zaro hurmat, ehtirom, ota-onaga e'zoz, farzandlarga mehr-shafqat va kichiklarga izzat-ikrom kishini barkamol inson, mukammal shaxs sifatida shakllantiradigan, axloqiy va ma'naviy jihatdan go'zal hamda yetuk qiladigan, insoniy fazilatiarni rivojlantiradigan qadriyatlar bo'lib hisoblanadi. Va bu qadriyatlarning mazmun-mohiyati farzandlar ongiga dastlab oilada singdiriladi.

Oilada ota-onalarimizning zimmasida bolalarni sharqona uslubda tarbiyalash, milliy qadriyatlarimizni kundalik hayotga tadbiiq etish, yoshlar qalbida imonu-e'tiqod, insofu-diyonat kabi sifatlarni tarbiyalash kabi vazifalar turibdi. Oiladagi sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhit bolalarda izlanishga, tashabbus ko'ratishga va ijodkorlik qobiliyatlarini namoyon etishga imkon yaratadi. Ota-onalar esa bola rivojlanishi qanday kechayotganligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishlari va doimiy ravishda uni nazorat qilib borishlari zarur bo'ladi. Oila shaxsning g'oyaviy, siyosiy, iqtisodiy qarashlarini shakllantiruvchi, tevarakatofga, dunyoga munosabatlari tizimini, ya'ni dunyoqarashi, e'tiqodi, ehtiyojlari, qiziqishlari, ideallari, motivlari, hayotiy maqsadi yo'nalishini belgilovchi jamiyatning eng kichik bo'gini sifatida muhimdir [3].

Ota-onalarning ta'lim vazifalari sifatida bolalarga muhabbat, ulardan faxrlanish ota bilan ona o'rtasida teng bo'linadi: “Ota qizini yaxshi ko'radi, o'g'li bilan g'ururlanadi, ona o'g'lini yaxshi ko'radi, qizi bilan faxrlanadi”. Maqolda ota va onaning o'z bolalari tarbiyasi uchun mas'ulliklari alohida qayd etilgan, ularning ta'lim vazifalari farqlab berilgan, ya'ni oilada qulay axloqiy muhitni ko'zda tutuvchi muhabbat, ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi samimiy munosabatlar ko'proq tarbiya sharoitlariga tegishli boladi, faxr esa uning natijasidir.

Xususan, oilada bolalarni ma'rifatli, ishbilarmon, tadbirkor, bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitiga o'tishning ma'naviy-axloqiy asoslarini to'g'ri tushuna oladigan, halol, to'g'ri, birovlar haqqiga xiyonat qilmaydigan, xayr-ehson, sahovat va muruvvat kabi fazilatlarining asl ma'nosini yaxshi anglaydigan qilib tarbiyalashda har bir ota-onaga mas'uldir. Globallashtirish, integratsiyalashuv jarayonlari faol amalga oshayotgan hozirgi vaqtda yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalasining o'ta dolzarb vazifaga aylanishi oilada berilayotgan tarbiyaning o'rni va roolidan iboratligi hammamizga ma'lum. Shuning uchun oila muhitining tinchligi, osoyishtaligi, kattalarning bilimdon, uddaburonligi, har-xil sharoitda bolalarni to'g'ri yo'lga solish, muammolarni hal etishda rivoyatlar, hadislardan namunalar keltirilishi, ertaklar, xalq og'zaki ijodi manbalaridan o'rinni foydalanish taqozo etiladi. Masalan, xalq maqollari va ertaklarida halollik, to'g'rilik, yaxshilik, botirlik, saxiylik, go'zallik, kamtarlik kabi axloqiy sifatlar ulug'lanilishi, salbiy obrazlar, ya'ni tekinkorlik, egrilik, yomonlik, qo'rqqoqlik,

baxillik, xudbinlik, o'g'rilik, yolg'onchilik, manmanlik singari salbiy xususiyatlar qoralanib, oqibatlarini bolalarga ota-ona, buvi-bobolari tomonidan ta'sirli qilib yetkazilishi maasadga muvofiqdir.

Xalq og'zaki ijodining manbai bo'lmish topishmoq, matal, qo'shiq, ertak, rivoyat kabilar yoshiarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning eng qadimiy vositalari bo'lib, unda bola tarbiyasi masalalari alohida o'rin egallaydi. Xalq og'zaki ijodiyotining namunalari xalqda voqealarni oidindan ko'ra biluvchi ajoyib qobiliyat va iste'dod bor ekanligini, u hech qachon orzu umidsiz yashamaganligini, har doim kelajak tomon intilganligini anglab yetishga yordam beradi va bola qalbida ezgulik hissiyotini uyg'otib, uning xulqini ijobiy tomonga yo'naltiradi. Rivoyatlardagi talqin qilinadigan g'oyalar bolalar tomonidan oson tushuniladi hamda tez o'zlashtiriladi va ularga kuchli ta'sir etib murg'ak tasavvurlarining boyib borishiga yordam beradi.

Shuni ta'kidlash mumkinki, bola tarbiyasi juda murakkab jarayon hisoblanib, bir oz xatolikka yo'l qo'yilsa nafaqat oilaga balki butun jamiyatga "zararli", "keraksiz", "majrux", "beparvo" insonni voyaga yetkazganimizni o'zimiz ham bilmay qolishimiz mumkin. Bola oilada urf-odatlariga armal qilingan holda, ta'lim muassasalarida bilimdon murabbiylar, mahalla va qo'ni-qo'shnilarnig inoqligi, tinchligi, mehr-oqibati kabi qadriyatlar vositasida tarbiyalansa, sog'lom, yetuk, barkamol shaxs va komil inson shakllanishi shubhasizdir.

Ota-onalar bola tarbiyasi borasida yetarlicha amaliy va nazariy bilimlarga ega bo'lishi kerak. Oiladagi yomon tarbiya faqat oilaning o'ziga xos bo'imasdan, balki qo'ni-qo'shni va mahallalardagi tarbiyaga ham salbiy ta'sir qiladi. Ota-onalar bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga o'zlari ko'rgan-bilganlari va tajribalariga suyangan holda, farzandlarining yoshlariga mos adabiyotlarni o'rganishlari ham maqsadga muvofiq bo'ladi.

Oilada farzand tarbiyasida sinalgan tarbiya metodlaridan biri-shaxsiy namunadir. Bobo, buvi, ota-ona, atrofdagi katta yoshdagi kishilarning xatti-harakatlari, yurish-turishlari, muomalasi, o'zlarini tutishlari, jamiyatga, tabiatga munosabatlari namuna sifatida juda katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Bolaga aqliy, axloqiy, estetik, diniy, mehnat tarbiyasi asoslari ota-ona namunasi orqali singdirib boriladi.

Buyuk sharq mutafakkiri Alisher Navoiy tarbiya usuli sifatida namuna ko'rsatishga alohida e'tibor berar va kishilarni, ayniqsa, yoshlarni yaxshi kishilardan o'rganishga, ulardan ibrat olishga, ularning davrasida bo'lish, ular bilan tez-tez suhbatlashishga chaqirar edi. U bola tarbiyasida ota-onalarning ibrati to'grisida shunday yozadi: Farzand ato qullug'in chu odat qilg'ay,

Ul odat ila kasbi saodat qilg'ay,

Har kimki atoga ko'p rivoyat qilg'ay,

O'g'lidan anga bu ish siroyat qilg'ay.

Bolalarni oilada milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda xalq maqollari ham o'ziga xos o'ringa ega. Xalq maqollarining badiiy jihatdan mukammalligi taniqli oiimlar, shoir va yozuvchilar tomonidan tan olingan. Hajm jihatdan kichikligi, mazmunan serma'noligi, mavzu jihatdan hayotiyiligi maqollarning asrlar davomida og'izdan og'izga o'tib yashashini ta'minlagan omillardir. Ularda xalqimizning

voqelikni estetik idrok etish bilan bog'liq masalalar hal etiladi. Chunki, maqollarda xalqning tabiati va ijtimoiy hayoti haqida yuritgan mulohazalarning ma'lum majmuasi ifodalangan.

Masalan:

Mehnat qilsang ko'ngil tog',

Hurmat qilsang diling bog'.

Mehnat qilib topganing,

Qandu asal totganing.

Yoki

Avval o'yla, keyin so'yla.

Yaxshi topib so'zlar,

Yomon qopib so'zlar.

Didsiz o'tirgan yerini ham changitar.

Xullas, shaxsning shakllanishida, shaxs ma'naviyatining tarkib topishi va rivojlanishida oilaning o'rni, ahamiyatini hech narsaga tenglashtirib bo'lmaydi. Agar oila ma'nosiz hayot kechirsa, faqat shaxsiy huzur-halovati bilan mashgul bo'lsa, oilada rahmsizlik va xudbinlik hukm surayotgan bo'lsa, bularning hammasi bolaning ma'naviy qiyofasiga salbiy ta'sir etmasdan qolmaydi, albatta. Shu sababli ota-onalar uchun oila tarbiyasi, avvalo o'z-o'zini tarbiyalashdan iborat bo'lmog'i kerak. Ota-onalarning yuksak ijtimoiy ongi bolalarda ham shunga mos ong tarkib topishiga yordam beradi.

1.3. Milliy an'ana, urf-odat, udum va qadriyatlarining o'smir shaxsi tarbiyasidagi psixologik mexanizmlari.

Milliy istiqlol mafkurasini, umuminsoniy qadriyatlar bilan milliy o'ziga xoslik o'rtasidagi muvozanatni belgilaydigan mezonlarni aniqlash maqsadida

umuminsoniy fazilatlar va o'zbeklarga xos xislatlarni urf-odat va an'analarni hamda udumlarni teranroq o'rganishga harakat qilmoqda.

Ma'lumki, baynalminal madaniyat milliy madaniyatlar yig'indisidan iboratdir, shubhasiz, baynalminal madaniyatlar taraqqiy etgan madaniyat rivojlanishi uchun alohida olimlar milliy madaniyatlar taraqqiy etgan bo'lishi kerak. Madaniyat ko'rsatkichlari, toifalari, davlat chegaralariga bo'ysunmaydi, mintaqa tanlamaydi. Hadislar butun musulmon mamlakatlaridagi kabi bizda ham yaqin o'tmishimizgacha tarbiyaning asosi qilib olingan.

O'zbek xalqining milliy an'alarini, udumlarini, turmush tarzini sinchiklab o'rgangan olimlar hadislarida keltirilgan ijobiy xislatlarni hozirgi zamon ilg'or madaniyat udumlari bilan boyitish maqsadida to'g'ri tarbiyaga molik umuminsoniy xislatlarini **olti** jihatga bo'lganlar.

1. Shaxsning umumiy xislatlari (sifatlarini, jihatlari):

1. Yoqimlilik, jozibadorlik, dilbarlik, ko'rkamlik. Insonni birinchi ko'rishdayoq ko'zga tashlanadigan jozibali, dilbar o'ziga xosligi. Ko'rkam odam faqat kiyimi bilangina emas, muomalasi, odobi bilan e'tibor topadi.

2. Yoqimtoylik, kelishganlik – bunday xislatli kishilar xipcha, yengil, bo'yi-bastiga mos, ortiqcha og'irlikdan holi, kiyimi o'ziga, yoshiga, ishiga, atrof muhitga mos tanlangan insonlar hisoblanadi. Kelishganlik, qimmatbaho kiyimlar bilan yoki mingan avtomashinasining rusumi bilan emas, balki o'z ishiga, yoshiga mos hatti-harakatlari, odob va axloq normalariga rioya qilishlik bilan o'lchanadi, karakterlanadi.

3. Istarasi issiqlik – ayrim insonlar haqida gap ketganda istarasi issiq yoki turqi sovuq deb baholashadi. Istarasi issiq odamning yuzidan nur yog'ilib turadi. Inson yuzining rangi oq, qora, sariq, bug'doy rang bo'lishi mumkin, lekin istarasi issiqlik rang tanlamaydi.

4. Maftunkorlik, fusunkorlik, afsunkorlik ko'proq ayollarga xos bo'lib, go'zallik, ishvalik, o'ziga maftun etuvchi o'ziga xoslik bilan karakterlanadi.

5. Oydinlik, yorqinlik, ochiqlik – bunday xislatli insonlarni ko'ngli ochiq odam, teskarisini esa mug'ombir deyiladi. O'zbeklarda bir maqol bor: yuz ko'r hol so'r deyiladi. Ya'ni inson yuzida uning ochiq ko'ngilliligi ravshan ko'rinib turadi.

6. Salovatlilik, savlatlilik, hurmatga sazovorlilik. Hurmatli insonning salobati bosadi, deyiladi xalqimizda. Bu xislat ham kiygan kiyimi bilan o'lchanmaydi. Ruslarda, mehmon kiyimiga qarab qarshi olinib, aqliga qarab kuzatiladi, degan bir naql bor. Savlatlilik kishini atrofdagilarning nechog'lik hurmatini joyiga qo'yishi, tutgan mavqeyidan o'zini pastroq olib boshqalarning hurmatini balandroq qo'yishga harakat qilishi bilan karakterlanadi.

7. Buyuklik, daholik – ulkan inson tashabbusi o'z gardaniga oladi, u ko'pchilik insonlar taqdirini ijobiy tomonga burishga tayyor turadi.

8. Monandlik, muvofiqlik, uyg'unlik – insonning ham aqliy, ham jismoniy, ham axloqiy, ham irodaviy xislatlarining uyqashlilik tushuniladi.

9. Rivojlanganlik, taraqqiy qilganlilik, yetuklik, aqli rasolik, iqtidorlilik, salohiyotlilik – inson olgan bilimlar salmog'i bu bilimlarning yaxshi ishlarga tezkor qo'llanilishi bilan o'lchanadi.

10. Har tomonlilik, har taraflamalilik, ko'ptomonlamalilik – shaxsda shakllangan va rivojlangan ijobiy xislatlarning ko'p qirraliligi, ayrim olingan xislatdan ko'ra ko'pchilik xislatlarning bir xilda mukammal rivojlanganligi tushuniladi.

11. Bekamiko'stlik, butunlilik – xalqimizda hamma xislatlari badastur degan naql bor. Aslida beayb parvardigor, lekin ummatlar ichida ham bir butun, yaxlit insonlar uchraydi.

12. Nafislik, noziklik, nafosatlilik, latofatlilik – inson o'zining nafis tabiati, yurish-turishi bilan go'zallik namunasini eslatadi.

13. Yashovchanlik, umriboqiylik, barhayotlilik. Shunday insonlar borki ularning nomi tirikligidayoq tarix daftariga oltin harflar bilan yoziladi. Biri qoldirgan shogirdlari bilan, biri yaratgan buyuk ilmiy, san'at asarlari bilan, yana bir afsonaviy qahramonligi, kishilar katta ko'pchiligining taqdirini yaxshi tomonga burishligi bilan, xalqiga, butun olam ahliga ko'rsatgan karomati bilan barhayot bo'ladi.

14. So'zamollilik, so'zga chechanlilik, shoirtabiatlik – shaxsning so'zamolligi birinchi so'rashishidanoq bilinadi. To'liq ma'nodagi so'zamollik deganda eshituvchilarga mazmunli va'z ayta olishlik, yetkazilishi zarur bo'lgan ma'noni bo'rttirib, dramalastirib, lirik so'zlar, qochirim gaplar bilan bezash ko'nikmasi, xalqsevar shoirlar she'rlaridan, so'z ustalarining naqlaridan, xalq maqollaridan ustalik bilan foydalanish tushuniladi. So'zamollik san'ati nutq madaniyati bilan bog'liq narsa.

15. Ruhlanganlik, ko'tarinkilik, jo'shqinlik, ulug'vorlik, ulug'sifatlilik – o'quvchilarni talabalarni nainki bircha tinglovchilarni biron bir faoliyatga safarbar qilish uchun so'z aytuvchining o'zi ko'tarinki ruhda bo'lishi, jo'shqin nutq so'zlashi lozim.

16. Jiddiylik, bosiqlik – ma'lum tajriba sohibi, masalaga yengil-yelpi qaramay jiddiy yondoshadigan, kam gapirib ko'p ishlaydigan, har bir so'zi, har bir harakatiga javob beradigan shaxs.

17. Moslashuvchanlik, egiluvchanlik – oldindan kuzatilmagan, og'ir sharoitlarga tez moslashib, butun imkoniyatlarini, muammolarini yechishga qaratish, bahona qidirmay imkoniyat izlash.

18. Madaniyatlilik, odoblilik, kamsuqumlilik – har bir millatga xos odob-axloq normalarining umuminsoniy madaniy, madaniylik elementlari bilan hamohang bo'lishi.

19. Ziyolilik, savodxonlik, o'qimishlilik – shaxs umumiy xislatlarining asosini tashkil etadi. Ziyoli shaxs o'zining hatti-harakatlari bilan ziyo tarqatadi, o'qimishlilikning namunasini ko'rsatadi, odamlarning ko'ngliga tezroq yo'l topa biladi.

20. Tabiiylik, odillik, oddiylik – shaxs o'z hatti-harakatlari, odobi, axloqini tabiiy qanday bo'lsa shundayligicha ko'rsatish xislati.

2. Axloqiy xislatlar: 1. Odamiylik – chin insonga xos fazilat bo'lib, bu aql-zakovat mevasidir. Buyuk bobomiz Alisher Navoiy insonni sevishni, uning baxt saodati uchun kurashishni hayot gultoji, yuksak orzu-umidlarning eng cho'qqisi, tiriklikning o'lmas g'oyasi, yashashning mazmuni deb biladi. Odamiylikning

zamirida yaxshilik, sofdillik, odillik, mehr-muhabbat, vafo-sadoqat, oqibat-shafqat, adolatu-sahovat yotadi.

Odami ersang demagil odamiy
Oniki yo'q xalq g'amidin g'ami.

2. Qanoatlilik – kishining o'zida mavjud bo'lgan va o'z imkoni darajasida ishlab topgan halol mablag'i bilan kifoyalanib, oz bo'lsa ham uning sozligini hisobga olib mamnuniyat bilan kun kechirishidir. Qanoatlilik kishiga xotirjamlik keltiradi.

3. Yaqinlik, do'stonalilik – ish yuritishda, muomalada boshqa shaxslarning haqqi-huquqini, shaxsiyatini hurmat qilish, boshqa millatga mansub insonlarning urf-odati, madaniyatini, salohiyatini e'zozlash, o'ziga yaqin birodar ko'rib do'stona munosabatda bo'lishlik xislati.

4. Jonkuyarlilik, mehribonlilik, kuyunchaklik – boshqalar dardiga sherik bo'lish, ota-onaga, yetim-yesirlarga, qariyalarga xizmat qilish, ijtimoiy muhofazaishlarida faol qatnashish.

Yaxshi so'z ham sadaqa ekanligi haqida A.Navoiy yozadi:

Yaxshi so'z birla hojat ahlin so'r,
Bermasang yaxshi ta'madin nafaqa.
Ne uchunkim rasul qavli bilan:
Yaxshi so'z bordur o'ylakim sadaqa.

5. Rahmdillik, mushfiqlik – inson salohiyotida boshqalar ko'ngliga ochiq yo'l qoldirish, to'yiga ham, azasiga ham qatnashish iqtisodiy, ma'naviy ko'makka "labbay" deb tayyor turish hissi.

6. Oliyjanoblik, oliy himmatlilik – insonlarga yaxshilik istab yashash hissi.

7. Bolaxonlilik, bolajonlilik – o'zbeklarga xos, mos xislat, ko'p bolalik, bolalar uchun yashash, bolalar dardini o'zligidan yuqori qo'yish, bolalarga qayg'urish, kechirimli bo'lish hissi.

8. Atrof-muhitga e'tibor, muhofazakorlik (ekologik tarbiyalanganlik) – shaxsda yoshligidan boshlab ekologik tarbiya hissini shakllantirish kerak, toki shaxs mustaqil hayoti davomida atrof-muhit muhofazasiga javobgarlik tuyg'usini his etsin.

9. Iymonlilik, hotamtoylik – musulmonlarga ko'proq xos xislat. Iymon insonning, oilaning, qabilaning urug'ning, millatning ko'ngli, dardi, salomatligi. Iymonlining uyida baraka, rivojlanish, omad bo'ladi. Iymonlilik poklik, ruhiy salomatlik mezoni.

10. Baynalminallik, boshqa millat vakillarini ardoqlash, e'zozlash – baynalminal madaniyat millatlar, elatlar madaniyatining yig'indisi, in'ikosi. Milliy madaniyat rivojlanmas ekan baynalminal madaniyat rivojlanmaydi. Milliy madaniyat qanchalik rivojlansa baynalminal madaniyatga shuncha ko'p hissa qo'shiladi.

11. G'oyaviy sodiqlik – Mustaqil O'zbekistonning kelajagi buyuk davlat bo'lishiga ishonch, davlatimiz, prezidentimiz olib borayotgan ichki va tashqi siyosatiga ishonch.

12. Muloyimlik, xushmuomalalik, nazokatlilik, xushfe'llilik – doimo ko'ngli ochiqlik. Gapi, ishini samimiy bajo keltirish. Xushmuomalalik haqida hadisi

sharifda shunday yoziladi: “Alloh taolo xushmuomalali va ochiq yuzli bandalarini do’st tutadi”.

13. Uzrlilik, kechirimlilik – ayb ish qilganida kechirim so’rashga shoshilish, farzandlarni, yoshlarni, kechirish hissi.

14. Andishalilik – andishaning oti qo’rqoqlik emas, andishalilik, irodaning belgisi. Andishalilik ko’proq o’zbeklarga xos xislat. Kattalar so’ziga quloq solish, davrada odob saqlash, ota-onaga, kattalarga, ayollarga hurmat-ehtirom; sabr-toqatli bo’lish hissi.

15. Sertakallufllilik, sermulozamatlilik – insonlar o’zaro munosabatlarida ular orasida ishonchlilikning mezon.

16. Odamlarga el bo’lishlilik, kirishimlilik, shirin suxanlilik – inson psixik holatiga, temperament turiga, dunyoqarashiga, to’g’ri tarbiyalashganligiga bog’liq bo’lib, harakterni belgilaydigan asosiy ko’rsatkichlardan biri hisoblanadi. Xalqimizda bu odam, “ko’pni ko’rgan”, “tagi toza”, yoki bo’lmasa, “bu odam hyech qachon el bo’lmaydi” degan iboralar yuradi.

17. Shaxsiy manfaatlarni ijtimoiy (jamoatchilik) manfaatiga bo’ysundirish, shaxsiy manfaatdan ijtimoiy minnatdorlikni yuqori qo’ya olishlilik, shaxsiyatparastlikning teskarisi, shaxsning avvalambor boshqalar, davlat nuqtai nazarini ustun qo’yish hissi.

3. Ishbilarmonlik, ishchanlik, uddaburonlik xislatlari:

Quntlilik, tirishqoqlik, serhafsalalik – kasb egallash, mohir mutaxassis bo’lish uchun juda zarur xislat. Faoliyat hafsala bilan bajarilsa, mutaxassis quntli bo’lsagina mehnat unumdorligining yuqori cho’qqilariga erishish mumkin. Yaponiya umumta’lim makablarida maxsus qunt darslari kiritilgan. O’quvchilar uzoq vaqt davomida juda mayda qo’l mehnati bilan shug’ullanishib o’zlarida hafsalalik, quntlilik malakalarini shakllantirishadi.

Javobgarlik, mas’uliyatlilik – so’z bergandan keyin bajarishlik, ishga, o’qishga mas’uliyat hissi bilan yondoshish hissi.

Halollik, poklik – tadbirkorlik ishlarida halollik, poklik asosiy xislatlardan bo’lib, bo’lg’usi tadbirning muvaffaqiyatli yakuniga ko’p jihatdan bog’liq. Sharq biznesmenlarining xulosalariga qaraganda har bir yangi tadbir boshlanishi oldidan tadbirkor o’zi poklanib, halol ish yuritsa bu tadbirning albatta ijobiy bo’lishi ta’minlangan bo’ladi.

Urinchoqlik, serharakatlilik, tirishqoqlik – tadbirni amalga oshirishda birgina halollikning o’zi yetarli emas. Buning uchun shaxsning tirishib, urinib harakat qilishi, doimo harakatda bo’lishi lozim bo’ladi.

Musobaqaviylik, raqobatlilik, muqobillik – hozirgi bozor munosabatlariga o’tishda raqobatlilik, bir ishni tezroq, oldinroq bajarishga shoshilish muvaffaqiyat keltiradi. Musobaqaviylik o’quv jarayonida ham o’quv jarayonini aktivlashtirish omili hisoblanadi. Faol talabalarni rag’batlantirish, yuqori, tez o’zlashtiruvchilarni eksternat dasturlariga o’tkazish astoydillikni ta’minlaydi.

Ijro etuvchanlik, ishchanlik, bajaruvchanlik – ishlab chiqarish ishini, o’quv ishini vaqtida bajarish shaxsni intizomlilikka, tartibga o’rgatadi, xotirani mustahkamlaydi, turli salbiy oqibatlarining oldi olinadi.

Zo'r beruvchanlik, kuchanuvchanlik – har bir tartibda shunday damlar uchraydiki harakat qilinib urinish yetarli bo'lmay qoladi. Hamma fikrni, kuchni ishlatib zo'r berishga to'g'ri keladi.

Malakalilik, salohiyatlilik – malakalilik faqat bilimlar bilan o'lchanmaydi. Malakalilik orttirilgan bilimlarni ko'nikmalarga, malakaga aylantirilsagina mutaxassis yuqori malakali hisoblanadi, mehnati yuqori baholanadi, mahsulotini doimo ijodiy yangiliklar bilan boyitib boradi.

Sifatlilik, yuqori navlilik – mahsulotni, tayyorlangan mutaxassislarning yuqori sifatlilikiga bozor iqtisodiyoti sharoitida hamma tabaqalarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ishni do'ndirishlilik, ishni o'rniga qo'yuvchanlik, ishni o'rinlatmoqlik – shaxsning ko'p yillik qunt bilan olib borgan harakatlari natijasida topshirilgan ishni tez, unumli bajarish ko'nikmasini egallashi.

Chaqqonlik, abjirlik, epcillik – shaxsning topshirilgan ishni ko'p mehnat, kuch sarflamasdan ustalik bilan bajarish ko'nikmasini egallashi.

Saranjom-sarishtalik, jo-bajo ish tutish, batartiblik – shaxsning kiyinishida, ish tutishda, muomalasida, odobida namoyon bo'ladigan batartiblik ko'nikmalari.

Ishning havasini olganlik, ishning hadisini olganlik – shaxsning avtomat malakalarni shakllantirishi. Ko'p o'ylamay ishni malakali bajarish ko'nikmasi.

Ishga layoqatlilik, hormas-tolmaslik, imkonlilik – shaxsning uzoq muddat talab etilgan darajaga ishga layoqatliligini saqlab qola olishlilik ko'nikmasi. Layoqatli xizmatchi ish kunining boshida ham, oxirida ham bir xilda unumli, ham sifatli mehnat qila oladi.

Tashabbuskorlik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik – shaxsning hali ochilmagan yo'ldan turli usullar, imkoniyatlar topib olg'a yura olishi, yangilikni, tashabbuskorlikni qo'lga olib atrofdegilarni shu ishga safarbar qila olish ko'nikmasi.

Aqlga, maqsadga muvofiqlik, ma'qullik, ixtirochilik – rasional shaxs ishni bajarish uchun kerakli a'zolarinigina jalb qila olish ko'nikmasiga ega bo'ladi, kam mehnat qilib ko'p mahsulot oladi, kam kuch sarflab ko'p samara oladi.

Chidamlilik, sabr-toqatlilik, bardoshlik, toqatlilik, baquvvatlik – shaxsning uzoq vaqt katta kuchlanish talab qiladigan faoliyatda qatnasha olish ko'nikmasi.

Muntazamlilik, rejaliilik – shaxsning rejali ish tutish ko'nikmasi. Buyuk Napoleon “faoliyatda, harakatlarda faqat oldindan rejalashtirilgan narsagagina erishish mumkin, hych qanday tasodif natija bermaydi” degan.

Juda aniqlik, o'z vaqtida bo'lishlik, puxtalik – tadbirkorlikda ko'p narsa aniq vaqt bilan o'lchanadi, “vaqting ketdi naqding ketdi” – xalqimizda shunday naql bor.

Tejamkorlik, ehtiyotkorlik, mo'tadillik – shaxsning tejamli ish yuritishi, ishning kirimidan chiqimini kam qilib yuritish, doimo zahirada biron qism mulkni saqlashi, evida ish yuritish ko'nikmalari.

Hadisi sharifda, har bir ishning salbiy tomonlarini hisobga olish ayni ehtiyotkorlikdir, deyiladi.

Sahiylik, ochiq qo'llik, hotamtoylik, jo'mardlik – tadbirkor shaxs sahiy ham bo'lishi, hotamtoylik ko'nikmalari sohibi bo'lishi kerak.

4. Shaxsning zakovatlilik, idroklilik, zukkolik xislatlari: Zehnlilik, ziyraklik – shaxsning tabiat hodisalari, qonunlariga, jamiyat iqtisodiy jarayonlariga oid qonuniyatlarini umumlashtira olishi va kerakli joyda samarali foydalanish ko'nikmalari.

Xotiralilik – xotiralilik shaxsning eng asosiy psixik xislatlaridan biri. Faoliyatda ko'p narsa aynan xotiraga bog'liq. Fiziologlarning fikricha inson organizmining umr bo'yi xotirada saqlash mumkin bo'lgan imkoniyatlarining bir necha foizigina ishlatilar ekan. Demak, har bir insonning xotiraviy potensial imkoniyati to'lig'icha ishlatilmaydi. Xotira, xotiraviylik o'qishni, ishni qay darajada rejali tashkil qilishga, vaqtida ishla, vaqtida dam olib, vaqtida ovqatlanishga bog'liq jarayon.

Mantiqiylik, izchillik, teran fikrlilik – shaxsning hodisalar, qonuniyatlar orasidagi o'zak bog'lanishlar tizimini, mantiqini tuza olish ko'nikmasi. Har bir faoliyatda, hatti-harakatda, darsda o'qilgan leksiyada, ayblovchi va oqlovchi nutqida mantiq bo'lishi kerak. Xalqimizda “Gapingning tuzi yo'q”, degan naql bor. Mantiqli ma'ruza, mantiqli darslik, mantiqiy ilmiy asar inson tomonidan tez tushunib anglanadi, uzoq vaqt xotirada saqlanadi. Birona teoremani isbotlash mantiqi, ketma-ketligi esdan chiqmaydi.

Asoslilik, isbotlanganlik, muhrlanganlik – shaxsning tayyorlayotgan axborotini nechog'lik asosli qilib tayyorlash ko'nikmasi. Hozirda qaysi mamlakat xalqi, fan, texnika texnologiya, tijorat, valyuta siyosati haqidagi axborotlarga ega bo'lsa shu mamlakat rivojlangan mamlakatlar qatorida bo'ladi. Shu jihatdan o'qituvchining sinfga olib kirayotgan axboroti nihoyatda asosli bo'lishi lozim.

Oldindan aytib beruvchanlik, bashoratgo'ylik – hodisalarni, jarayonlarning yo'sinini oldindan prognoslash, oldindan aytib berish insonning eng noyob xislatlaridan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, leksiyaning ikkita funksiyasi bor: 1. Umumlashtirish funksiyasi. 2. Oldindan aytib berish prognostik funksiyasi. Agar leksiya shu ikki funksiyani bajarmasa u oddiy suhbat darsi bo'lib qoladi. Leksiyaning prognostik funksiyasi deganda funksiya ijtimoiy jarayon haqida bo'lsa, biron qit'ada, davlatda sosial iqtisodiy rivojlanishning borishiga qarab rivojlanish yo'nalishini, me'yorini oldindan aytib berish mumkin.

Aqlning o'tkirligini namoyon qilmoq – zakovatlilik, shaxsning biron-bir qarorga tezkorlik bilan kelish uchun aqlning o'tkir bo'lishini, tez-tez “charxlanib” turishini ta'minlash kerak.

Ijodkorlik, topog'onlik – shaxsning o'z faoliyati davomida, hanuzgacha yechilmagan muammoni yechish, ixtiro qilish ko'nikmasi. Ixtiro, ijod nazariy va amaliy fanlar orasida yotadigan tilsim. Bu tilsim politexnik bilim, iqtidor va ko'nikmalarga ega bo'lgan insonlargagina ochiladi. Ixtirochilik, ijodkorlik davlatning milliy boyligi hisoblanadi.

Tushunarlilik, ravshanlilik, lo'ndalik – nazariya qanchalik harakatga yaqin bo'lsa, shunchalik tushunilishi oson kechadi, ko'rinishi sodda bo'ladi.

Mutaxassisga ish topshirilayotganida ham, talab qilinayotganligida ham masala lo'nda, aniq va ravshan bo'lishi ta'minlanishi darkor.

Tanqidiylik – shaxs faoliyatida ishga tanqidiy munosabatda bo'lishi, o'z hatti-harakatlarini tanqidiy nuqtai nazar bilan kuzatishi muhim xislatlardan hisoblanadi.

Xabardorlik, omilkorlik – shaxsning o'z mutaxassisligi bo'yicha to'liq ma'lumotga ega bo'lishi, o'z sohasining dunyoviy jarayonlardan tahlilga moslash, ulardan o'rganish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.

Savodxonlik, bilimdonlik – shaxsning tili, yozuvi nechog'lik to'g'ri, adabiy bo'lishi, ishlatgan iboralarini qisqa mantiqli, tushunarli qilib bayon etish ko'nikmasi.

Odatdan tashqari fikrlash – shaxs talantining mezoni, o'ziga xosligida, boshqalardan farqli o'laroq yangicha fikrlash ko'nikmasi.

Hayratlilik, hayratmandlik – shaxs nozik jarayonlarni, faktlarni nihoyatda sinchkovlik bilan kuzata olishi, bu jarayonlardan hayratlanib yanada yangi natijalar olishga qiziqish ko'nikmalari.

Qiziquvchanlik, ishqibozlik – shaxsning tabiatan tabiatga, turli jarayonlarga, fanga, san'atga qiziquvchanligi. Psixologik ichki motivasiya, shu jumladan, ishqibozlik ko'pincha tashqi ta'sirdan ustun turadi.

Sinchkovlik, diqqatlilik – hozirgi axborotni, ayniqsa kompyuterlar yordamida asrash, ishlov berish davrida sinchkovlik xislati va aniq javob topish uchun juda ham qo'l keladi.

Chuqur bilimdonlik, saviyalilik – saviyalilik faqat bilimdonlikgina emas, bilki har tomonlamalilik, hozirjavoblilik mezoni.

5. Irodaviylik xislatlari: Serg'ayratlilik, serharakatlilik, qat'iyatlilik – shaxs temperament turiga, tipiga mos serharakatlilik darajasi faoliyatning samaradorligini belgilaydi.

Chaqqonlik, epchillik, uddaburonlik – shaxs sa'y-harakati samarali bo'lishi uchun uddaburonlik xislatlariga ega bo'lishi kerak. Bu xislat ham bilvosita shaxs ehtirosi tiplariga bog'liq.

Vazminlik, sipolilik, bosliqlik, kamsuqumlilik – vazminlik, sipolik irodaviylik belgisi, irodasi kuchli shaxsdagina vazminlik belgilari bo'lishi mumkin.

Jo'shqinlik, serzavqlik, issiqmijozlilik – shaxsning faoliyatida zavqi-shavqlilik, jo'shqinlik, ko'tarinki ruh bilan ish yuritish odati, qaltis vaziyatlarni serzavqlik bilan yengish, janjallashish o'rniga odamlar ko'nglini ko'tarish, shaxsiy namuna ko'rsatib odamlarni o'z ortidan ergashtirish ko'nikmalari.

Zardasi tezlik, serzardalilik – shaxsning ehtiros turiga bog'liq xislati, ayrim holatlarda zardali shaxsning ishi yurishadi, ko'p hollarda ijobiy natija beradi.

Bir so'zda turishlilik, qat'iyatlilik, qat'iylik – shaxsning maqsad yo'lida og'ishmay qilgan faoliyati. Agar rahbar tez-tez o'z qarorini o'zgartiraversa tez subuti ketishi mumkin. O'qituvchi bir qo'yilgan talabani og'ishmay talab qilaversa oxiri ijobiy natija erishi mumkin.

Tashabbuskorlik, ilg'orlik – shaxsning tezkorlik, tinib-tinchimas, tadbirkorlik xislatlari. Tashabbus juda ham javobgarlik talab etadigan xislat. Ammo ayrim shaxslar uchun tashabbus bilan chiqish va ayniqsa shu tashabbusni

amalda bajarish bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirish hych qanday qo'shimcha qiyinchilik tug'dirmaydi.

Intizomlilik, bosiqlik, uyushganlilik – shaxs harakteridagi eng asosiy xislatlaridan biri. Intizom ishni, faoliyatni tashkil qilishning asosi. Intizom bo'lmasa ishlab chiqarish ham, oddiy dars ham o'z maqsadiga erishmaydi. Intizomga beriluvchan shaxslar bor, intizomga qiyin bo'ysunadigan insonlar bor. Agarda hamma intizomga bo'ysunsa har qanday qiyinchilikni yengish, maqsad sari ildam odimlar bilan yurish imkoniyati tug'iladi.

Intizomlilik – bu faoliyatning keragicha va maslahatga muvofiq ravishda amalga oshirilishiga kuch etmoqligidir. Yemoq-ichmoqda, uyquda, ish, kasbda, har bir kasbda intizomdan chiqmagan odam baxtu saodatga erishadi.

6. Ehtirosli xislatlar: Shodmonlik, o'z hayotidan rozilik, baxtiyorlik, ko'tarinkilik, tantanavorlik, quvnoqlik, xushchaqchqlik-psixologik jihatdan shaxsni doimo quvnoq yurishi, ish faoliyatini yaxshilashga, turli ruhiy kasalliklarning oldini olishga, og'ir sharoitda ham atrofdagilarning kayfiyatini, tez charchamaslikning oldini olish imkonini olish beradi.

Hazil-mutoyibalik, hazilkashlik, joyida ustalik bilan ishlatilgan hazil faoliyatda ham, odamlar o'rtasidagi munosabatlarda, diplomatiyada juda katta ahamiyatga ega. Bir tomonda hazilni ustalik bilan ishlatish bo'lsa, ikkinchi tomondan shu hazilni tushuna bilish, hazil qila olish hissi bor.

Ishonuvchanlik – shaxsning ijobiy xislalaridan biri boshqalarga ishonch hissi hamma ham shunday xislatga ega bo'lsa olam guliston bo'lur edi. Lekin har doim ham shunday bo'lavermaydi. Irodali shaxs ishonch hissi bilan boshqalarni tarbiyalamog'i darkor.

Kek saqlamaslik, adovatsizlik, gina-qudratsizlik – musulmonchilikda arazlash muddati uch kundan oshmasligi kerak ekan. Agar uch kundan ortiq arazlab yurilsa gunoh hisoblanarkan. Ayrim shaxslar bir marta o'tgan ginani umrbod esidan chiqarmay o'ziga dushman orttirishadi.

Otashinlik, qig'inlik, jo'shqinlik – barcha shaxslarga xos xislat, lekin ba'zilarida bir oz namoyon bo'ladi, ba'zilarida esa o'ta oshiq namoyon bo'ladi. Bu xislat ham ehtiros tipiga bog'liq bo'ladi.

Uyatchanlik, tortiqchoqlik, mo'min-qobillik – me'yoridagi diyonatlilik insonga husn beradi, atrofdagilarga unga nisbatan ijobiy fikr uyg'otadi.

Ozodalik, nozik tabiatlilik – inson ehtirosli xislatlarining eng nafisi gard yuqtirmaslik hissi hisoblanadi. Qayerda bo'lmasin inson o'zini ozoda tutsa shuncha ruhi pok, fikri-qiziqishi yaxshi bo'ladi.

Yuqorida ko'rsatilgan shaxsiy xislatlarni shakllantirish o'quv-tarbiya ishlarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Hamma mamlakatlarda ham ana shunday ijobiy xislatlarni o'z xalqida shakllantirish harakat qilinadi. Ana shu ma'noda tarbiyaning umumiy maqsadi dunyo pedagogik jarayonida yagona maqsadga – umuminsoniy xislatlarni shakllantirishga qaratiladi. Falsafa fani, uning turli qarama-qarshiliklari, turli oqimlari, nazariyalari bilan birga yagona bo'lganidek, pedagogika ham umumiy maqsadi bo'yicha dunyoviy pedagogik jarayonda yagona, bir jinsli deb qaraladi. Gap ana shu maqsadlarga qanday vositalar bilan, qanday izchillikda va qaysi ma'noda erishishga bog'liq. Birmamlakat ta'lim va

tarbiyaning bir shaklini ta'minlasa, ikkinchisi o'zgacharoq, uchinchisi yana bir boshqacha yo'l tutadi. Shu jumladan xalqning, elatning o'z udumi, odati, turmush tarzi bor. Mana shu kabi o'ziga xoslik ta'lim va tarbiyaning o'ziga xos shakl, vosita va uslublarini, xalqning umumiy madaniyatini belgilaydi.

O'smirlarda qadriyat tushunchasini shakllantirishda psixologik usul, vosita va metodlar

“O'zbekfilm” kinostudiyasi tomonidan suratga otingan “Chimildiq” filmini hamma birdek qiziqish va orziqish bilan tomosha qiladi. Bu filmning voqealari ham, detallari ham o'z o'rni va maromida. “Chimildiq” ayniqsa, o'zbek to'y marosimlarida qilinadigan milliy urf-odatlarimiz, an'ana va qadriyatlarimizning ajoyib tarzidagi namoyishi bilan ham ajralib turadigan filmidir. Ma'lumki, nikoh to'yi xalqimizning juda qadrliligi va muhim marosimlaridan biri hisoblanadi. Bu to'yning o'ziga xos urf-odatlarini rasm- rusumlari mavjudki, ularning ma'lum ma'no-mazmun yashirin. Ikki yoshni qovushtirish asnosida oila atalmish jamiyatning bir bo'g'ini yana bittaga ko'payadi. Bu esa nafaqat ikki yosh hayotida, balki jamiyat taraqqiyotida ham muhim voqea sanaladi. Mana shunday yuksak ahamiyatli voqeaning buniyodi esa milliy qadriyatlarimiz bilan hamohang tarzda yuzaga keladi.

O'zbek xalqi azaldan milliy an'ana va qadriyatlarga, urf-odatlariga boy bo'lgan qadimiy xalq. Bu xalqning nafaqat biror-bir marosimi, balki butun umri, har bir kuni ma'lum qadriyatlar, milliylik nafasi ufuq turuvchi harakatlar asnosida kechadi. Bu xalq har bir qadriyat va an'analarni ulug'lovchi buyuk xalqdir. Aslida uning buyukligi ham mana shundan bo'lsa kerak. Zero, har bir millat milliy qadriyatlarini, milliylikni va o'ziga xosligini ko'z-ko'z qilish orqali o'zligini, milliy g'ururini namoyon qiladi. O'zlikni anglash milliylikdan boshlanadi. Milliy urf-odatlariga sodiqlik va ularga amal qilish har bir insonning milliy g'ururidan darak beradi. O'zbek xalqi to'y-tomoshaga boy xalq hisoblanadi. O'zbek to'y marosimlarining bir necha turi mavjudki, ularning har biri alohida bir kitob bo'lishga arzigulik. Oilada farzand tug'ilishi bilan to'y marosimlari boshlanib ketadi: soch to'yi, chilla to'yi, beshik to'yi, sunnat to'yi, muchal to'yi, nikoh to'yi, yosh to'yi (yubiley), kumush to'yi, oltin to'yi va hokazo... Ular orasida eng asosiysi nikoh to'yi bo'lib, bu to'y milliy urf-odatlarimiz va turli rasm-rusumlarga boyligi bilan ajralib turadi. Masalan, o'g'il uylantirish yoki qiz chiqarishda avvalo, bo'lajak quda tomon so'rab-surishtiriladi. Qiz-yigitning xarakter-xususiyatlari, nasl-nasabi, ota-onasi, kasb- kori va boshqa jihatlari aniqlanadi. Bundan asosiy maqsad qurilajak oilaning har tomonlama mustahkamligini ta'minlashdan iborat. Ana shundan keyin har ikki tomon rozi-rizoligi bilan to'yga tayyorgartik boshlanadi. To'ygacha ham xalqimizning bir qancha milliy urf-odatlarini, marosimlarini borki,

“qarindosh chaqirdi”, “uy ko'rdi”, “fotiha to'yi”, “qatlama keldi” kabi marosimlarisiz o'zbek to'yini tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu kabi an'analar millatimizning nafaqat qadimiyligini, balki mehmondo'stligiyu odamshavandaligini ham o'zida aks ettiradi. Har bir odatimizning o'ziga xos va o'zgacha gashti bor. Ular bitan o'zbek to'ylari yanayam fayzli va tarovatli bo'ladi. To'y jarayonida qilinadigan bir qancha milliy rasm-rusumlarimizning har biri o'zgacha ma'no-mazmunga ega, har birining o'zgacha xosiyati bor. Masalan, kelin-kuyov uyga kirayotganlarida hayot yo'llari pok va ravon bo'lsin deya oyoq ostlariga yangi poyonoz to'shaladi. Keyin kuyov jo'ralar tomonidan poyonoz bo'lib olinadi. Bu kuyov jo'ralarga ham kuyovlik baxti nasib qitsin, degan ma'noni anglatadi. Chimildiqqa kirishda esa kelin-kuyov boshiga non ushlab kiritiladi. Bu rizq-ro'z sifatida yosh oilaning rizqi butun, noni halol, hayotlari to'kis bo'lishiga ishoradir.

Nikoh to'yi marosimining bu kabi urf-odatlarini, rasm-rusumlari, an'analari ta'rifini uzoq davom ettirish mjmkin. Bu to'yning yana bir muhim jihati borki, unga alohida to'xtalib o'tmaslikning iloji yo'q. U ham bo'lsa to'y marosim qo'shiqlaridir. O'zbek xalq og'zaki ijodining boy namunasi sifatida to'y marosim qo'shiqlari muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, nikoh to'yida aytiladigan marosim qo'shiqlari ko'pligi, xilma-xilligi, teran mazmundorligi va hayotiylikiyu dilga yaqinligi bilan ajralib turadi. Bu o'lmas qo'shiqlarning har biri alohida ta'rif-tahsinga sazovor. Birgina yor-yor va o'lanlarni olaylik. Hech kim bu xonishlarni shunchaki eshitmaydi, balki ular ohangida sel bo'lib, yuraklari orziqib, ekin tuyg'ulari jo'sh urib, qalb torlari junbushga kelib tinglaydi. Yor-yor sadolari estida kelin yangi ostonaga qsdam qo'yadi. Kayvoni momciar tomonidan maromiga yetkazib kuylanadigan o'lan, yor-yor, kelin salom, kelin o'tirsin, xush kelibsiz, raxt urdi kabi folkler namunalaridan maqsad yangi qurilayotgan oilaga baxt- saodat, tinchlik-osoyishtalik va serfarzandlilik tilashdan iboratdir. Xalq og'zaki ijodiga mansub milliy marosim qo'shiqlarini to'plash va o'rganish bo'yicha qator ishlar qilingan. Xususan, olim Muzayyana Alaviyaning “O'zbek xalq qo'shiqlari” monografiyasi nikoh marosimi va uning folklorini o'rganishdagi dastlabki qadam sifatida baholandi. Xalq qo'shiqlari, ularning tarixiy ildizlari, asosiy xususiyatlari, turlari, xalq ma'naviy hayotida tutgan o'rnini o'rganishga bag'ishlangan mazkur kitobda o'lan, lapar, yor-yor, bayt-g'azal, xush kelibsiz, to'y muborak kabi to'y marosim qo'shiqlari tahlil qilinadi.

Qadimdan urf bo'lib kelgan azaliy an'ana va qadriyatlarimizni, milliy marosim qo'shiqlarimizni to'y marosimlarida o'rni bilan ijro qilish ularning boqiylikini, abadiylikini ta'minlaydi, yosh avlod qalbida ularga nisbatan mehr va qiziqish hissini uyg'otadi. Xalqimizning milliy qadriyatlarini doimo e'zozlab, qadrlab, ularga hurmat bilan munosabatda bo'lish har birimizning burchimizdir. Zero, milliy qadriyat va an'analar millat iftixori, g'ururi hisoblanadi. Ammo bugungi kunda ko'plab milliy urf-odatlarimiz unutilib borilayapti, ularga nisbatan bepisandlik bilan qaralyapti. Albatta, bunday beparvolikning xosiyati yaxshi emas. Chunki har bir qadriyatimiz zamirida o'ziga xos ma'no-mazmun bor. Milliy ma'naviyatimiz shakllanishida, ma'naviy ongimiz yuksalishida milliy odat va an'analarimizning o'rni beqiyos. Shunday ekan, ularni o'rganish va amalda qo'llash

orqali ham ma'naviyatimizni yuksaltirishimiz va milliy qadriyatlarimiz umrboqiyiligiga o'z hissamizni qo'shishimiz lozim.

Ta'limiy qadriyatlarning mantiqiy-tuzilishli tamoyillariga doir yopiq javobli test savollari

1. Ta'limiy qadriyatlarning tarixiy o'zgaruvchan xarakteri nimada?
2. Ta'limiy qadriyatlarning ijtimoiy-madaniy o'zgaruvchanligi qanday omillar bilan aloqador?
3. Ijtimoiy va shaxsiy qadriyatlarning o'zaro aloqadorligi nimalarda namoyon bo'ladi?
4. Integratsiyalashuv deganda nimani tushunasiz?
5. An'anaviy qadriyatlarga nimalar kiradi?
6. Innovatsion qadriyatlarga nimalarni kiritish mumkin?
7. An'anaviy va innovatsion qadriyatlarning o'zaro aloqadorligi nimalarda aniq namoyon bo'ladi?
8. Pedagogik aksiologiyani mantiqiy-strukturaviy tuzilishini qanday izohlash mumkin?

O'quvchi tomonidan o'zlashtirilgan o'rganishning amaliy jihatlari (shakl, metod va vositalari)ning darajasi bilan ijtimoiy-tarixiy bilish (o'rganishning o'quvchi egallab olishi kerak bo'lgan shakl, metod va vositalari) darajasi o'rtasidagi qarama-qarshilik. Bu qarama-qarshilikni hal etish o'quvchining intellektual rivojlanishi sur'ati va darajasiga bog'liq. Bir xil mazmun va hajmdagi o'quv materialini aqliy rivojlanishning turli ko'rsatkichlariga namoyon etishi mumkin.

O'quvchining mavjud rivojlanish darajasi bilan ijtimoiy buyurtmada ko'zda tutiluvchi rivojlanish darajasi o'rtasidagi qarama-qarshilik. Agarda ijtimoiy talab bolaning idrok etish imkoniyatidan yuqori bo'lsa, unda jiddiy qiyinchilik yuzaga keladi.

SHaxsga ta'limning maqsadi sifatida yangicha qarash: bola maktabda – to'la huquqli shaxs, pedagogik jarayonda sub'ekt; shaxsning rivojlanishi – ta'lim

tizimining maqsadi; har bir erkin, o'z fikrini mustaqil ifodalovchi, barkamol shaxsni tarbiyalash ta'lim maqsadining asosi kabi g'oyalarni aks ettiradi.

Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish bolalarga nisbatan muhabbatli bo'lish, ularning taqdiri bilan qiziqish; bolaga o'z kuchi va iqtidoriga ishonirish; pedagogik munosabatlar jarayonida u bilan hamkorlikka erishish, o'qituvchi va o'quvchining huquq jihatdan tengligi; bolaning erkin tanlash huquqi; xato qilish huquqi; o'z shaxsiy nuqtai nazariga ega bo'lish kabi holatlarni ifodalaydi. Aksincha, to'g'ridan-to'g'ri majburlash inkor etiladi.

Individual yondoshishning yangi talqini. Uning mazmuni o'quv fanini o'quvchiga emas, balki bolani o'quv faniga yo'naltirishdan iborat. Individual yondashish quyidagilarni o'z ichiga oladi: materialni o'rtacha o'zlashtiruvchi o'quvchilarga mo'ljallashtirishdan chetlanish, shaxsning ijobiy sifatlarini ko'ra bilish, shaxsni psixologik-pedagogik diagnostika qilish.

SHaxsning ijobiy «Men-konsepsiyasi»ni shakllantirish. Men-konsepsiyasi – bu shaxsning o'zi haqidagi tasavvurlari asosida shaxsiy hulqini shakllantiruvchi tizim bo'lib, ijobiy Men-konsepsiyasi (Men o'zinga yoqaman, Men har ishga qodirman, Men hamma narsani bilaman) shaxsni muvaffaqiyatlarga rag'batlantirib, shaxsning ijobiy namoyon bo'lishiga yordam beradi. Salbiy Men-konsepsiyasi (Men o'zinga yoqmayman, Men hech narsani bajara olmayman, Men hech kimga kerak emasman) uning turli faoliyat yo'nalishlarida muvaffaqiyatga erishishiga halaqit beradi, o'qish natijalarini yomonlashtiradi, shaxsda salbiy sifatlarning shakllanishiga olib keladi. O'qituvchining vazifasi har bir o'quvchi timsolida komil shaxsni ko'rish, uni tushunish, qabul qilish va unga ishonishdan iborat («Hamma bolalar iste'dodli» tarzida).

“Nimaga?” va “qanday ta'lim?” masalasini hal etishga yangicha yondashish. Uning mohiyati ta'lim mazmunini shaxs rivojlanishining vositasi sifatida tushunishdan iborat.

Zamonaviy maktabda tarbiyalash konsepsiyasi. Hamkorlik pedagogikasi quyidagi muhim g'oyalarni aks ettiradi: bilimlar maktabini tarbiya maktabiga aylantirish, o'quvchi shaxsini yaxlit tarbiya tizimining markaziga qo'yish, tarbiyaning insonparvarlik xususiyatiga egaligi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarining shakllanishi, bolaning ijodiy qobiliyati hamda uning individualligini rivojlantirish, individual va jamoaviy tarbiyani uyg'unlikda olib borish.

“O'quvchilarda qadriyatlar tizimini shakllantirish” mavzusidagi ma'lumotli ma'ruzaning texnologik kartasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba

1-bosqich. O‘quv mashg‘ulotiga kirish (Da‘vat bosqichi) (10 minut)	1.1. Mavzuning nomlanishi, rejadagi masalalar va mustaqil o‘qish uchun adabiyotlar ro‘yxati bilan tanishtiradi (1-ilova).	Tinglashadi, yozib borishadi.
	1.2. Talabalarni mashg‘ulotga chorlab olish maqsadida “Men hech qachon ...maganmagan” o‘yinini o‘tkazadi (2-ilova).	O‘yinda ishtirok etishadi va o‘z fikr-mulohazalarini bildirishadi
2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (50 minut)	2.1. “Qadriyatlar tizimi” tushunchasi mohiyatini yoritib beradi.	Tinglaydilar, savol-javoblarda ishtirok etishadi, muhim chizma va jadvallarni o‘z daftarlariga qayd etishadi.
	2.2. Qadriyatlar tizimining namoyon bo‘lish xususiyatlarini tushuntirib beradi.	
	2.3. O‘quvchilarda qadriyatlar tizimini shakllantirish mazmunini bayon etadi.	
3-bosqich. YAkuniy (Fikrlash bosqichi) (20 minut)	3.1. Qadriyatlar tizimiga doir bayon etilganlarini mustahkamlash maqsadida “Mening shaxsiy qadriyatlarim” mavzusida asoslangan esse yozishni topshirig‘ini beradi (3-ilova).	O‘zlarining daftarlariga o‘n minutlik esseni yozishadi.
	3.2. Ayrim talabalarning javoblarini eshitish orqali ularning mavzuga doir umumiy tasavvurlarini aniqlaydi.	O‘z bilimlarini boyitadilar
	Aniq tasavvurlar shakllanmagan qismlarini qayta tushuntiradi.	O‘z tasavvurlarini qo‘shimcha ma’lumotlar bilan boyitadi

“Mening shaxsiy qadriyatlarim” mavzusida o‘n minutlik esse yozish.

Esse – bu muallifning individual nuqtai nazarini ifoda etish shakli bo‘lib, biror narsa-hodisa yoki jarayon haqidagi umumiy yoki dastlabki dunyoqarashni o‘z ichiga oladi.

O‘n minutlik esseni yozish qoidalari:

1. Taklif etilgan mavzuga doir soʻzlar hajmi 200 tadan 300 tagacha boʻlishi mumkin.

2. “SHaxsiy qadriyatlar deganda koʻz oldimga ... keladi”, “Mening shaxsiy qadriyatlarimga quyidagilarni kiritish mumkin...”, “Mening shaxsiy qadriyatlarimning hayotimda tutgan oʻrni shundaki...” kabi jumladan foydalaning.

Oʻsmirlarda qadriyatlar tizimini shakllantirish

	Qadriyatlar tizimini shakllantirish bosqichlari	Amaliy yoʻnalganligi
.	Emotsional (narsa-hodisalarni idrok etish, his qilish)	Oʻsmirlarda voqelikni idrok etishga ijobiy munosabatni tarkib toptirish, narsa-hodisalarni anglashni hissiy-emotsionallik darajasini oshirish
.	Motivatsion (qadriyatlarni oʻzlashtirish ehtiyoji, qiziqish, motiv, maqsad)	Oʻsmirlarda qadriyatlarni oʻzlashtirishga anglangan ehtiyojlarni hosil qilish, ularning eʼtiborini tanlovga yoʻnaltirish
.	Kognitiv (qadriyatlarni oʻzlashtirish, ularni alohida guruhlarga ajratish va tasniflash)	Oʻsmirlar tomonidan qadriyatlar, ularning mohiyatini oʻzlashtirilishiga erishish
.	Faoliyatli (qadriyatlarni baholash, munosabat bildirish va interiorizatsiyalash)	Oʻsmirlarda aniq qadriyatlar tizimini shakllantirish va amaliy faoliyatda qoʻllay olish koʻnikma va malakalarini hosil qilish

Oʻsmirlarda qadriyatli tasavvurlar tizimini shakllantirish bosqichlari va yoʻnalishi

Oʻsmirlarda qadriyatli tasavvurlar tizimini shakllantirish oʻz navbatida oʻqituvchi va oʻquvchilar faoliyatini ham loyihalashni taqozo etadi. Mazkur jarayoninni loyihalash faoliyatni algoritmlashtirish, tarbiyaviy vazifalarning oʻzaro uygʻun boʻlishini taʼminlaydi.

	Oʻqituvchining faoliyati	Oʻsmir faoliyati
.	Oʻsmirlarni “qadriyat” tushunchasining mazmun va	“Qadriyat”, “baho”, “meʼyor” tushunchalarining farqli jihatlarini

	mohiyati bilan tanishtirish	bilib olish
.	O'smirlarga qadriyatlarining turlari haqida ma'lumot berish	Qadriyatlar tasnifi bilan tanishish va ularni guruhlashtirishni o'rganish
.	O'smirlarda qadriyatlarni o'zlashtirishga faol qiziqish va ehtiyojlarni hosil qilish	Qadriyatlarga nisbatan o'zida barqaror hissiyot va motivatsiyani qaror toptirish
.	Qadriyatlarining ijtimoiy tabiati, ularning namoyon bo'lish xossalari ochib berish	Qadriyatlarining aniq vaziyatlardagi namoyon bo'lish holatini baholay olish
.	Qadriyatlarni o'smir shaxsi ichki olamiga interiorizatsiyalash	Qadriyatli yo'nalganlikni amaliy faoliyatda namoyish etish

O'quvchilarda qadriyatli tasavvurlar tizimini shakllantirish faoliyati

Umuman olganda, o'quvchilarda qadriyatli tasavvurlar tizimini shakllantirish yaxlit tavsifga ega bo'lib, o'zlashtirish (hissiyot, qiziqish, ehtiyoj) va ta'sir ko'rsatish (talab, taklif, tanlov) jarayonlari birligini o'zida aks ettiradi.

O'quvchilarda qadriyatlar tizimini shakllantirish yo'llari

“Qadriyatlar” o'yini. Ishtirokchilarga oltita varaq tarqatilib, mana shu qog'ozlarga ajdodlar tajribasida o'z ifodasini topgan qadriyatli tasavvurlarni ahamiyatlilik darajasiga ko'ra yozib chiqishlari so'raladi. Keyin varaqlar shunday aralashtirilishi, ya'ni eng qadriyatli narsa yozilgan varaq oxirida turishi kerakligi aytiladi. Boshlovchi ishtirokchilarga qandaydir hodisa ro'y berib, birinchi varaqda yozilgan qadriyatdan mahrum bo'lganliklarini his qilib ko'rishlarini taklif etadi. So'ngra boshlovchi ishtirokchilardan shu qadriyat yozilgan qog'ozni g'ijimlab uloqtirishni va hayotni ana shu qadriyatsiz tasavvur qilib ko'rishlarini so'raydi.

SHu tariqa har bir qadriyatdan voz kechib boriladi. SHundan so'ng ishtirokchilarga qadriyatdan ajaralayotgan vaqtda qanaqa hissiyot, qanaqa tuyg'uni his qilganligini eslash taklif etiladi. Keyin boshlovchi mo'jiza ro'y berib, qadriyatlarini birma-bir qaytarish imkoniyati tug'ilganligini e'lon qildi va talabalar g'ijimlangan qog'ozlarni birma-bir qaytarib oladilar. So'ng ishtirokchilardan qadriyatlarini yo'qotilgan vaqtdagi holati va g'ijimlangan qog'ozlarga yozilgan holatini solishtirib, yo'qotilgan paytdagi qadriyatli tasavvurlarni hozir ham xuddi shunday qadr-qimmatga egami yoki yo'qmi ekanligini so'raydi. Guruh a'zolaridan ba'zilar qadriyatlarini ahamiyatiga ko'ra o'rinlarini almastirganliklarini ham ma'lum qilishadi. Mashg'ulot so'ngida boshlovchi natijalarni muhokama qilib, xulosalarni bayon etadi.

“Men hech qachon ...maganman” o'yini. Mazkur o'yin jarayonida o'quvchilarga egallangan qadriyatlar tizimidan foydalanib, ularning shaxsiy

ahamiyatini o'zlarida namoyon eta olishlari so'raldi. Ishtirokchilar navbatma-navbat "Men hech qachonmaganman" degan jumladan iborat gap aytishlari lozimligi belgilab qo'yildi (masalan, "Men hech qachon yolg'on gapirmaganman", "Men hech qachon o'zimdanda kattalarga tik qarab gapirmaganman", "Men hech qachon haqoratli so'zlarni ishlatmaganman" va h.k.). Qolgan o'quvchilar esa, aytilayotgan gaplar, agar ular uchun noto'g'ri bo'lsa barmoqlarini bukib bordilar. YA'ni, masalan, biror o'quvchi haqoratli so'zlarni ishlatib, bitta barmog'ini bukdi, keyingi ishtirokchi tomonidan aytilgan gap ham uning uchun noto'g'ri bo'lsa (ya'ni kattalarga tik qarab gapirsa) yana bitta barmog'ini bukdi va h.k. Jami o'nta gap aytilganidan so'ng kimningdir barmoqlaridan birortasi yoki bir nechtasi bukilmasdan qolgan bo'lsa, o'sha yutdi. O'qituvchi o'quvchilarni aytilayotgan fikrlar ajdodlar tajribasidan olingan bo'lishi va barmoqlarni adolatli bo'kish lozimligi haqida ogohlantirib bordi. O'yin shu tarzda barcha ishtirokchilar bittadan gap aytgunlariga qadar davom ettirildi.

"Mumkin emas..." o'yini. Mazkur o'yin qadriyatlar tizimini to'g'ri tahlil eta olish maqsadida amalga oshirildi. Buning uchun guruh ikkiga bo'lib olindi. Birinchi guruh o'z xohish-istaklarini bayon qilishi, ikkinchi guruh esa bunga mavjud tajribalari asosida rad etish mazmunidagi javobni berishlari so'raldi. O'n minutdan keyin guruhlar o'z o'rinlarini almashdilar. O'yinda quyidagi fikrlardan foydalanildi:

- Men baribir o'z maqsadimga erisha olmayman.
- Yo'q, unday dema. Yaxshi niyat qilib, yaxshi fikrlar o'ylasang, u albatta amalga oshadi.
- Ba'zi o'qituvchilarimizni hurmat qilmayman, chunki bilimlari sayoz.
- Yo'q, bunday qilishing to'g'ri emas. Alisher Navoiy aytganlar: "Haq yo'lida kim sanga bir harf o'rgatmish ranj ila, Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila".
- Menga ahamiyati yo'q, bugun boshqa odam bilan, ertaga boshqa odam bilan do'st bo'lib keta olaman.
- Bunday qilishing xato. Chunki bu dunyoda ikkiyuzlamachi bo'lgan odamning qiyomatda o'tdan yasalgan ikki tili bo'ladi.
- Men har doim o'zim xohlagan fikrni ayta olaman.
- Sen buni qila olishing mumkin, lekin bu ish senga doim kulfat olib keladi. Chunki "Qora bosh yag'isi qizil til turur, Necha bosh edi u, yana ham eyur" va boshqalar.

O'yindan so'ng fikrlarni rad qilish uchun qo'llanilgan dalillar, ularning sabablari va mazmuni tahlil qilib chiqildi.

Aniq vaziyatlar(case-study)ni tahlil etish – o'quvchilarda qadriyatli tasavvurlar tizimini shakllantirishning samarali metodi hisoblanib, talabalarda hayotiy va pedagogik faoliyatda yuzaga keluvchi vazifalarni tahlil etish qobiliyatini rivojlantiradi. Aniq vaziyatga duch kelganda talaba unda qanday muammo ifoda etilgani, u nimada namoyon bo'lishi, vaziyatga o'zining munosabatini aniqlashi zarur.

Vaziyatlarning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin: muammoli, baholovchi va namoyishli.

Muammoli vaziyat o'zida real hayotdagi omillarning uyg'unligini hisobga olishni taqozo etadi. Mazkur sharoitda talabalar mazkur vaziyatda ishtirok etuvchi shaxslar sifatida namoyon bo'lishadi.

Baholovchi vaziyatda esa, allaqachon mohiyati aniqlangan qoidalar ifoda etiladi. Avval qabul qilingan qarorlarni tanqidiy tahlil etish amalga oshiriladi. Bo'lib o'tgan voqealar yuzasidan motivatsiyalashgan xulosalar berib boriladi.

Namoyishli vaziyat biror murakkab jarayon yoki vaziyat ko'rinishida namoyon bo'lib, ularni tahlil etishda aniq misollar keltirib o'tilishi talab etiladi.

Hayotiy va pedagogik vaziyatlarni hal etishda ajdodlar tajribasidan foydalanish seminar-munozara shaklida tashkil etilib, mazkur jarayonda "davra suhbat" va "aqliy hujum" interfaol metodlaridan keng foydalanish mumkin.

Seminar-munozara o'quvchilarning hayotiy va pedagogik vaziyatlarni hal etishda hamkorlikdagi ishtirokini ta'minlash asosida amalga oshirilib, ular vaziyatlarni hal etish jarayonida pedagogika tarixi fanidan olgan bilim, ko'nikma va malakalaridan foydalanishdi. Seminar-munozara rolli tarzda amalga oshirildi:

1. Boshlovchi: munozara jarayonini tashkil etdi va boshqardi. Munozara jarayonining mazmunli o'tishi uchun ishtirokchilar faoliyatini muvofiqlashtirib bordi.

2. Taqrizchi: munozara ishtirokchilarining fikr-mulohazalarini tahlil qilib bordi. Ularning nuqtai nazariga o'z munosabatini bildirib, o'zining vaziyatni hal etishga doir variantini taklif etib bordi.

3. Logik (mantiqiy jihatini nazorat qiluvchi): munozara ishtirokchilari va taqrizchining tahlilidagi qarama-qarshiliklar va mantiqiy xatoliklarni aniqladi va farazlarning to'g'ri shakllantirilishini boshqardi.

4. Psixolog: seminar munozara jarayonida talabalarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etdi, munozara jarayonida nizoli vaziyatlarning kelib chiqmasligi va o'zaro hurmatni saqlashlari uchun harakat qildi.

5. Ekspert: butun munozara jarayoni samaradorligi, vaziyat yuzasidan faraz, taklif va xulosalarning to'g'ri shakllantirilganligi, munozara ishtirokchilarining fikrlari yuzasidan o'z mulohazalarini bayon etdi.

Aqliy hujum – muammoli vaziyatlarni hal etishda keng qo'llaniladigan interfaol metodlardan biri. Mazkur metodning maqsadi muammoni hal etishning noan'anaviy yo'lini hal etish bo'yicha jamoaning umumiy fikriy faoliyatini tashkil etishdir.

O'quvchilarda qadriyatli tasavvurlarni shakllantirishda aqliy hujum metodi quyidagi vazifalarni hal etishga yordam berdi:

1) o'quvchilarning hayotiy va pedagogik vaziyatlarni pedagogika tarixi fanidan olgan bilimlari asosida ijodiy hal etishlari;

2) aniq vaziyatlar bilan ajdodlar merosi orasida aloqadorlikni yo'lga qo'yish;

3) o'quvchilarning vaziyatni hal etishga doir diqqat-e'tibori va aql kuchini jamlash;

4) jamoaviy fikriy faoliyatni shakllantirish. Muammoni hal etishning bir necha muqobil variantlarini izlab topish ko'nikmasini tarkib toptirish.

“Tarbiyaviy qadriyatlar” mavzusiga doir “B-B-B chizmasi” grafik organayzeri

Bilaman	Bilmoqchiman	Bilib oldim

O’smirlarda qadriyat tushunchasining rivojlanishida ta’lim va tarbiyaning o’rni

Bizning davrimizda ta'limiy qadriyatlar, ularning tabiati, funksiyalari, o'zaro aloqadorligi haqidagi pedagogikaning yangi sohasi – *pedagogik aksiologiya* rivojlanib bormoqda. Chunki zamonaviy jamiyat ta'limni o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni egallashining maqsadga yo'naltirilgan jarayoni va natijasi sifatida tushunishdan uzoqlashdi. Ta'lim bu insonda insoniylikni tarkib toptirishdir. Uning asl mohiyati ham ana shunda

- Ta'limning ma'naviyatni tarkib toptirishdagi ahamiyati uni qadriyatli bilimlarni uzatish va uning asosida insonda qadriyatli munosabat, qadriyatli xulq-atvorni shakllantirishda ekanligini o'z vaqtida Aflotun ham ta'kidlab o'tgan edi. U davlatning asosini qolgan barchasi unga bog'liq bo'lgan yagona birlik aks ettiradi, deb hisoblagan. Bunday asos – oliyjanoblikdir. Olim yuksak oliyjanoblik sifatida hech narsa yaxshilik va yomonlik haqida unday ma'lumot bera olmaydigan bilimni e'tirof etadi. Bilimda qanchalik oliyjanoblik o'z ifodasini topganligini esa ta'lim jarayonida o'rganish mumkin.
- Aksiologik muammolarga doir nazariy manbalardagi qadriyat tushunchasining mohiyatini tahlil etish asosida pedagogik aksiologiya qadriyat tushunchasiga shaxs va jamiyat faoliyatida ideal namuna va yo'nalishlarni aks ettiruvchi individual va ijtimoiy ongni tashkil etuvchi maxsus ta'lim sifatida qaraydi.
- Alohida shaxs yoki jamiyat yaxlitlikda qadriyatlarni uzatuvchisi sifatida qaraladi, nihoyasi esa, insonning xulq-atvori va xatti-harakatini rag'batlaydi. Xulq-atvor va xatti-harakatlarning tavsifi shaxsning atrof-muhitga, o'z-o'ziga munosabati haqida guvohlik beradi.
- **Aksiologiya** falsafaning mustaqil sohalaridan biridir. Mazkur tushuncha adabiyotlarda turlicha talqin etiladi.
- **Aksiologiya** yunoncha so'z bo'lib, **axio** – qadriyat, **logos** – ta'limot, so'z, ya'ni qadriyatlar haqidagi ta'limot ma'nosini bildiradi.
- **I.T.Frolova** tahriri ostidagi falsafiy lug'at(1986)da aksiologiyaga qadriyatlar tabiatini falsafiy jihatdan tadqiq etish, deb ta'rif beriladi.
- **Qiyomiddin Nazarov** umumiy tahriri ostidagi «Falsafa: qomusiy lug'at»(2004)da «aksiologiya»ga aksiologik ong, qadrlash tuyg'usi, aksiologik bilish, qadriyatli yondashuv va boshqalar asosida to'plangan qadriyatlar to'g'risidagi bilimlar sistemasi sifatida ta'rif berilgan.

V.E.Kemerov umumiy tahriri ostidagi zamonaviy falsafiy lug'at(1998)da «aksiologiya» tushunchasi insonda kelajakka bo'lgan o'zining hayotiy intilishlari,

mavjud hayot uchun mo'ljalni ola bilish, o'tmish, «boshqa», umumahamiyatlilikni oqlash yoki ayblashni qadriyatli loyihalash shakl va usullari haqidagi ta'limot sifatida ta'rif beriladi

- **Qadriyat** tushunchasi maxsus falsafiy lug'atda XIX asrning 60-yillarida paydo bo'lganligi ta'kidlab o'tilgan. Falsafiy lug'atning 5-jildida qadriyatga quyidagicha ta'rif berilgan: «Qadriyat falsafiy va sotsiologik tushuncha. U birinchidan, bir ob'ektning ijobiy va salbiy qimmatini, ikkinchidan, ijtimoiy ongning normativ belgilovchi-baholovchi jihati (sub'ektiv qadriyatlar yoki ong qadriyatlari)ni ifoda etadi».
- Hozirgi vaqtda qadriyatning tabiatini xilma-xil talqin etuvchi turli aksiologik yo'nalishlar ko'payib bormoqda. SHartli ravishda **aksiologik konsepsiyalarning** quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:
 - *ob'ektiv-idealistik,*
 - *sub'ektiv-idealistik,*
 - *qadriyatning naturalistik nazariyasi,*
 - *transsendental,*
 - *ijtimoiy,*
 - *dialektik-materialistik.*

Agar insoniyat tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, u bir necha million yillik davrni o'zida aks ettiradi. Insoniyat rivojining dastlabki davrlarida – ibtidoiy jamoa tuzumi davridayoq tarbiya jamiyat rivojining asosi sifatida qabul qilingan. Ma'lumki, ibtidoiy kishilar mehnat faoliyati jarayonida o'z ehtiyojlarini qondirgan va bu jarayon yosh avlodda ham mehnat qilish, amaliy faoliyatni yo'lga qo'yish borasidagi nazariy bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishga zamin hozirlagan.

- ▶ *Yurtboshimiz I.A.Karimov aytganlaridek «Bizning ajdodlarimiz, xalqimiz qadim-qadimdan o'troq yashagan, millatimizning iligi o'troq madaniyat sharoitida qotgan. Bu bir joyda muqim yashagan, o'z turmush tarziga, axloq-odob mezonlariga, aqidalari va tafakkur tarziga ega bo'lgan xonadonlarga nisbatan aytiladi. Butun ommani, bir necha yuz minglab, millionlab aholini birlashtirgan aqidalarga, mezon va qoidalarga ega bo'lgan xalqni qanday izohlash va ta'riflash mumkin?! Ana shu hayotiy va ijtimoiy mantiqdan kelib chiqsak, ta'ri va izoh bitta bo'ladi -milliy borlig'imiz, madaniyatimiz ildizi, tomiri o'troq bo'lgan»*

- ▶ Dastlabki davrlardan oq ulug‘langan pedagogik qadriyatlar xalq og‘zaki ijodini va xalqning ezgu maqsadlarini o‘zida mujassam etgan yozma yodgorliklarda o‘z aksini topgan.
- ▶ XI asrda yashagan ulug‘ olim Mahmud Qoshg‘ariy tomonidan yaratilgan «Devonu lug‘otit turk» asari ilk yozma manbalardan biridir. Kitobdagi maqollarda qo‘shiqdagi kabi do‘stlik, o‘zaro hamkorlik, mehnatga muhabbat, ilm olish va kasb-hunar egallashga nisbatan ehtiyoj va ishtiyoq, vatanparvarlik va qon-qardoshlik tuyg‘usiga ega bo‘lish, tejamkorlikning ahamiyati va isrofgarchilikning oldini olish, adolat va adolatsizlik, yaxshilik va yomonlikning oqibatlarini, axloq-odob qoidalari, sihat-salomatlikni saqlashga oid o‘gitlar o‘z ifodasini topgan.
- ▶ VII – VIII asrlarda qabr toshlariga turk-runiy yozuvida o‘yib bitilgan «Urxun-Enasoy» bitiglarida ham bolalarni vatanparvar, xalqparvar, tadbirkor, uddaburon, oqil qilib tarbiyalash masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan. Jumladan, Qultegin bitigida turk xalqini uzoqni ko‘ra olmaganligi natijasida Tabg‘ach eliga qaram bo‘lib qolganligi, kelgusi avlodlar bunday xatoliklarni takrorlamasliklari zarurligi quyidagicha uqtiriladi:
- ▶ *«So‘zimni tugal eshitgil, keyindagi inim, urug‘im, xalqim... bu so‘zlarni yaxshilab eshit, diqqat bilan tingla.... Tabg‘ach xalqining so‘zi shirin, ipak kiyimi nafis....ekan. SHirin so‘zi, ipak kiyimi bilan aldab, yiroq xalqni shu holda birlashtirar ekan... YAxshi dono kishini, yaxshi alp kishini yo‘latmas ekan. Biror kishi adashsa, urug‘i, xalqi, uyi, yopinchiq‘igacha qo‘ymas ekan. SHirin so‘ziga, nafis ipagiga aldanib, ey turk xalqi, o‘lding».*
- ▶ Pedagogik faoliyatning aksiologik xarakteri uning insonparvarlik mazmunida aks etadi. O‘z navbatida, pedagogik qadriyatlar – bu shunday pedagogik faoliyatning o‘ziga xosligiki, ular nafaqat pedagogik ehtiyojlarni qondirishga imkon beradi, balki uning ijtimoiy va kasbiy faolligini mo‘ljalga olishga xizmat qiladi. Pedagogik qadriyatlar hayotda o‘z-o‘zidan tasdig‘ini topmaydi. Ular jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy aloqalarga bog‘liq.
- ▶ Ana shu jihatni hisobga olib, Z.I.Ravkin pedagogik qadriyatlarni quyidagicha tasnif etadi:

- ▶ **1. ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar:** ta'limning hamma uchun ochiqligi va bepulligi, millatidan qat'i nazar, barcha fuqarolarning bilim olishdagi teng huquqliligi;
- ▶ **2. intellektual qadriyatlar:** bilishga ehtiyoj va qiziqish, faollik, ijodiy faoliyati, fikrning go'zalligi va so'z bilish faoliyati vositasi sifatida;
- ▶ **3. axloqiy qadriyatlar:** o'quvchining burch va shaxsiy majburiyatlari, uning ped. jarayonning sub'ekti bo'lish huquqi, bilimlarni egallashdagi axloqiy rag'batlar va motivlar, mehnat va boshqa kishilarning mehnatini hurmat qilish;
- ▶ **4. kasbiy-pedagogik faoliyatga doir qadriyatlar:** o'qituvchi-tarbiyachining mehnat qilishga chorlash, tanlagan kasbiga mas'uliyat bilan yondashuv, pedagogning mahorati, uning izlanishli-tadqiqotchilik, innovatsion faoliyati,
- ▶ **V.A. Slastenin pedagogik qadriyatlarni quyidagicha tasnif etadi:**
 - ▶ **1) maqsadli qadriyatlar:** shaxsiy Men va kasbiy Men yig'indisidagi bo'lg'usi o'qituvchining shaxsiy konsepsiyasi;
 - ▶ **2) vositali qadriyatlar:** pedagogik muloqot, texnika va texnologiya, monitoring, innovatika, intuitsiya tizimi;
 - ▶ **3) munosabatli qadriyatlar:** pedagogik jarayon ishtirokchilarining munosabati, kasbiy-pedagogik faoliyatga munosabat;
 - ▶ **4) sifat qadriyatlari:** shaxsning xulq-atvor, faoliyatga doir xilma-xil sifatleri.
 - ▶ **5) bilishga oid qadriyatlar.**
- ▶ **O'zbekistonda ta'limiy qadriyatlar sohasida tadqiqot olib borayotgan olim SH.Mardonov ta'limiy qadriyatlarning o'ziga xosligiga ko'ra, bir necha guruhga tasnif etadi:**
 - ▶ **global konseptual qadriyatlar; aniq ta'limiy qadriyatlar;**
 - ▶ **ta'limning individual-shaxsiy xarakterdagi qadriyatlari;**
 - ▶ **innovatsion pedagogik texnologiyalar – umumbashariy (global)-konseptual ta'limiy qadriyatlar;**
 - ▶ **shaxsni shakllantirish;**

- ▶ ta'limning demokratik va gumanitar yo'nalganligi;
- ▶ insonparvarlik, shaxs dunyoqarashini shakllantirish.

Ta'limiy qadriyatlar ahamiyatlilik xususiyatiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

konseptual-yo'naltirilgan;

bazali (manbali), o'quv-rejali;

shaxsiy qadriyatli va kasbiy-shaxsiy;

nazariy-pedagogik;

nazariy-amaliy va protsessual-pedagogik, innovatsion-pedagogik texnologiyalar;

ilg'or axborot texnologiyalari;

ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarning tarbiyalanishiga alohida e'tibor berish;

o'z-o'zini takomillashtirish.

Ta'limniig shaxsiy-ahamiyatli qadriyatlari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:

- ijtimoiy-g'oyaviy, insonparvar, estetik dunyoqarashning shakllanishi;
- yuksak ma'naviyatga ega bo'lish;
- ijtimoiy-kommunikativ faollik, har tomonlama rivojlanish, umummadaniy, kasbiy, intellektual, ijodiy, ma'naviy-axloqiy, estetik, ekologik va boshqalar;
- o'z-o'zini tarbiyalash, rivojlantirish, shaxsiy, kasb-hunar yo'nalishini takomillashtirish, «Men» konsepsiyasining shakllanishi.

Ta'limning bazali (manbali) qadriyatlari:

- ta'limning hozirgi zamon metodologiyasi;
- milliy va umuminsoniy madaniyat;
- SHarq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari;
- xalq pedagogikasi g'oyalari;
- milliy va jahon pedagogikasi;
- shaxsga yo'naltirilgan pedagogika fani, pedagogik jarayon psixologiyasi.
- Bugungi kunda ta'lim tizimining rivojlanishidagi asosiy yo'nalishlardan biri qadriyatli paradigмага o'tish jarayoni ro'y bermoqda. Mazkur yondashuvga yo'nalganlik qarashlarning

konseptual tizimlari, an'anaviy va innovatsion jarayonlarning qadriyatli asoslarini yaqinlashuvini ob'ektiv jihatdan talab etadi. Ana shu sababdan pedagogik hodisalarni o'rganishda aksiologik yondashuvning tarixiy ildizlarini, shakllanish va rivojlanish omillarini hamda mazmun-mohiyatini to'la anglab olish o'ta muhimdir.

- **Aksiologik muammolar bilan mil. av. VI-V asrlardayoq qadimgi yunon olimlari – Geraklit, Demokrit, Suqrot, Aflotun, Aristotellar shug'ullana boshlashgan. Ular asosiy aksiologik savollarni shakllantirishga harakat qilganlar: oliy baxtga erishish mumkinmi? Hayot mazmuni nimada? Haqiqat bormi? Go'zallik nima?**
- **Buyuk olim va davlat arbobi Mirzo Ulug'bek esa, «*bilim olishga intilish davlat ravnaqiga yo'l demakdir*», degan aksiomani ilgari surib ta'limning aksiologik qadriyat statusini aniq belgilab bera olgan edi.**
- **Qadriyat Muamosi**
- **Rus olimlaridan**
- **- B.G.Anany, V.A.Vasilenko, O.GDrobnitskiy, B.G.Kuznetsov, N.M.Kuznetsov, A.A.Ruchka, V.P.Tugarinov, V.A.YAdovlar qadriyat muammosini tadqiq eta boshlaganlar.**
- **O'zbek olimlaridan**
- **- J. Tulenov birinchilardan bo'lib, qadriyatlar falsafasini tadqiq etgan. Keyinchalik faylasuf olimlardan**
- **- E.YUsupov, S.Komilova, I.Karimov, Q.Nazarov, S.Valieva, M.Rustamova, K.Tulenovalar aksiologiyaning turli jihatlarini yoritishga harakat qilganlar.**
- **Bugun jahon ta'lim tizimini qadriyatga yo'nalgan faoliyatning istalgan sohasini boshqaruvi, tez o'zgaruvchan vaziyatlarda insonda faol ishtirok etish ko'nikmasini rivojlantirish murakkab kechmoqda. Buning asosiy sababi, mintaqada yoki jahonda sodir bo'layotgan inson faoliyatining salbiy natijalari, urushlar, diniy ekstremizm va terrorizm, milliy biqirlilik, buyuk shovinizm qaysi davlatda sodir bo'lishidan qat'iy nazar, butun er yuzidagi odamlarning salomatligiga, atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.**
- **Turli resurs manbalarida pedagogik aksiologiya XX asr oxirda uning jadal shakllanishi va rivojlanishi sodir bo'lganligi ta'kidlanadi. Buning**

asosiy sababi jamiyat ehtiyojlardan kelib chiqqan holda, shaxsning ma'naviy imkoniyatlariga birdaniga talablarning o'sganligidir. Davriy nashrlarda ta'limning rivojlanishining aksiologiyaga asoslangan strategiyasi; qadriyatlarga tarbiya maqsadining asosi sifatida qarash; o'quvchilarning qadriyatga yo'nalganligini shakllantirishning amaliy tajribasini tahlil etish, ta'limni qadriyatli tashxis etishning vazifalarini shakllantirish kabi uning insonparvarlik mohiyatini aks ettirishi ko'zga tashlanadi (V.I. Ginetsinskiy, I.F. Isaev, N.D. Nikandrov, Z.I. Ravkin, N.S. Rozov, V.A.Slastenin, E.N.SHIyanov, SH.Mardonov, T.Toshlonov, YU.Ismoilova, B.Xodjaev va boshqalar).

- **Qadriyat** tushunchasi maxsus falsafiy lug'atda XIX asrning 60-yillarida paydo bo'lganligi ta'kidlab o'tilgan. Falsafiy lug'atning 5-jildida qadriyatga quyidagicha ta'rif berilgan: «Qadriyat falsafiy va sotsiologik tushuncha. U birinchidan, bir ob'ektning ijobiy va salbiy qimmatini, ikkinchidan, ijtimoiy ongning normativ belgilovchi-baholovchi jihati (sub'ektiv qadriyatlar yoki ong qadriyatlari)ni ifoda etadi».
- Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot» nomli ilmiy ishlar to'plamida «Qadriyat deyilganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari hodisalari majmuini tushunmog'imiz lozim», deb ta'kidlab o'tilgan.
- «Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'at»da, «Qadriyatlar – jamiyatda kishilar o'rtasida obro'ga, e'tiborga, hurmatga, nufuzga, ahamiyatga ega kishilar, munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma'naviy boylıklar majmuasi» degan ta'rif berilgan.
- Qiyomiddin Nazarov umumiy tahriri ostidagi «Falsafa: qomusiy lug'at» (2004)da «Qadriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarning, umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan falsafiy-sotsiologik va aksiologik tushuncha», deb ta'rif berilgan.
- O.Tohirov, B.Ochilovalarning ta'kidlashicha, “Qadriyat – bu tabiiy va ijtimoiy hayotda namoyon bo'ladigan, kishilar qadrlaydigan va ular uchun manfaatli, foydali, ijobiy ahamiyatli tabiiy, individual va ijtimoiy ehtiyojni qondirishga xizmat qiladigan, moddiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy, mafkuraviy va siyosiy omillar yig'indisidir”.
- “Qadriyatlar, – deb yozadi O.Musurmonova, – inson tomonidan qadrlanadigan narsalardan iborat bo'lib, kishilarning talabi, xohishi, qiziqishi va maqsadi asosida o'zaro munosabat, o'zaro ta'sir (atrof-muhit bilan, insonlar bilan) natijasida dunyoga keladigan holatdir”.
- Siyosatshunos olim N.Jo'raevning ta'kidlashicha, “Qadriyat deyilganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hodisalari majmui tushunilishi lozim”.

- Qadriyat tushunchasining kelib chiqishi shuni ko‘rastadiki, unda uch asosiy belgi birlashadi: narsa va hodisalarni baholashga doir insonning amaliy va emotsional munosabatini ta’riflash; insonning psixologik tavsifini aniqlovchi axloqiy kategoriyalarni tavsif etish; odamlar orasidagi munosabatlarni xarakterlovchi ijtimoiy hodisalarni ta’riflash. «Qadriyat» tushunchasining rivoji shartli ravishda qadriyatlarining turli ko‘rinish(iqtisodiy, psixologik, axloqiy, estetik, bilishga oid, ijtimoiy)larini ajratib ko‘rsatish, inson tabiati, uning bilishga intilish mexanizmlarini anglab etish, bilish faoliyatining harakatlantiruvchi kuchlarini aniqlashga imkon beradi.
- **Aksiologik konsepsiyalar.** Hozirgi vaqtda qadriyatning tabiatini xilma-xil talqin etuvchi turli aksiologik yo‘nalishlar ko‘payib bormoqda. SHartli ravishda **aksiologik konsepsiyalarning** quyidagi turlarini ajratib ko‘rsatish mumkin: ob‘ektiv-idealistik, sub‘ektiv-idealistik, qadriyatning naturalistik nazariyasi, transsendental, ijtimoiy, dialektik-materialistik.
- **Ob‘ektiv-idealistik nazariya** (neokantchilik, neotomizm, inti-vituizm) qadriyatni zamon va vaqtdan tashqaridagi narigi dunyodagi mavjudlik sifatida talqin etadi.
- **Sub‘ektiv-idealistik nazariya** (mantiqiy pozitivizm, fenomenologiya, emotovizm, etikadagi lingvistik tahlil, U. Erban, D.Proll, L.Lyuis va boshqalarning asab-iroda qadriyat nazariyasi) qadriyatni ong hodisasi sifatida talqin etadi, unda baholanayotgan ob‘ektga insonning sub‘ektiv munosabati, psixologik kayfiyatining namoyon bo‘lishini ko‘radi.
- **Qadriyatning naturalistik nazariyasi** (qiziqishlar nazariyasi, tadrijiy etika, kosmik teologik etika) qadriyat ostida inson tabiiy ehtiyojlari yoki yaxlitlikda tabiat qonunlarining aks etishini ko‘radi. Masalan, qiziqishlar nazariyasi tarafdorlari narsa-hodisalarning qimmatini insonning unga qiziqishidan kelib chiqib belgilaydi (R. Peri, D. Parker (AQSH), F. Tennant (Angliya)).
- **Aksiologik transdentalizm** dunyosida qadriyat – inson ishtirok etishi mumkin bo‘lgan (yoki mumkin bo‘lmagan) mavjudlikning mustaqil sohasiga ega ideal.
- **Ijtimoiy konsepsiya** uchun ijtimoiy umumiylik bilan bog‘liqlikdagi qadriyatning nisbiyligi xarakterlidir.
- **Dialektik materialistik** yo‘nalish tarafdorli qadriyatlar tizimiga jamiyatning tarixiy, iqtisodiy, ijtimoiy rivoji nuqtai nazaridan qaraydi.
- Qadriyatning manbai nuqtai nazaridan haqli ravishda qadriyatlar haqidagi ta’limotning quyidagi asosiy turlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:
- **aksiologik psixologizm** (V.Vundt, F.Brentano, A.Maynong) qadriyatning manbai sifatida insonning sub‘ektiv dunyosi – uning maqsadi, hissiyoti, irodasi, ehtiyoj va ustanovkasini ko‘rib chiqadi. Inson uchun ahamiyatli hamma narsa qadriyatni aks ettiradi;
- **aksiologik normativizm** (M.Veber, V.Diltey, O.SHpengler) qadriyatning manbai sifatida ko‘pchilik odamlarning ijtimoiy madaniy faoliyatini ko‘radi. Bu erda ijtimoiy-madaniy muhitning o‘zgarishini ta’minlaydigan me’yor, qoida, baho qadriyat sifatida aks beradi;

- **aksiologik transsendentalizm** (G.Lotse, V.Vindelband, G.Rikker) odamlarni oliy maqsadga erishishga yo'naltiruvchi qandaydir o'zaro aloqador ideal mohiyatni qadriyat manbai hisoblaydi.

Moddiy, ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlarga doir muqobilini tanlab olish testi

1. Ilmiy-texnikaviy va intellektual, maorif, ta'lim-tarbiya, tibbiy xizmat, milliy meros, turli shakllarda namoyon bo'ladigan madaniyat durdonalari, til, adabiyot, san'at, xalq hunarmandchiligi mahsulotlari, noyob tarixiy va madaniy arxitektura yodgorliklari

A. Moddiy qadriyatlar

2. Kishilarning yashashi, umr kechirishi uchun zarur bo'lgan tabiiy sharoitlar va moddiy boyliklar, tabiiy zahiralar, iqtisodiy shart-sharoitlar, oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar joy, kommunikatsiya vositalari

V. Umuminsoniy

1. Millatni, elatni tashkil qiluvchi kishilarning milliy madaniyatini, merosini, qadriyatlarini, urf-odatlarini, an'alarini o'zlashtirishdagi faoliyatini rivojlantirish bo'lib, u milliy ong va milliy o'zlikni anglashning sub'ektidir.

S. Ma'naviy

4-ilova

Qadriyatlarning umumaksiologik turlari: namoyon bo'lish shakllari va o'ziga xosliklari

Ilmiy-pedagogik va falsafiy adabiyotlarda qadriyatlarni umumlashtirgan tarzda quyidagi to'qqiz guruhga tasnif etilgan:

Ma'naviy qadriyatlar shaxsni axloqiy shakllantirishning asosiy omili bo'lib, ular ilmiy-texnikaviy va intellektual, maorif, ta'lim-tarbiya, tibbiy xizmat, milliy meros, turli shakllarda namoyon bo'ladigan madaniyat durdonalari, til, adabiyot, san'at, xalq hunarmandchiligi mahsulotlari, noyob tarixiy va madaniy arxitektura va hokazolar hisoblanadi. SHuningdek, o'zbek xalqining milliy an'analari, bayramlari, udum va odatlari, O'zbekistonda o'tgan mutafakkirlarning ma'naviy merosi, yozma asarlar, rivoyat va afsonalar, muqaddas joylar, tarixiy yodgorliklar, musiqa va qo'shiqlari, cholg'u asboblari, o'yinlari, dehqonchilik va

hunarmandchilik kabilar ma'naviy qadriyatlarning asosini tashkil etadi. Ular kishilarning bir-birlariga, vatanga, oilasiga bo'lgan munosabatidagi axloq xulq-atvorida, odob va xatti-harakatida namoyon bo'ladi.

Huquqiy qadriyatlar – bu jamiyat va madaniyat, davlat va huquq yo'nalishlarini o'zida mujassam etib, har bir kishida huquqiy bilim, tafakkur va dunyoqarashni shakllantiradi. Huquqiy qadriyatlar – umuminsoniy qadriyatlar va jahon andozalari, huquqiy madaniyat bo'yicha sharq falsafasi, o'zbek milliy mafkurasi, tarixiy-huquqiy meros va tajriba asosida kamol topadi. Huquqiy qadriyatlar eng avvalo umuminsoniy qadriyatlarga, umumjahon sivilizatsiyasiga, bu sohada boshqa xalqlar erishgan tajribalarga, xalqaro huquqning me'yorlariga asoslanadi. Tenglik, erkinlik, birodarlik, xalqlar va millatlararo do'stlik, insonning o'z xoxish-irodasini erkin bildirishi hamda uni amalga oshirishi, barcha fuqarolarning teng huquqligi, davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustunligi – huquqiy qadriyatlar hisoblanadi. Huquqiy qadriyatlar O'zbekistonda Konstitutsiya va qonunlar bilangina emas, balki xalqning o'z ongi, uning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashi va huquqiy tajribasi, mehr-shafqati bilan mutahkamlanadi.

Mehnat qadriyatlari – tabiat bilan uyg'unlikda yashash, undan ibrat olish, uning go'zalliklaridan zavqlanish va tabiat qo'ynida mehnat qilish kabilarni tashkil etadi. Mehnat qadriyatlari – mehnat madaniyatining barcha elementlarini qamrab oladi. Har bir yosh avlod hayotga qadam qo'yar ekan, o'z ajdodlaridan faqat mehnat vositalarigina emas balki mehnat madaniyatini ham meros qilib oladi. SHuning uchun ham mehnat qadriyatlari o'quvchilarning qobiliyatlari, imkoniyatlari va haqiqiy kuchlarini namoyon etish va takomillashtirish imkoniyatini beradi. Mehnat qadriyatlarida hunarmandchilik, kasb-hunar egallash muhim o'rin tutadi. Bunda zardo'zlik, yo'rmado'zlik, bo'zchilik, yog'och o'ymakorligi, zargarlik, gilamchilik, kashtado'zlik, muqovasozlik, naqqoshlik, pichoqchilik, o'ymakorlik kabi hunarlarni o'rganish – mehnat qadriyatlarining negizini tashkil etadi.

Turmush qadriyatlari – tarixan muayyan ijtimoiy munosabatlar uchun xos bo'lgan hayot va faoliyat shakllari tizimi bo'lib, ular bevosita hayot sharoitlarini, o'ziga xos xususiyatlarni ifodalaydi. Odamlarning xulq-atvori, yurish-turishi, muomalasi va tafakkur tarzi orqali namoyon bo'ladi. Turmush madaniyatining ma'naviy-ahloqiy va huquqiy rivojlanishini qamrab oladi. Turmush, xulq-atvor madaniyati, fuqarolarning huquq va erkinliklari jamiyat a'zolarining ijtimoiy-huquqiy faolligi kabilar turmush qadriyatlari asosida namoyon bo'ladi.

Umummadaniy qadriyatlar tufayli xiyobonlar, sayilgohlar, o'yingohlar, tomoshagohlar, san'at saroylari, ziyoratgohlar, maktablar, madrasalar, kutubxonalar, madaniyat markazlari kabi muassasalarda xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan nufuzli tadbirlar, turli millat xalqlarini birlashtirgan anjumanlar o'tkaziladi. Umummadaniy qadriyatlarga ega bo'lgan har bir millat do'st, mehmon, turist sifatida madaniy-ma'naviy yodgorliklarga o'z hurmatini izhor qiladi. Xalqaro munosabatlarda qat'iyatlilik, donolik, uzoqni ko'ra bilish, xorijda ishlayotgan, ta'lim olayotgan O'zbekiston vakillarining yurtimiz, halqimiz sha'niga-shan, shuhratiga-shuhrat qo'shishi umummadaniylikning amaliy namoyon bo'lishidir.

Umuminsoniy qadriyatlar bu millatni, elatni tashkil qiluvchi kishilarning milliy madaniyatini, merosini, qadriyatlarini, urf-odatlarini, an'analarini o'zlashtirishdagi faoliyatini rivojlantirish bo'lib, u milliy ong va milliy o'zlikni anglashning sub'ektidir. Umuminsoniy qadriyatlar asosida shaxsni axloqiy shakllantirishda millatparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, yuksak insoniylik, mehr-oqibat, iymon-e'tiqod, or-nomus, insof-diyonat kabi fazilatlardan foydalanish, shuningdek "ota-ona, qarindosh-urug'larning hurmatini joyiga qo'yish, oilaning muqaddasligi tuyg'ularining barkamol bo'lishiga erishish, o'zaro munosabatlarda yonma-yon yashayotganlar manfaatlarini hisobga olish" muhim ahamiyatga ega.

Moddiy, ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlarga doir muqobilini tanlab olish testi

- | | |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------|
| 1. Barcha millat kishilari uchun muqaddas boylik bo'lib, ularni ezgulikka, poklikka da'vat etadi | A) shaxsiy-individual |
| 2. Xalqning turmush tarzi va uning bugungi ruhiyati, an'analari, madaniyati, psixologiyasi xususiyatlarini ifoda etib, dunyodagi barcha millat va dinga mansub shaxslar uchun keng imkoniyatlar yaratish bilan birga xalqaro demokratik talablariga javob beradi. | V) milliy qadriyatlar |
| 3. Millatga mansub bo'lgan umumjahon taraqqiyoti qonuniyatlaridan biri bo'lib, o'z millatidan, o'z yurtidan faxrlanish, o'zbek davlati fuqarosi ekanligidan g'ururlanish kabilarni o'zida aks ettiradi. | S) ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar |
| 1. SHaxsning ma'naviy-axloqiy olami, nafosati va go'zalligi, huzur-halovati, individual kamoloti, qobiliyati va iste'dodi, his-hayajonlari bilan bog'liq qadriyatlar. | D) diniy qadriyatlar |

4-ilova

Qadriyatlarning umumaksiologik turlari: namoyon bo'lish shakllari va o'ziga xosliklari

Milliy qadriyatlar – millat shaxsining tili, tarixi, urf-odatlarida namoyon bo‘ladi. Milliy qadriyatlar negizida “millat”, “o‘zbek” degan so‘zlar o‘z ifodasini topgan. “Millat” so‘zi arab tilida quyidagi uch ma‘noni anglatadi. Birinchidan-mazhab; ikkinchi-ummat; uchinchi-xalq, qavm. Millat so‘zi Qur‘oni Karimda ham qo‘llanilgan. Qur‘onda har bir millat vakili o‘z milliy qadriyatlarini rivojlantirishi sababli o‘z millatidan, qavmidan kechib boshqa millatga o‘tib olish gunoh deb ta‘riflagan. Evropa adabiyotida qo‘llaniladigan “Naatsiya” so‘zi qabila, xalq degan ma‘noni bildiradi, binobarin, bu ikki tushunchada ham muayyan etnik birlikning o‘ziga xosligini bildiruvchi ma‘no yotadi.

Milliy qadriyatlar – millatga mansub bo‘lgan umumjahon taraqqiyoti qonuniyatlaridan biri hisoblanadi. Milliy qadriyatlar – o‘z millatidan, o‘z yurtidan faxrlanish, o‘zbek davlati fuqarosi ekanligidan g‘ururlanish kabilardir.

Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar demokratiya yoki siyosiy jarayongina bo‘libgina qolmay, shu bilan birga xalqning turmush tarzi va uning bugungi ruhiyati, an‘analari, madaniyati, psixologiyasining xususiyatlarini ifoda etadi. Siyosiy qadriyatlar dunyodagi barcha millat va dinga mansub shaxslar uchun keng imkoniyatlar yaratish bilan birga xalqaro demokratik talablariga javob beradi. Unda inson huquqi, sha‘ni, or-nomusi va himoyasiga qaratilgan barcha tamoyillar kafolatlanadi. Mamlakatimiz xavfsizligi, barqarorlik va millatlararo hamjihatlikni saqlash, kelajak avlodlarga obod va ozod Vatanni meros qoldirish mas‘uliyatini oshiradi. Ichki va tashqi siyosiy muvozanatini saqlaydi. Siyosiy qadriyatlar insoniyat tomonidan yaratilgan barcha moddiy va ma‘naviy boyliklarni asrashda va mustahkamlashda hamda ulardan foydalanishda imkoniyatlar yaratadi.

Diniy qadriyatlar – yolg‘iz diniy qoidalar, ko‘rsatmalar, tamoyillaridan iborat bo‘libgina qolmay, u kishilar o‘rtasidagi ma‘naviy-ahloqiy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa munosabatlarning ham ifodasidir. Islom dini jamiyatdagi ma‘naviy barqarorlikni ta‘minlash bilan birga, kishilarni iymone‘tiqodli bo‘lib yashashga da‘vat etadi. Chunki, iymonli odam xiyonat qilmaydi, qarindosh-urug‘lari, elu-xalqning or-nomusini himoya qiladi. Xalol va pok yashashni o‘zining burchi deb biladi. Diniy qadriyatlarga suyanish, musulmonchilikning asl tamoyillarini rivojlantirish, ularni o‘quvchi yoshlar ongiga singdirish – shaxs kamolotida, uning dunyoqarashi, axloqi, faoliyati mazmunini belgilashda asosiy mezonlardan hisoblanadi. Diniy qadriyatlar xalqimiz turmush tarzi va hayotining negizini tashkil etadi. Diniy qadriyatlar barcha millat kishilari uchun muqaddas boylik bo‘lib, ularni ezgulikka, poklikka da‘vat etadi. Diniy qadriyatlar nafaqat oxiratda, balki bu dunyoda ham baxt-saodatga erishish mumkinligini e‘tirof etadi.

Qadimgi SHarq falsafasida dunyoga qadriyatli munosabatning aks etishi. Aksiologiya qadriyatlarning tabiatini falsafiy tadqiq etish sifatida XIX asrning 2-yarmida yuzaga kelgan bo‘lsa ham, qadimgi dunyo falsafasidayoq dunyoga qadriyatli munosabat o‘ziga xos tavsiflanadi. O‘sha davr faylasuflari tabiiy va ijtimoiy hodisalarni baholashda «yaxshilik», «ezgulik», «haqiqat», «foydali», «go‘zal» kabi tushunchalardan foydalanishgan.

Qadimgi SHarq falsafasi insonning ichki dunyosini tadqiq etishga katta e'tibor qaratgan. Qadimgi bobilliklarning yaxshilik bilan yomonlikning, ezgulik bilan yovuzlik, boylik bilan qashshoqlikning, zo'rlik bilan xo'rlikning bir biriga tubdan zid ekanligi, o'zaro qarama- qarshi va murosasizligi xaqidagi falsafiy g'oyalarni o'zida ma'lum darajada bayon qiluvchi «Jafokash avliyo haqida doston» va «Xo'jayinning qul bilan suxbati» degan asarlari ham mavjudligini aytib o'tish zarur. Ularning birinchisida – baxt va baxtsizlik, adolat va adolatsizlik ularning sabablari, bartaraf etish yo'llari xususidagi dastlabki falsafiy tasavvur va g'oyalar bayon etilgan. Keyingisida, xo'jayin bilan qul o'rtasidagi ziddiyat ular orasidagi ta'sirli suhbatda ifoda qilingan. Asarda aytilishicha, har gal xo'jayinning istaklarini o'rinli va asosli qilib rad etishga vaj topadigan quldan ko'ngli sovigan hujayin nihoyat: «Xo'sh, endi nima yaxshi?» deb xitob qiladi. Qul dadillik va istehzo bilan bunday javob beradi: «Mening kallamni ham, sening kallangni ham uzib, daryoga tashlash kerak. Eng yaxshisi ana shu. Osmonga etish darajasida yuksak, butun erni qoplab olish darajasida katta odam bormi, axir!». Jaxli chiqib ketgan xo'jayin dahshat bilan qulga qarab: «Ey qul, men seni o'ldirishni va seni mendan oldin ketishga majbur qilishni istayman», - deydi. Bunga javoban qul hujayinni ogoxlantirib: «Dahshatini olganda, xo'jayinim mendan keyin faqat uch kun umr ko'radilar», - deydi.

Hind falsafasida yuksak reallikni o'zidagi aks ettiruvchi ruh – braxman orqali «qalb» tushunchasi ochib berilgan. Qalb «sof anglash»ni aks ettiradi va «sof ilohiylik holati»da joylashadi. Hind faylasuflarining mazkur ta'limoti inson tabiatini takomillashtirishning amaliy yo'llarini ko'rsatib beruvchi «Upanishadlar» deb nom olgan.

Dastlab Hindistonda (mil. av. VI asr) paydo bo'lgan, keyinchalik Markaziy, Janubiy, SHimoliy va SHarqiy Osiyoda keng tarqalgan Dzen-buddizm ta'limoti ham insonning ichki holatiga e'tibor qaratgan. Dzen-buddizm ta'limotining ahamiyati ichki o'z-o'zini baxshida etishda namoyon bo'ladi: haqiqatni anglash uchun atrof-muhitni o'rganish kerak emas, o'zini, o'zining «Men»ini Budda bilan qurollantirish zarur. Dzen-buddizm ta'limotining oliy haqiqatga erishish texnologiyasi turli psixologik mashqlarni o'z ichiga oladi. Psixologik mashqlar o'zida insonning o'z-o'zini takomillashtirishi, uning o'z-o'zini axloqiy anglashi, xulq-atvor usulubini shakllantirish dasturi sifatida qarash mumkin bo'lgan turli qadriyatli jihatlarni aks ettiradi.

Qadimgi G'arb faylasuflarning qadriyatga doir sharhlari va ularning mazmuni. Qadimgi G'arb faylasuflari ham qadriyatni turlicha talqin etganlar. Qadriyatga tegishli go'zal va xunuk, yaxshi va yomon, baxt va baxtsizlik tushunchalarini turli davrlarda turlicha va turli odamlar tasavvurida tushunganlar. Ular asosiy aksiologik masalalarni shakllantirishga harakat qilganlar: oliy baxt mavjudmi? Inson hayoti mazmuni nimada? Haqiqat nima? Sevgi nima va ayriliq nima? Go'zallik nima? Qadriyatlar tabiatidagi qarama-qarshiliklarni aniqlashgan: go'zal narsalar insonni jinoyatga boshlashi mumkin; go'zal so'z salbiy ko'rinisdagi mazmunni ifoda etishi mumkin; tashqi go'zallik – ma'naviy qashshoqlik.

Qadimgi YUnon faylasufi Geraklitning fikricha, bilish asosida idrok turadi, biroq donolikka faqat fikrlash orqali erishiladi.

Demokrit barcha narsalarning o'Ichovi, oliy qadriyat sifatida har qanday insonni emas, faqat dono kishini tushunadi. U Geraklitning fikrini inkor etmagan holda, bilishning asosiy manbasi sifatida hissiy idrok aks etishini ta'kidlaydi. Biroq uning fikricha, hissiy idrok narsa-hodisalar haqida «qorong'u» bilimlar beradi. Dunyoning mohiyatini tushunish tafakkur yordamida haqqoniy bilimlarni egallashga imkon beradi. Bu esa, hissiy idrokning rolini pasaytirmaydi. Aksincha, Demokrit tarbiyada bola tabiatiga uyg'unlik, uning qiziqishlarini hisobga olish zarurligi, jazolashning befoydaligini asoslab beradi.

Demokritning atom to'g'risidagi nazariyasi ham o'zida qator tarbiyaviy qadriyatlarni jamlaydi. Masalan, mehnatga doimiy odatlanishni shakllantirish, ishontirish asosida o'qishga ijobiy motivatsiyani shakllantirish, haqiqatni izlab topish, qalbni qo'rqo'vdan xalos etish, ishtiyoqini shakllantirish haqidagi fikrlari shular jumlasidandir.

Haqiqatga erishishga yo'naltirilgan inson harakatiga Suqrot ham qadriyat sifatida qaraydi.

Aflotun birinchilardan bo'lib, ta'lim tizimini falsafiy nuqtai nazardan asoslaydi, buning uchun davlat ta'limining zarurligini ta'kidlaydi. U o'zining davlat shu jumladan, ta'lim haqidagi ta'limotida g'oyalarning aqlga asoslangan dunyosi; davlat (jamiyat, polis); individ, fikrlovchi, davlat qonunlariga rioya qiluvchi kabilarni ajratib ko'rsatadi.

Aflotun yuksak ezgulikning mohiyatini aks ettiruvchi birinchi qadriyatli tasnifni ishlab chiqdi. Ezgulik o'zida o'Ichov, mo'tadillik, vaqt bilan bog'liqlikni aks ettiradi. Bu qadriyatlar taraqqiyot zinapoyasining eng yuqori qismida joylashadi. Ikkinchi o'ringa Aflotun go'zallik va komillikni; ulardan so'ng aql va tafakkurni; so'ngra – idrok etish va bilimlarni chaqiruvchi qalbning lazzatlanishini qo'yadi. Oxirgi bo'g'inga «yuksak go'zallik» joylashadi.

O'rta asrlarda qadriyatli ongning taraqqiy etishi. O'rta asrlar ta'limotida qadriyat Xudoning marhamati, uning ko'rsatmalari asosi sifatida tushunildi. Xudoda oliy ezgulik mujassamlashadi, u o'zida Haqiqat, YAxshilik, Go'zallik birligini namoyon etadi va axloqiy qadriyatlarning manbai hisoblanadi.

O'rta asrlardagi qadriyatli ong ob'ektiv va sub'ektiv qadriyatlarning o'zaro munosabati, ularning birligi va xilma-xilligini aks ettiradi. Uning uchun yaxlitlikda uch ilohiy fozillikni aniqlab beruvchi Ishonch, Umid, Muhabbat kabi ma'naviy qadriyatlarni e'tirof etish xarakterlidir. O'rta asr g'oyalarida Xudo uchun yashash o'z aksini topgan. Insonning qadr-qimmati to'liq uning Olloh bilan ittifoqiga bog'liq bo'lgan. Bu g'oya sof, ilohiy bo'lib, kishi ichki «Men»ning hosil bo'lishi unga bog'liq. Demak, o'rta asrlar ham qadriyatni izohlashda turli-tumanlik bilan tavsiflanadi.

XII asrda sxolastikaning yo'nalishlaridan biri sifatida qadriyatni insonning tafakkur kuchi sifatida tavsiflovchi nominalizm (konseptualizm) rivojlandi.

Konseptualizm vakillari – Per Abelyar, Ioann Soleberiyanskiy va boshqalar – o'rta asrlardagi realizm ta'limotini rad etishdi, biroq nominalistlardan farqli ravishda bilish faoliyatining asosiy shakli sifatida ongda umumiy tushunchalarning

mavjud bo'lishini e'tirof etishdi. Konseptualistlar inson qadr-qimmatini ilohiy hodisa emas, uning tafakkur kuchi sifatida ta'riflashdi. Axloqiy ideal ham tafakkur qadriyat sifatida ta'riflanadi (Abelyar).

Mo'tadil mistitsizm vakili Gugo Sen-Viktorskiyning ta'kidlashicha, samo (Yaratgan)ni anglash uchun o'zini anglash zarur. Bilimni qadriyat sifatida ta'riflab, u bilimlarni o'zlashtirishning shart-sharoitlarini shakllantirdi: tabiiy qobiliyatlar, to'g'ri ko'rsatma va topshiriq, aqlning kuchliligi va mustahkam xotira. Bilimlarni o'zlashtirish uchun asosiy metod yordamida erishiladi: o'qish; haqiqatni ochib beruvchi Diniy kitobni mushohada etish; o'rganishga tirishqoqlik. Faylasufning asosiy pedagogik qoidalari pedagogik jarayonning maqsad, mazmun, metodlari aniqlab berilgan «Didaskalion» asarida aks etgan. Bilimlarni o'zlashtirishning asosiy metodlari sifatida Sen-Viktorskiy o'qish, o'quvchining xotirasini rivojlantiradigan mashq, tirishqoqlik, fikrlashga o'rganish deb hisobladi.

Uyg'onish davrida sxolastika rasmiy falsafa sifatida qolaverdi, faqat SHaxsni, uning Taqdiri va Huquqlarini, inson Baxt-saodati, uning har tomonlama rivojlanishi, kishilarning ijtimoiy hayotlari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishni qadriyat deb biluvchi insonparvar madaniyat paydo bo'ldi. Uyg'onish davri gumanistlari individning har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun harakat qilishdi, shuning uchun ular qadriyat tushunchasini inson bilan o'zaro aloqadorlikda qarashgan. Qadriyatlar inson shaxsini o'zini qadriyat sifatida anglash orqali tahlil etilgan, shuning uchun qadriyat inson ular haqida qanday fikrga egaligiga qarab, moddiy bog'liq bo'lgan (Monten).

Mishel Monten «Tajribalar» («Опыты») asarida mohiyatiga ko'ra, inson tabiati tahlilini beradi va har qanday odam o'zida butun insoniyat tabiatini mujassam etadi. «Haqiqatan ham, o'zida o'zining tabiiy mohiyatini namoyon eta olishga loyqlik barkamollik belgisi va ilohiy sifattir. Biz o'z mohiyatimizda yashamasdan, kimdir bo'lishga harakat qilamiz va nimaga qobiliyatli ekanligimizni bilmagan holda, o'zimizning tabiiy chegaramizdan chiqamiz. YOg'och oyoqda turishning bizga keragi yo'q, chunki yog'och oyoqda tik turish uchun o'zimizning oyog'imizga suyanishimiz kerak bo'ladi. Va hatto eng baland martabalarga ham biz o'zimizning orqamiz bilan o'tiramiz.

Mening fikrimcha, umuminsoniy mezonlarga ko'ra tafakkur ruhiga tenglashadigan odamlargina eng ajoyib hayotda yashashadi».

Umuman olganda, Uyg'onish davrining yangiligi inson shaxsini qadriyat sifatida anglashda namoyon bo'ladi. Mazkur davrda qadriyat tushunchasi «umuminsoniy mezon» nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi (L.N.Stolovich).

XVII asr falsafasida inson shaxsi ko'rib chiqishda uning aqliga emas, fikrlash qobiliyatiga urg'u beriladi. Birinchi navbatda qadriyat sifatida quyidagilar qaraladi: Iroda, Erkinlik, individning ichki faolligi (B.Spinoza), insonning fikrlash faoliyati (B.Paskal), «manfaat» tushunchasining ikki jihati izohlanadi: shaxsiy va ijtimoiy (F.Bekon). Ob'ektiv va sub'ektiv qadriyatlar farqlanadi: yaxshilik va yomonlik, haqiqiy va xayoliy (T.Gobbs). «Qadriyat» tushunchasini «foydalilik» tushunchasi bilan bog'liqlikda ba'zi faylasuf olimlar iqtisodiy mazmun bilan to'ldiradilar (D.Lokk). Mazkur davrda individ abstrakt inson emas, mustaqil, faol

harakatlanuvchi sub'ekt, unda tabiatan in'om etilgan imkoniyatlarni amalga oshirishga qobiliyatli sifatida qaraladi.

Keyinchalik nafaqat falsafiy, balki pedagogik fikrlarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan insonning psixologik jarayonlari, uning shaxsiy sifatleri, ijodiy fikrlash Uyg'onish davri falsafasini o'rganish predmeti bo'ldi.

Xalq pedagogikasi – bebaho qadriyat. Agar insoniyat tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, u bir necha million yillik davrni o'zida aks ettiradi. Insoniyat rivojining dastlabki davrlarida – ibtidoiy jamoa tuzumi davridayoq tarbiya jamiyat rivojining asosi sifatida qabul qilingan. Ma'lumki, ibtidoiy kishilar mehnat faoliyati jarayonida o'z ehtiyojlarini qondirgan va bu jarayon yosh avlodda ham mehnat qilish, amaliy faoliyatni yo'lga qo'yish borasidagi nazariy bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishga zamin hozirlagan. Mehnat faoliyatini tashkil etish jarayoni dastlabki davrlarda butun ijtimoiy hayotni yo'lga qo'yish negizida amalga oshirilgan bo'lsa, keyinchalik tarbiya inson faoliyatining asosiy jihati, ijtimoiy ongning shakllantirishning muhim omiliga aylandi. Dastlabki urug'chilik jamiyatidan oldin ham inson yashash uchun kurashgan, mazkur davrda urug'ning barcha a'zolari jamoa bo'lib harakat qilganlar. Keyinroq kishilar mehnat faoliyatini jamoa a'zolarining yosh jihatlariga ko'ra qo'yidagicha tashkil etganlar:

- a) bolalar va o'smirlar;
- b) ijtimoiy hayot va mehnatda to'la ishtirok etuvchilar;
- v) keksalar.

YUqoridagilarda ma'lum bo'ladiki, eng qadimgi davrlardayoq otalar o'z o'g'illariga ov qilish, mehnat quroli yasash sirlarini o'rgatgan bo'lsalar, ayollar o'z qizlariga olovni saqlash, ovlab kelingan hayvonni boqish sirlarini tushuntirib borishgan. Bunday tushuntirishlar avloddan-avlodga o'tib borib, o'ziga xos hikmatli so'zlarga aylana borgan. Demak, xalq pedagogikasining asoschisi – bu ijodkor xalqdir.

«Bizning ajdodlarimiz, xalqimiz qadim-qadimdan o'troq yashagan, millatimizning iligi o'troq madaniyat sharoitida qotgan. Xalqimizning «iligi to'q, baquvvat» demoqchiman. YAna tilimizda «tagli-tugli», «palagi toza» degan iboralar ham bor. Bu bir joyda muqim yashagan, o'z turmush tarziga, axloq-odob mezonlariga, aqidalari va tafakkur tarziga ega bo'lgan xonadonlarga nisbatan aytiladi. Butun ommani, bir necha yuz minglab, millionlab aholini birlashtirgan aqidalarga, mezon va qoidalarga ega bo'lgan xalqni qanday izohlash va ta'riflash mumkin?! Ana shu hayotiy va ijtimoiy mantiqdan kelib chiqsak, ta'rif va izoh bitta bo'ladi – milliy borlig'imiz, madaniyatimiz ildizi, tomiri o'troq bo'lgan».

Prezident o'z fikrini davom ettirib, «Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, ma'naviyati orqali bilamiz, tarixining tag-tomirigacha nazar tashlaymiz», – deb yozadi. Demak, ana shu moddiy boylik va madaniyat yaratuvchi xalq qanchalik qadimiy bo'lsa, uning pedagogik tajribasi ham shunchalik qadimiydir, shuning uchun ham o'sha xalq yaratgan topishmoq, maqol, matal, qo'shiq, ertak va dostonlarda aks ettirib kelindi. Xalqimiz ma'naviyatining noyob durdonalari bo'lgan xalq pedagogikasining eng taraqqiyparvar va noyob fikr-mulohazalari o'z qimmatini hech qachon yo'qotmagan. Ana shu xalq

pedagogikasi tufayli kamolotga erishgan ajdodlarimiz uzoq asrlar davomida butun jahon madaniyatiga o'z hissalarini qo'shib kelgan.

Ikkinchidan, xalqimizning ko'p qirrali tarixiy va boy madaniyatining ajralmas qismi bo'lgan xalq pedagogikasini o'rganish orqali milliy tarbiya-mizning o'ziga xosliklarini o'rganish imkoniyati paydo bo'ladi. Chunki har bir xalqda umuminsoniy fazilatlar bilan birga, hech kimnikiga o'xshamagan alohida qadriyatlar mavjud bo'ladi. Bunday qadriyatlar o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi. Ular tarixan shaklanib, rivojlanib boradi. Aynan o'zbek xalqining yosh avlodni tarbiyalashdagi o'ziga xosliklari (bolani «siz»lab gapirish, kattalar gapirganda «xo'p» deyish va sh.k.) u tomonidan yaratilgan pedagogik g'oyalarda o'z ifodasini topgan.

Uchinchidan, xalq og'zaki ijodi manbalari asosida o'zbek xalqi pedagogikasini o'rganish – pedagogika fani tarixiy taraqqiyotining ob'ektiv qonuniyatlarini aniqlash, belgilash uchun g'oyat muhim ahamiyatga egadir.

Ilk yozma manbalarda qadriyatli munosabatning namoyon bo'lishi. Dastlabki davrlardan oq ulug'langan pedagogik qadriyatlar xalq og'zaki ijodini va xalqning ezgu maqsadlarini o'zida mujassam etgan yozma yodgorliklarda o'z aksini topgan.

XI asrda yashagan ulug' olim Mahmud Qoshg'ariy tomonidan yaratilgan «Devonu lug'otit turk» asari ilk yozma manbalardan biridir. Jumladan, xalq og'zaki ijodining muhim janrlaridan biri hisoblangan maqollar dastlab yozma holatda Mahmud Qoshg'ariyning «Devoni lug'otit turk»dagi maqollarda qo'shiqlardagi kabi do'stlik, o'zaro hamkorlik, mehnatga muhabbat, ilm olish va kasb-hunar egallashga nisbatan ehtiyoj va ishtiyoq, vatanparvarlik va qonqardoshlik tuyg'usiga ega bo'lish, tejamkorlikning ahamiyati va isrofgarchilikning oldini olish, adolat va adolatsizlik, yaxshilik va yomonlikning oqibatlarini, axloq-odob qoidalari, sihat-salomatlikni saqlashga oid o'gitlar o'z ifodasini topgan.

Buni «Devon»da keltirilgan bir qancha maqollar mazmunida ko'ramiz: «Odamning olasi ichida – yilqiniki tashqi(sirti)da» maqolida esa ayrim kishilarning yomon niyatlari, o'y-fikrlari, dilida boshqalarga nisbatan yuzaga kelgan xiyonatni yashirib, kishilarga zo'rma-zo'raki ravishda kulib qarashi, ularning hatti-harakatlarini maqtashi, o'zini go'yoki, ularning yutuqlaridan quvonadiganday ko'rsatishiga aytiladi. «Ho'kizning oyog'i bo'lguncha, buzoqning boshi bo'lgan yaxshiroq» maqolida mustaqillikni mutelik va tobelikdan, o'zgalar irodasiga bo'ysunishdan afzalligi, ayrim harakatlarni amalga oshirishda tashabbuskor, faol, ilg'or, tashkilotchi bo'lish maqsadga muvofiq ekanligiga urg'u beriladi. «Odobning boshi – til» maqolida esa xushxulqqa ega bo'lganlarga nisbatan qo'yiladigan talablardan biri – shirin so'zli, xushmuomalali bo'lish ekanligi ta'kidlanadi. SHirinso'z, xushmuomala kishi el orasida tezda izzat- ikrom topadi, yuqori martabalariga erishadi. SHu bois yoshlarni yoshlikdanoq shirin so'zli, xushmuomalali, bir so'z bilan aytganda insonparvar bo'lishga o'rgatish maqsadga muvofiqdir, deya ta'kidlanadi. Xalq orasida g'iybatchi kishilarga nisbatan «Ilon o'zining egriligini bilmay, tuyaning bo'ynini egri deydi» qabilidagi maqol qo'llanilgan.

Demak, maqollarda bilimlilik, kasb-hunarga ega bo'lish, axloqiylik, sadoqat, xushxulqlik, ezgulik, kamtarlik, jasorat, shirinsuxanlik, poklik, vafodorlik, do'stlik, mardlik, mehnatsevarlik kabi insonparvar xususiyatlar ulug'lanadi. Aksincha, bilimsizlik, nodonlik, manmanlik, nomardlik, vafosizlik, ikkiyuzlamachilik kabi xislatlar qoralanadi.

Qo'shiqlar qadimdan xalq orasida keng tarqalgan. Ular asosan kuyga solinib ijro etilgan. Qo'shiq aslida keng ma'noli tushuncha bo'lib, o'z ichiga bir qancha turlarni oladi. Ular orasida mehnat va marosim qo'shiqlari, hunarmandchilik, chorvachilik, dehqonchilik bilan bog'liq qo'shiqlar, mavsum qo'shiqlari, lirik qo'shiqlar va boshqalar bor.

Qo'shiqlarda alohida kishilarning shodlik va g'ami, his-hayajoni, tuyg'ulari, fikr-mulohazalari ifodalansa-da, ularda asosan, keng xalq ommasining orzu-umidlari, o'y-xayollari, ijtimoiy munosabatlari, urf-odatlari, dunyoqarashi mujassamlashgan.

Qo'shiq atamasi ham ilk marta Mahmud Qoshg'ariy tomonidan qayd etilgan bo'lib, muallif unga she'r, qasida deb izoh bergan.

Mahmud Qoshg'ariyning «Devoni lug'otit-turk» asaridan olingan quyidagi parchada qo'ni-qo'shnilarga yaxshilik qilish, ularning hurmatini joyiga qo'yish targ'ib etiladi:

Qo'ni-qo'shni qarindosh

Ko'rsin sendan yaxshilik

Ne-ne sovg'a qilishsa

YAxshirog'in qil tortiq.

YAna bir qo'shiqda inson faqat o'zini o'ylamasligi, o'zgalar manfaati uchun ham harakat qilishi lozimligi ta'kidlanadi:

Ko'rklik to'ning o'zingga,

Tortiq oshing o'zgaga.

Qo'noqqa kurgo'z izzat,

YOzsini sha'ning uzoqqa.

VII – VIII asrlarda qabr toshlariga turk-runiy yozuvida o'yib bitilgan «Urxun-Enasoy» bitiglarida ham bolalarni vatanparvar, xalqparvar, tadbirkor, uddaburon, oqil qilib tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, Qultegin bitigida turk xalqini uzoqni ko'ra olmaganligi natijasida Tabg'ach eliga qaram bo'lib qolganligi, kelgusi avlodlar bunday xatoliklarni takrorlamasliklari zarurligi quyidagicha uqtiriladi: «So'zimni tugal eshitgil, keyindagi inim, urug'im, xalqim..... bu so'zlarni yaxshilab eshit, diqqat bilan tingla.... Tabg'ach xalqining so'zi shirin, ipak kiyimi nafis...ekan. SHirin so'zi, ipak kiyimi bilan aldab, yiroq xalqni shu holda birlashtirar ekan... YAxshi dono kishini, yaxshi alp kishini yo'latmas ekan. Biror kishi adashsa, urug'i, xalqi, uyi, yopinchig'igacha qo'yimas ekan. SHirin so'ziga, nafis ipagiga aldanib, ey turk xalqi, o'lding».

Pedagog olim A.S.Kaldaybekovanning fikricha, bu bitigtoshlarda bolalarni baynalmilallik ruhida tarbiyalash masalasiga ham e'tibor qaratilgan. Bitigtoshlarda turk xalqining Tabg'ach xonligiga qarshi olib borgan urushlari ham ifoda etilgan. Biroq turk xonlari (To'nyuquq, Qultegin, Bilga hoqon, Eltarish hoqon) Tabg'ach xonlarining botirligi, siyosatdonligi, ishbilarmonligi, vatanparvar hamda

elsevarligini inkor etmaydi. Ayni shu jihatlarni turk xalqida mujassam bo'lishini chin dildan istaydi. SHu bilan birga Tabg'ach xonlarining boshqa xalqlar ozodligi, iqtisodiyoti, madaniy hayotiga xavf solayotgani oshkora ko'rsatib berilgan. Agar ular bu qusurlarni bartaraf etishsa, ular bilan har tomonlama aloqalarni yo'lga qo'yish foydali ekanligi ta'kidlanadi.

Bizga ma'lumki, ilmiy bilish, shuning barobarida pedagogik bilish faqatgina ijodkorliknigina emas, ijtimoiy ehtiyojlarni to'la qondirish maqsadini ham ro'yobga chiqaradi. Nazariy va amaliy bilish orasidagi «ko'prik» vazifasini aksiologik yoki qadriyat sifatidagi yondashuv bajaradi.

Umumiy aksiologiya uchun uning o'rganish ob'ekti sifatida aks etadigan xilma-xil qadriyatli taniflar xarakterlidir.

CHet el aksiologiyasida sub'ektivli yo'nalganlik (emotivizm, ekzistensializm, affektiv-iroda nazariyasi); sub'ektivistik yo'nalganlik (neokantchilik, neotomizm); empirik maktab (ijtimoiy-psixologik nazariya, lingvistik tahlil, neonaturalizm) kabi maktablarning ajralib chiqishi mazkur masalani yanada murakkablashtiradi.

CHet el falsafasida qadriyatlar tabiatini tahlil qilishga yondashuvlarni umumlashtirish asosida M.A. Kisel qadriyatning manbaiga asoslanib, ularni ehtiyojli, ideal turmush, oliy qadriyatli voqelik, intuitsiya qadriyatlari tarzida tasnif etadi.

Qadriyatli tasnifda qadriyatlarning rivojlanib borishi turli nuqtai nazardan ko'rib chiqiladi. Faqatgina umumiy aksiologiyadagi barcha murakkab qadriyatli tizimlar real ta'limiy muammolarni hal etish bilan bevosita o'zaro aloqadar, deb ta'kidlash to'g'ri bo'lmaydi. Bir paytning o'zida o'zaro aloqadorlik ham ma'lum bo'ladi va u ko'p jihatdan ta'lim falsafasiga asoslanadi.

«Ta'lim falsafasi» atamasi ham turlicha talqin etiladi. Britaniyada nashr etilgan ensiklopediyada ta'lim falsafasiga ta'lim mohiyati, uning rivojlanish qonuniyatlarini ochib berishga doir muammolar bilan shug'ullanuvchi bilim sohasi; ta'limning falsafiy nazariyasi sifatida ta'limning rivojlanish masalalarini ko'rib chiquvchi turli yo'nalishlar yig'indisi sifatida ta'rif beriladi. Ta'lim falsafasining alohida tadqiqot yo'nalishi sifatida ajralib chiqishi XX asrning 40-yillarida Kolumbiya universitetida falsafa va pedagogika nazariyasi sohasi mutaxassislarining ilmiy jamiyatining yaratilishi bilan bog'liqdir. Uning faoliyat maqsadi sifatida ta'limning falsafiy muammolarini tadqiq etish, ta'limiy dasturlarni falsafiy ekspertiza qilish, o'quv kurslarini ishlab chiqish va o'rta maxsus va universitetlar uchun kadrlar tayyorlash aks etadi.

Ta'lim falsafasi tarixi tushunchasi XX asrning 60-yillarida R.Piters tomonidan ta'lim asosi sifatidagi asosiy manbalar: Madaniyat, Jamiyat, Individga asoslanib, qabul qilindi.

Hozirgi vaqtda ta'lim falsafasi deganda, ta'limning qadriyatli-mohiyatli qismi, uning rivojlanish qonuniyatlari va vazifalarini ochib beradigan falsafiy bilimlar sohasi tushuniladi. U G'arbiy Evropa mamlakatlarida muhim o'rin egallaydi va ta'limiy qadriyatlarni umumiy qadriyatlar bilan taqqoslash asosida ta'limni asoslashga turlicha yondashuvni amalga oshiradigan qator yo'nalishlar(empirik-analitik, gumanitar, dialogli, ekzistensial-germenevtik)ni o'z ichiga qamrab oladi. Masalan, idealizm, ratsionalizm, konservatizm, diniy falsafa umumiy qadriyatlar

sifatida axloqiy va diniy qoidalar, ijtimoiylik, shaxsiy oliyanoblikni e'tirof etsa, ta'limda katta e'tibor o'quvchilarning fikrlashini rivojlantirishga qaratilishi kerakligini ta'kidlashadi. Madaniyat, geremenevtika, analitik falsafada madaniyat ob'ektlari umumiy qadriyat sifatida sanaladi. Ta'limiy qadriyatlar sifatida aql-zakovat, bilimdonlik ajratib ko'rsatiladi. Realizm, pozitivizm, empirizm qadriyatlar ijtimoiy va kasbiy mutanosiblik, fuqarolik ta'limiy qadriyatlari bilan bog'lanadi.

Pedagogik qadriyatlarni tasnif etishga turlicha yondashuvlar.
“**Pedagogik qadriyatlar** – bu pedagogik faoliyatning shunday o'ziga xosligiki, ular nafaqat pedagogik ehtiyojlarni qondirishga imkon beradi, balki uning ijtimoiy va kasbiy faolligini mo'ljalga olishga xizmat qiladi. Pedagogik qadriyatlar hayotda o'z-o'zidan tasdig'ini topmaydi. Ular jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy aloqalarga bog'liq”.

V.A.Slastyoninning fikriga ko'ra, “Pedagogik faoliyatga doir qadriyatlarning interiorizatsiyasi bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy madaniyatiga tamal toshini qo'yadi”.

O'qituvchining ongida mustahkamlangan pedagogik qadriyatlar uning shaxslararo muloqotida, ijodiy faoliyatida, bola shaxsining rivojlanishida, kasbiy hamkorlikda, ma'naviy qadriyatlar almashinuvidagi kasbiy yo'nalishlari tizimini hosil qiladi.

Olimlar tomonidan pedagogik qadriyatlarning ikki jihati alohida tadqiq etilgan:

- o'qituvchiga uning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishiga imkon beruvchi va ijtimoiy ahamiyatli insonparvar maqsadlarga erishishga qaratilgan uning ijtimoiy va kasbiy faolligida yo'l ko'rsatuvchi belgi bo'lib xizmat qiladigan o'ziga xos jihatlari;

- pedagogik faoliyatni tartibga soluvchi me'yorlar va ta'lim hamda pedagogik faoliyat sohasidagi vujudga keladigan ijtimoiy dunyoqarash orasida vosita va bog'lovchi bo'g'in bo'lib keluvchi bilish-faoliyat tizimi.

Pedagogik aksiologiyaga oid adabiyotlarda pedagogik qadriyatlarning xilma-xil tasniflari mavjuddir. Jumladan, Z.I.Ravkin pedagogik qadriyatlarni quyidagicha tasnif etadi:

1) ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar: ta'limning hamma uchun ochiqligi va bepulligi, millatidan qat'i nazar, barcha fuqarolarning bilim olishdagi teng huquqliligi, o'quvchilarni va ota-onalarning ta'lim muassasasini tanlash erkinligi;

2) intellektual qadriyatlar: bilishga ehtiyoj, bilishga qiziqish va faollik, o'quvchilarning ijodiy faoliyati, fikrning go'zalligi va so'z bilish faoliyati vositasi sifatida;

3) axloqiy qadriyatlar: o'quvchining burch va shaxsiy majburiyatlari, uning pedagogik jarayonning sub'ekti bo'lish huquqi, bilimlarni egallashdagi axloqiy rag'batlar va motivlar, vatanparvarlik va fuqarolik, mehnat va boshqa kishilarning mehnatini hurmat qilish;

4) kasbiy-pedagogik faoliyatga doir qadriyatlar: o'qituvchi-tarbiyachini mehnat qilishga chorlash, tanlagan kasbiga mas'uliyat bilan yondashuv, pedagogning mahorati, uning izlanishli-tadqiqotchilik, innovatsion faoliyati,

kommunikativ qobiliyati, o'quvchilar bilan muloqotdagi ijobiylik, pedagogik mahorat.

V.A.Slastenin esa, kasbiy yo'nalganlik tizimiga asoslangan holda, pedagogik qadriyatlarni quyidagicha tasnif etadi:

1) maqsadli qadriyatlar: shaxsiy Men va kasbiy Men yig'indisidagi bo'lg'usi o'qituvchining shaxsiy konsepsiyasi. Pedagog pedagogik faoliyat maqsadlarini amalga oshirish yo'llarini qidirar ekan, o'zini va o'zgalarni rivojlantirish yo'lidagi o'z kasbiy strategiyasini tanlab oladi. Binobarin, maqsadli qadriyatlar davlatning ta'lim siyosatini va pedagogika ilmining rivojlanish darajasini aks ettiradi. Bu qadriyatlar sub'ektlashgan holda pedagogik faoliyatning ahamiyatli omillariga aylanadi va vositali qadriyatlarga ta'sir ko'rsatadi. Ular nazariya, metodologiya, pedagogik texnologiyalarni egallash natijasida shakllanib, pedagogning kasbiy ta'limi asosini tashkil etadi. SHaxs uchun zaruriy qadriyatlar quyidagi maqsadli qadriyatlarni o'zida aks ettiradi: o'qituvchi mehnatining ijodiy va serqirralilik tavsifi, uning nufuzi va ahamiyatligi, jamiyat olidagi yuksak ma'suliyat, o'zini namoyon qilish, bolalarga mehr va boshqalar. Bunday qadriyatlar ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi shaxsining, talabalar jamoasi va pedagogik jamoaning rivojlanishi bilan bog'liq pedagogik faoliyatda o'z ifodasini topadi;

2) vositali qadriyatlar: pedagogik muloqot, texnika va texnologiya, monitoring, innovatika, intuitsiya tizimi. Vositali qadriyatlar maqsadli qadriyatlarga erishishda vosita bo'lib xizmat qiladi (mehnat natijalarining jamiyatda tan olinishi, shaxsning qiziqishlari va qobiliyatlarini pedagogik faoliyat tavsifiga muvofiqligi, kasbiy o'sish va b.);

3) munosabatli qadriyatlar: pedagogik jarayon ishtirokchilarining munosabati, kasbiy-pedagogik faoliyatga munosabat;

4) sifat qadriyatlari: shaxsning xulq-atvor, faoliyatga doir xilma-xil sifatlari.

5) bilishga oid qadriyatlar. O'qituvchilik kasbining bilishga doir qadriyatlari nazariy darajada o'quvchilarning o'qituvchilik kasbiga doir qadriyatlarni e'tirof etishi va qabul qilishi bilan bog'liq.

N.M.Egamberdieva esa, talabalarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish nuqtai nazaridan pedagogik qadriyatlarni ikkita katta guruhga tasnif etishni taklif etadi: ijtimoiy-pedagogik va shaxsiy-pedagogik qadriyatlar.

Ijtimoiy-pedagogik qadriyatlar turli ijtimoiy tizimlarda ish olib boruvchi va ijtimoiy ongda namoyon bo'luvchi qadriyatlarning tavsifi va mazmunini aks ettiradi. Bu ta'lim sohasidagi jamiyat faoliyatini tartibga soluvchi g'oyalar, tushunchalar, me'yorlar, qoidalar, an'analar majmuidir.

SHaxsiy-pedagogik qadriyatlar ijtimoiy-psixologik ta'lim sifatida yuzaga chiqib, ularda o'qituvchi shaxsining maqsadlari, motivlari, ideallari va boshqa dunyoqarashga oid xususiyatlari aks etadi. Bu xususiyatlar majmui uning qadriyatlar yo'nalishi tizimini tashkil etadi. Qadriyatlar yo'nalishi sifatidagi aksiologik "Men" nafaqat kognitiv(bilishga doir) tarkibiy qismlarni, balki insonning ichki yo'nalganligida muhim o'rin tutuvchi hissiy-irodaviy tarkibiy qismlarni ham o'z ichiga oladi. Unda ham ijtimoiy-pedagogik, ham pedagogik qadriyatlarning individual-shaxsiy tizimiga asos bo'lib xizmat qiluvchi kasbiy-jamoaviy qadriyatlar o'rin olgan.

Ta'limga qadriyatli yondashuvning dolzarbligini aniqlovchi omillar. Turli resurs manbalarida pedagogik aksiologiya XX asrning 80-yillaridan boshlab, bilimlarning mustaqil sohasiga aylangani, 90-yillardan boshlab, uning jadal shakllanishi va rivojlanishi sodir bo'lganligi ta'kidlanadi. Buning asosiy sababi jamiyat ehtiyojlardan kelib chiqqan holda, shaxsning ma'naviy imkoniyatlariga birdaniga talablarning o'sganligidir. Davriy nashrlarda ta'limning rivojlanishining aksiologiyaga asoslangan strategiyasi; qadriyatlarga tarbiya maqsadining asosi sifatida qarash; o'quvchilarning qadriyatga yo'nalganligini shakllantirishning amaliy tajribasini tahlil etish, ta'limni qadriyatli tashxis etishning vazifalarini shakllantirish kabi uning insonparvarlik mohiyatini aks ettirishi ko'zga tashlanadi (V.I. Ginetsinskiy, I.F. Isaev, N.D. Nikandrov, Z.I. Ravkin, N.S. Rozov, V.A.Slastenin, E.N.Shiyanov, SH.Mardonov, T.Toshlonov, YU.Ismoilova, B.Xodjaev va boshqalar).

Ta'limga qadriyatli yondashuvning dolzarbligi qator omillar bilan aniqlanadi.

Ularga jahon ta'lim tizimini aksiologizatsiyalash; zamonaviy ta'limning qadriyatli yo'nalishlarini aniqlash; avtoritar ta'lim paradigmasidan insonparvar ta'limga o'tish kabilar kiradi.

Bugun jahon ta'lim tizimini qadriyatga yo'nalgan faoliyatning istalgan sohasini boshqaruvi, tez o'zgaruvchan vaziyatlarda insonda faol ishtirok etish ko'nikmasini rivojlantirish murakkab kechmoqda. Buning asosiy sababi, mintaqada yoki jahonda sodir bo'layotgan inson faoliyatining salbiy natijalari, urushlar, diniy ekstremizm va terrorism, milliy biqqlik, buyuk shovinizm qaysi davlatda sodir bo'lishidan qat'iy nazar, butun er yuzidagi odamlarning salomatligiga, atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Insonni inson uchun qadriyatga aylanishi, uzluksiz ta'lim tizimini faol yo'lga qo'yilishi, individual rivojlanish jarayonida bolaning umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirishi, ta'limning tuzilishi va mazmunini tubdan o'zgartirish ta'lim tizimini aksiologizatsiyalashning muhim jihatlari o'zida aks ettiradi.

Jahon ta'lim sohasini aksiologizatsiyalashning o'ziga xos jihatlari. Jahon ta'lim tizimining zamonaviy yo'nalishlariga quyidagilar kiradi:

- jamiyatning tez o'zgaruvchan sharoitlariga odamlarni tayyorlash zarurligini aks ettiradigan jamiyat o'zgarishining yuqori sur'ati;
- madaniyatlararo o'zaro ta'sir etishning o'sishi sharoitida postindustrial, axborotlashgan jamiyatga o'tilishi;
- sarmoya va ishchi kuchining yuqori darajada safarbar etilishi, raqobatning o'sishi;
- fuqarolarning saylovlarda ongli tayyorgarlik darajasini oshirish zaruriyatini keltirib chiqaradigan siyosiy hayotda saylov imkoniyatlarining oshishi, jamiyatning demokratlashuvi;
- o'sib kelayotgan avlodda qadriyatli munosabatni shakllantirishni talab etadigan xalqaro muammolarning paydo bo'lishi va o'sishi.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimini modernizatsiyalashning qadriyatli yo‘nalishlari. O‘zbekistonda ham ta’lim islohotlarining qadriyatlari yo‘nalishlari qaror topib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida «Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir», deb belgilab qo‘yilgan. 42-moddasida esa, «har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanishi; davlat jamiyatning madaniy, ilmiy, texnikaviy rivojlanishiga g‘amxo‘rlik qilishi» ko‘rsatilgan.

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunining 4-moddasida bilim olish huquqi qadriyat sifatida quyidagicha ko‘rsatib qo‘yilgan: «Jinsi, tili, yoshi, irqiy, milliy mansubligi, e’tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, turar joyi, O‘zbekiston Respublikasi hududida qancha yashaganidan qat’i nazar, har kimga bilim olishda teng huquqlar kafolatlanadi».

Bilim olish huquqi:

- davlat va nodavlat ta’lim muassasalarini rivojlantirish;
- ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holda ta’lim olishni tashkil etish;
- ta’lim va kadrlar tayyorlash davlat dasturlari asosida bepul o‘qitish, shuningdek, ta’lim muassasalarida shartnoma asosida to‘lov evaziga kasb-hunar o‘rgatish;
- barcha ta’lim muassasalari bitiruvchilari keyingi bosqichdagi o‘quv yurtlariga kirishda teng huquqlarga ega bo‘lishi;
- oilada yoki o‘zi mustaqil ravishda bilim olgan fuqarolarga akreditatsiyadan o‘tgan ta’lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o‘tish huquqini berish orqali ta’minlanadi.

Boshqa davlatlarning fuqarolari O‘zbekiston Respublikasida xalqaro shartnomalarga muvofiq bilim olish huquqiga ega.

Respublikada istiqomat qilayotgan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar bilim olishda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega»³.

Bundan tashqari, mazkur hujjatning 3-moddasida ko‘rsatib berilgan ta’lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari ham o‘zida muhim aksiologik yondashuvni aks ettiradi.

birinchidan, ta’lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;

ikkinchidan, ta’limning uzluksizligi va izchilligi;

uchinchidan, umumiy o‘rta, shuningdek, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining majburiyligi;

³ Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Қонуни. / Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Т.: Шарқ, 1997, 21-бет.

to'rtinchidan, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi;
beshinchidan, ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
oltinchidan, davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
ettinchidan, ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashgan yondashuv;
sakkizinchidan, bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;
to'qqizinchidan, ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

1997 yilda qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning maqsadining o'ziyoq, uning qadriyatli yondashuvga asoslanganligidan darak beradi: «Dasturning maqsadi – ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir».

Ta'limiy qadriyatlar yuzasidan tadqiqotlar olib borgan olim SH.Mardonov «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da quyidagi ijtimoiy va shaxsiy xususiyatga ega ta'limiy qadriyatlarning mohiyati ochib berilganligini ta'kidlab o'tadi:

«Birinchi, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'limning oliy qadriyati sifatida shaxs e'tirof etiladi. Mazkur qadriyat Milliy dasturning uzluksiz ta'lim, uning insonparvarlik va ijtimoiylashishga yo'nalishi ko'rsatmalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlashi kerak.

Ikkinchidan, pedagogik jihatdan to'g'ri va samarali tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayoni talabada mustaqil ta'lim olish, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini rivojlantirish layoqatlarini shakllantiradi. Bu jarayon bizning fikrimizcha, yangi ta'limiy qadriyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi....».

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da axborot texnologiyalari zamonaviy ta'limning muhim qadriyati sifatida e'tirof etilgan. Bujajak kuni uzaytirilgan guruh tarbiyalanuvchilariga axborot texnologiyalari bilan ishlashga oid bilimlarni berish, ulardan foydalanishga oid ko'nikma va malakalar tavsiya etiladi. SH.Mardonovning fikricha, ular quyidagi o'quv manbalari asosida tashkil etiladi: lug'at, ensiklopediya, mutafakkirlarning asarlari, xalq pedagogikasi g'oyalari, maxsus teleko'rsatuv, radioeshittirishlar hamda kompyuter ma'lumotlari⁴.

Bo'lajak kuni uzaytirilgan guruh tarbiyachilari axborot texnologiyalari xizmatidan foydalanishga oid bilimlar quyidagi metodikalar asosida beriladi:

- falsafa, psixologiya, pedagogika, etika, estetikaga oid lug'atlar hamda ensiklopediyalar bilan ishlash; psixologik-pedagogik tushunchalar-ning mohiyatini yorituvchi ilmiy, ilmiy-metodik va ommabop adabiyotlardan foydalanish;

- muqobil tushuncha va ifodalarni anglash (chunonchi, shaxs va uning rivojlanishi; kasbiy-pedagogik munosabatlar mazmunini ochib berish)ga yo'naltirilgan ta'limiy mashg'ulotlarni tashkil etish.

⁴ Мардонов Ш. Узлуксиз таълимда – таълимий қадрият. / «Узлуксиз таълим» журналі, 2005 йил, 3-сон. – 38 бет.

Eng muhim tushunchalarni aniqlash yoʻlida quyidagi harakatlarni tashkil etish maqsadga muvofiq:

- atamalar, tushunchalar, mashhur iboralar hamda shaxsiy mulohazalar boʻyicha pedagogik maʼlumotnoma, lugʻatlar tuzib borish;
- xalq pedagogikasini oʻrganish, xalq ogʻzaki ijodi namunalari asosida didaktik qarashlardan iborat majmuani yaratish;
- psixologiya, pedagogika, maʼnaviyat, milliy gʻoya va mafkura targʻibotiga bagʻishlangan telekoʻrsatuv, radioeshittirishlar bilan tanishtirish, telekonferensiyalarda ishtirok etish;
- zarur kompyuter maʼlumotlarini toʻplash va ulardan foydalanish.

Koʻrinib turibdiki, pedagogik aksiologiyaning rivojlanishida jahon va respublikamiz taʼlimi tizimida oʻziga xos omillar mavjud boʻlib, taʼlimiy qadriyatlarning ijtimoiy, madaniy va tarixiy oʻzgaruvchanlik tamoyilini oʻzida aks ettiradi.

Oʻquvchi tomonidan oʻzlashtirilgan oʻrganishning amaliy jihatlari (shakl, metod va vositalari)ning darajasi bilan ijtimoiy-tarixiy bilish (oʻrganishning oʻquvchi egallab olishi kerak boʻlgan shakl, metod va vositalari) darajasi oʻrtasidagi qarama-qarshilik. Bu qarama-qarshilikni hal etish oʻquvchining intellektual rivojlanishi surʼati va darajasiga bogʻliq. Bir xil mazmun va hajmdagi oʻquv materialni aqliy rivojlanishning turli koʻrsatkichlariga namoyon etishi mumkin.

Oʻquvchining mavjud rivojlanish darajasi bilan ijtimoiy buyurtmada koʻzda tutiluvchi rivojlanish darajasi oʻrtasidagi qarama-qarshilik. Agarda ijtimoiy talab bolaning idrok etish imkoniyatidan yuqori boʻlsa, unda jiddiy qiyinchilik yuzaga keladi.

SHaxsga taʼlimning maqsadi sifatida yangicha qarash: bola maktabda – toʻla huquqli shaxs, pedagogik jarayonda subʼekt; shaxsning rivojlanishi – taʼlim tizimining maqsadi; har bir erkin, oʻz fikrini mustaqil ifodalovchi, barkamol shaxsni tarbiyalash taʼlim maqsadining asosi kabi gʻoyalarlarni aks ettiradi.

Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish bolalarga nisbatan muhabbatli boʻlish, ularning taqdiri bilan qiziqish; bolaga oʻz kuchi va iqtidoriga ishonirish; pedagogik munosabatlar jarayonida u bilan hamkorlikka erishish, oʻqituvchi va oʻquvchining huquq jihatidan tengligi; bolaning erkin tanlash huquqi; xato qilish huquqi; oʻz shaxsiy nuqtai nazariga ega boʻlish kabi holatlarni ifodalaydi. Aksincha, toʻgʻridan-toʻgʻri majburlash inkor etiladi.

Individual yondoshishning yangi talqini. Uning mazmuni oʻquv fanini oʻquvchiga emas, balki bolani oʻquv faniga yoʻnaltirishdan iborat. Individual yondashish quyidagilarni oʻz ichiga oladi: materialni oʻrtacha oʻzlashtiruvchi oʻquvchilarga moʻljallashdan chetlanish, shaxsning ijobiy sifatlarini koʻra bilish, shaxsni psixologik-pedagogik diagnostika qilish.

SHaxsning ijobiy «Men-konsepsiyasi»ni shakllantirish. Men-konsepsiyasi – bu shaxsning oʻzi haqidagi tasavvurlari asosida shaxsiy hulqini shakllantiruvchi tizim boʻlib, ijobiy Men-konsepsiyasi (Men oʻzimga yoqaman, Men har ishga

qodirman, Men hamma narsani bilaman) shaxsni muvaffaqiyatlarga rag'batlantirib, shaxsning ijobiy namoyon bo'lishiga yordam beradi. Salbiy Men-konsepsiyasi (Men o'zimga yoqmayman, Men hech narsani bajara olmayman, Men hech kimga kerak emasman) uning turli faoliyat yo'nalishlarida muvaffaqiyatga erishishiga halaqit beradi, o'qish natijalarini yomonlashtiradi, shaxsda salbiy sifatlarning shakllanishiga olib keladi. O'qituvchining vazifasi har bir o'quvchi timsolida komil shaxsni ko'rish, uni tushunish, qabul qilish va unga ishonishdan iborat («Hamma bolalar iste'dodli» tarzida).

“Nimaga?” va “qanday ta'lim?” masalasini hal etishga yangicha yondashish. Uning mohiyati ta'lim mazmunini shaxs rivojlanishining vositasi sifatida tushunishdan iborat.

Zamonaviy maktabda tarbiyalash konsepsiyasi. Hamkorlik pedagogikasi quyidagi muhim g'oyalarni aks ettiradi: bilimlar maktabini tarbiya maktabiga aylantirish, o'quvchi shaxsini yaxlit tarbiya tizimining markaziga qo'yish, tarbiyaning insonparvarlik xususiyatiga egaligi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarning shakllanishi, bolaning ijodiy qobiliyati hamda uning individualligini rivojlantirish, individual va jamoaviy tarbiyani uyg'unlikda olib borish.

Aksiologik ong va qadriyatli dunyoqarash

«Ong», «munosabat», «xulq-atvor» kategoriyalarini psixologiya va falsafa o'rganadi. Ijtimoiy ong, ijtimoiy xulq-atvorni shakllantirish metodlarini esa pedagogika aniqlab beradi.

Falsafada ong odatiy usullar bilan tushuntirish va tadqiq etish mumkin bo'lmagan muhim ob'ekt sifatida qaraladi. Ong biologik substansiyani aks ettirmaydi; u insonga hayotiy faoliyatni jismu joni doirasida amalga oshirishga imkon beradi; bevosita aloqasiz xilma-xil faoliyat turlariga kirishish, odamlar, madaniy qadriyatlar bilan o'zaro harakatida yuzaga chiqadi. YA'ni, ong tufayli inson nafaqat aniq, balki mavhum muhitda ham yashay oladi.

Keng ma'noda «ong» inson hayotining muammosi va ijtimoiy jarayonlarning muammoliligini aks ettirish usullari sifatida izohlanadi.

Aniqroq qilib aytganda esa, ong deganda faqat insonga xos ob'ektiv borliqni aks ettirishning oliy shakli; uning dunyoga va o'z-o'ziga munosabat usuli; insonning ob'ektiv dunyo va shaxsiy hayoti mazmunini anglashida faol ishtirok etuvchi psixik jarayonlar birligi tushuniladi.

Inson falsafada ong tashuvchisi sifatida qaraladi. Inson hayotining maqsadi shaxsiy ongni yaratish, ya'ni o'z dunyosini anglashni aks ettiradi. Ong o'zida yuksak qadriyatni aks ettiradi. «Ong» tushunchasi (lotinchadan tarjima qilingandi conscire – bilish, xabardor bo'lish degani) ongsiz va ong osti holatdan farqli ravishda, o'zida ruhning o'rnini anglash uchun qo'llaniladi.

Falsafada ijtimoiy ong va individ ongi farqlanadi. Ijtimoiy ong deganda, uning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy hayotini aks ettiruvchi jamiyat rivojining ma'naviy natijasi tushuniladi. Individ ongi esa, o'zida uning ichki ma'naviy dunyosini aks ettiradi. Bundan tashqari, u individning o'zidagi ijtimoiy aloqalarni ham qayd etadi (soznanie) – hamkorlikdagi bilish).

Qadriyatli ong – axloqiy-ma'naviy tarzda o'z hayotiy faoliyati sohasi sub'ektlarini aniqlashga imkon beruvchi ob'ektiv borliqni aks ettirish shakli; ma'naviy qadriyatlar dunyosi sifatida borliqni aks ettirish asosida insonda dunyoni va o'zining shaxsiy dunyosini anglashida faol ishtirok etuvchi psixik jarayonlar birligi.

Qadriyatli yondashuv qiyosiy jihatdan avtonom(alohida)dir, sababi qadriyatlar haqidagi tasavvur dunyoqarashlarga tayanadi. Biroq, shakllangandan so'ng, ular o'z ta'sirini ko'rsatadi: qiziqish, ehtiyoj, faoliyat maqsadi, shaxs hayotiy faoliyati va ijtimoiy tuzilmalarning har tomonlama rivojlanishi. Ushbu mexanizm jamiyat hayoti va ta'limning ijtimoiy fenomen sifatida insonparvarlashishini shart qilib qo'yadi. Qadriyatli yondashuvda faqatgina shaxsning tajribasigagina emas, balki birinchi navbatda, odamzot tomonidan to'plangan tarixiy tajribalarga tayaniladi. Bu esa, ma'lum bir me'yor va mezonlar tizimi bo'lib, har bir shaxs foydalanishi mumkin bo'lgan madaniy faoliyat chegaralarini belgilab beradi.

Qadriyatli yondashuvlar ahloqiy ideallarda o'z aksini topadi, bular esa shaxs faoliyatida maqsadli ravishda oliy ko'rinish hosil qiladi. Ideallar o'zida belgilangan maqsadlarni namoyish etib, bu dunyoqarashlar tizimining oliy qadriyatidir. Ular ko'ppog'onali haqiqatni ideallashtirish jarayonini nihoyasiga etkazadi.

Qadriyatli yondashuvlarni ahloqiy ideallar sifatida tushunish ijtimoiylik va shaxsiylik o'rtasidagi ziddiyatni kuchaytiradi. YUzaga kelgan ziddiyatda o'z navbatida, biri boshqasining o'rniga qurbon bo'ladi. Biroq insonparvar kishi ahloqiy ideal talablari asosida ishni amalga oshiradi. Ahloqiy ideallar, o'z navbatida, shaxs rivojlanish darajasini yutuqlarini shartlaydiki, bu esa aynan insonparvar kishining o'zligiga to'g'ri keladi. Ular insonparvarlik qadriyatlarining birligini o'zida aks ettiradi, aynan jamiyat rivojlanishi ehtiyojining rivojlanayotgan shaxs ehtiyojlariga to'g'ri kelishidadir. Ularda shaxsning va jamiyatning ilg'or qiziqishlari birligi uyg'un ravishda namoyon bo'ladi, sababi ular birgalikda insonparvarlik dunyoqarashining ijtimoiy funksiyasini namoyon etishadi.

Ahloqiy ideallar butun umrga aniq bir etalon sifatida berib qo'yilmagan. Ular rivojlanadi, namuna sifatida takomillashadi, shaxs rivojlanishi istiqbollarini aniqlaydi. Rivojlanish insonparvar ahloqiy ideallar sifatida xarakterlanib namoyon bo'ladi, shuning uchun ham ular shaxs takomillashishi motivi sifatida namoyon bo'lishadi. Ideallarni tarixiy davr va avlod bog'lab turadi, eng yaxshi insonparvarlik an'analarini vorisiylik bilan egallab olinadi va birinchi navbatda bu ta'lim orqali amalga oshadi.

Ahloqiy ideallar shaxs motivatsion-qadriyatli munosabatining oliy mezoni sifatida namoyon bo'ladi. U shaxsni jamiyat oldidagi burchi, ma'suliyatini anglab etishi bilan tavsiflanadi. SHaxs munosabati insonning atrof-muhitdagi narsa-hodisa va boshqa insonlar ob'ektiv aloqasiga yo'naltiradi va shaxsning sub'ektiv

pozitsiyasini u yoki bu sub'ektga nisbatan nisbiy, shu bilan birga uning ahamiyatligini baholaydi. SHu ma'noda "munosabat" bir vaqtning o'zida ikki xolatda namoyon bo'ladi: protsessual tavsif sifatida (baholash aktini qo'shadi) va barqaror shaxs ta'limi, bu esa shaxsni insonparvarlik qadriyatlarini (qadriyatli yondashuv) tashuvchisi sifatida namoyon qiladi. SHaxs bu holda borliq haqiqati bilan aloqador faol faoliyat ko'rsatuvchi sifatida namoyon bo'ladi, u tanlash imkoniyatiga ega bo'lgan va uning asosida o'zining rivojlanadigan faoliyati tabiatini yo'naltiruvchisidir. Munosabatlar muhit va shaxsning o'zaro aloqasi orqali amalga oshiriladi va mazmun jihatdan shaxs yo'nalganligini aniqlaydi, sub'ektivlikning asosiy fenomeni (qarashlar, motiv, ehtiyoj, baholash, hissiyot, ko'nikish, qadriyatli munosabat)ni o'zaro bog'laydi va muvofiqlashtiradi.

Biroq, shaxs munosabatlarida uning faqatgina sub'ektivligi emas, balki ob'ektiv berilgan mazmun xam aks etadi, sababi unda ob'ektiv maqsadlar taqdim etiladi. SHaxs munosabatlarining ob'ektiv lahzalari sifatida uning ijtimoiy mavqei yuzaga chiqadi, u esa o'zida aloqalarning majmuaviyligini namoyon etadi, bular esa shaxslararo munosabatlarning referent tizimida va ijtimoiy ahamiyatli faoliyatda yuzaga keladi. SHaxs munosabati mazmuni motivlarning ob'ekti va predmeti (qadriyatlari) bo'la oladi, ular esa uning ongida o'ziga xos ijtimoiy mavqeda namoyon bo'ladi.

Tarbiyaviy qadriyatlar to'rt asosiy o'zaro uyg'un manbaiga ega:

- 1) genetik, psixosomatik, individual-shaxsiy;
- 2) tabiiy;
- 3) sotsiumga doir;
- 4) ijtimoiy-kosmik.

Quyida mazkur tarbiyaviy qadriyat manbalariga alohida-alohida to'xtalib o'tamiz:

1. Genetik, psixosomatik, individual-shaxsiy tarbiyaviy qadriyat manbalari. Genetik tarbiyaviy qadriyat manbalariga instinkt, psixik jarayonlar, individning energetik rusurslari kabi tabiiy-genetik fenomenlar kiradi. Aynan instinkt asosida shaxs xulqida iroda, sog'lom turmush tarzi, ehtiyotkorlik kabi tarbiyaviy qadriyatlar shakllanadi. Muhim ahamiyatga ega organizmning sog'lomligi, uning barcha intellektual va jismoniy mohiyatga ega kuchlarni rivojlantirishga potensial imkoniyati tarbiyaviy qadriyati psixosomatik jarayonlar natijasida paydo bo'ladi. Psixosomatik jarayonlar o'z navbatida individning jismoniy sog'lomligi, erki, irodasi, maqsadga yo'nalganligi, mehnatga ishtiyoqi, o'ziga ishonch kabi individual-shaxsiy sifatlari haqida gapirishga imkon beradi. Barcha mazkur energetik-psixosomatik hodisalar mustiqillik, o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini takomillashtirish, o'z-o'zini namoyon etish, ijtimoiy faollik kabi yuksak amaliy faoliyat bilan bog'liq qadriyatlarni yuzaga keltiradi.

2. Tarbiyaviy qadriyatlarning yana bir asosiy manbai – bu tabiat dunyosidir. Inson tabiatning ajralmas qismi va uning tabiat bilan o'zaro munosabati ko'p jihatdan har bir individning insoniyligi, yaxlitligini belgilab beradi. Tabiat bilan me'yoriy o'zaro harakat insonda qator tarbiyaviy qadriyatli

munosabatni yuzaga keltiradi. Eng avvalo, tabiat inson uchun tarbiyaviy, jismoniy-sog'lomlashtiruvchi va ma'naviy qadriyat sifatida aks etadi. Tabiatdagi har bir narsa-hodisa individni tarbiyalaydi.

Tarbiyaviy qadriyatlarning tabiiy manbasi shaxsda tabiat, inson va jamiyatga nisbatan muhim qadriyatli munosabatni shakllantiradi. Tabiat insonda moddiy borliq, uning paydo bo'lishi, moddiy borliq shakl va qonunlari birligi haqidagi falsafiy dunyoqarashni hosil qiladi. Insonda tabiatga tarbiyaviy-qadriyatli, ilmiy-bilishga doir munosabatni rivojlantirish unda ilmiy, bilim, ko'nikma va malakalarni egallash; real moddiy hayot harakat qonunlarini bilish; moddiy hayot mohiyatini falsafiy jihatdan tushunib etish; tabiat qonunlari bilan bog'liqlikda tabiiy boyliklarni o'zlashtirishdagi amaliy harakatga intilishni rag'batlaydi.

Bundan tashqari tabiat tarbiyaviy qadriyat sifatida ob'ektiv go'zallik hodisasidir. Tabiat shaxsda estetiklikni, badiiy-estetik ongini; dunyo go'zalligini idrok etish va yaratish qobiliyatini shakllantiradi.

3. Tarbiyaviy qadriyatlar manbai sifatida sotsium ham alohida ahamiyat kasb etadi. SHuni alohida ta'kidlab o'tish zarurki, inson nafaqat tarbiyaviy qadriyatlarni yaratadi, balki uning o'zi ham mohiyatiga ko'ra tabiiy va muhim tarbiyaviy qadriyatdir. Katta avlod vakillari, ayniqsa, ota-onalar va pedagoglar, davlat va jamoat arboblari, fan va san'at namoyondalari o'zlarida tarbiyalanuvchilarga yorqin va kuchli ta'sir etuvchi shaxs fazilatlarini va xususiyatlarini, uning faoliyati va xulq-atvori namunasi aks ettiradi. Har qanday ma'naviy etuk, keng tafakkurli, ijodkor, yaratuvchan, mas'uliyatli inson o'zida ma'naviy ustoz maqomini ifoda etadi.

4. Nihoyat, yana bir muhim tarbiyaviy qadriyat sifatida Kosmos: insonning u haqidagi o'y-fikrlari, tasavvurlari, farazlari, afsonalari aks etadi. CHunki Kosmos insonga kosmik fazoga xayolan intilishni, uni o'zlashtirish ishtiyoqini, inson va insoniyatning abadiy mavjudligi haqidagi ta'limotni, astrofizik va astronomik apparatlarni loyihalashni taqdim etdi. Eng asosiysi, Kosmos insonga hayot mazmunini anglab etishga katta ta'sir o'tkazdi.

YUqorida bayon etilgan manbalar tahlilidan ko'rinadiki, tarbiyaviy qadriyatlar ijtimoiy hayot va inson ongida xilma-xil muddatlarda mavjud bo'lishi; mazkur qadriyatlarning barcha jamiyatlar uchun bir xil ahamiyatga ega bo'lmasligi; tarbiyaviy tizimlarda mavjud bo'la olishi va pedagogik samaradorlikni belgilashga xizmat qiladi. Ana shu bilan bog'liqlikda tarbiyaviy qadriyatlar absolyut – shu jumladan, genetik manbadan yuzaga keluvchi umuminsoniy qadriyatlar; vaqt bilan bog'liq (vaqtinchalik) – aniq-tarixiy; barqaror – mental, etnik; individual-shaxsiy kabi turlarga bo'linadi.

Absolyut umuminsoniy qadriyatlarga quyidagilar kiradi:

- diniy-ma'naviy;
- barcha mohiyat-e'tiborga molik kuch va individual qobiliyatlarni rivojlantirishga imkon beruvchi;
- ichki axloqiy erkinlik, burch va majburiyatli ongini tarkib toptirishga yordam beruvchi;
- vijdon, sevgi, ishonch, burch, ziyolilik kabi ma'naviy poydevorga ega axloqiy individuallik va jamoaviylikni shakllantiruvchi;

- intellektual mulk va jismoniy mehnatga doir qobiliyatni rivojlantiruvchi;
- dunyoni axloqiy, estetik va ekologik idrok etish va anglashga imkon beruvchi.

Aniq tarixiy shart-sharoit va vaziyat bilan bog'liqlikda mavjud bo'luvchi vaqt bilan bog'liq tarbiyaviy qadriyatlarga quyidagilar kiradi:

- mafkuraviy va siyosiy qarashlar;
- huquqiy va axloqiy ong va me'yor tizimi;
- fuqarolik ongi, xulq-atvori va fazilati darajasi;
- hayot va amaliy yo'nalganlik istiqboli;
- moda, etiketga yo'nalganlik;
- kasbiy yo'nalishlar.

Barqaror mental-etnik tarbiyaviy qadriyatlarga quyidagilar kiradi:

- yaxlit milliy tarixiy-tajriba, ishlab chiqarishdagi o'ziga xosliklar, milliy madaniyat, geografik shart-sharoitlar, xalqaro vaziyat asosida yuzaga keluvchi milliy xarakter xususiyatlari;
- an'analar, urf-odatlar, xalq og'zaki ijodi, xalq amaliy san'ati namunalari, obidalar, yodgorliklar;
- ta'limiy an'analar (ta'lim mazmuni, shakl, metod va vositalari);
- oilaviy an'analar va munosabatlardagi o'ziga xosliklar;
- xalq hunarmandchiligi;
- milliy badiiy tasviriy san'at, musiqa, teatr, kinomatografiya, poetik ijod;
- diniy qarash va e'tiqoddagi o'ziga xoslik.

Absolyut ijtimoiy ahamiyatga ega individual-shaxsiy qadriyatlarga esa, quyidagilar kiradi:

- iroda erkinligi;
- mustaqil fikrlash, xatti-harakatlardagi mustaqillik;
- qonunlarga rioya etish va qonunlarni takomillashtirishga qobiliyatlilik;
- adolatparavarlik;
- ziyraklik;
- g'amxo'rlik;
- go'zallik va ezgulikka ishonch;
- intizomlilik, o'z-o'zini takomillashtirish, o'z-o'zini boshqarish;
- o'zligini saqlab qolish, ichki insoniy borlig'ini anglash

Qadriyatli mazmunga ega ta'limda shaxsning xulq-atvori mo'ljalga olinadi, ular esa uning insonparvarlikka yo'nalganligini aniqlaydi va qadriyatli baholash asosi sifatida namoyon bo'ladi. Dunyoqarash shaxs qadriyatli munosabatining konseptual interpretatsiyasi konteksti sifatida maydonga chiqadi, imperativ hulq-atvor – me'yor sifatida, qadriyatli munosabat – u yoki bu tizimga invariant sifatida namoyon bo'ladi. Aynan mana shunday ko'rinishda dunyoni bilish aksi va qadriyatli munosabat ma'naviy boshqarilishi ham yo'naltiriladi hamda mazmunan shaxs faoliyati va hulq-atvorini tashkillashtiradi.

SHuning uchun tarbiya ijtimoiy-tashkillashtirilgan umuminsoniy qadriyatlar interiorizatsiyasi jarayoni sifatida ko'rilishi mumkin. Hayotda esa qadriyat shaxsni faol faoliyatga, o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini rivojlantirishga uyg'otishi uchun, insonning ongli ravishda tushunib etishi xali kamdir. Qadriyat faoliyat

motivini uyg‘otuvchi kuch sifatida qachonki, shaxs tomonidan interiorizatsiyalansa, ichki mavjudlikni zarur lahzalarini taqdim etsa, inson o‘z faoliyati maqsadini aniq shakllantira olsa, uning insonparvarlik ma‘nosini ko‘ra olsa, maqsadlarni amalga oshirishning samarali vositalarini topsa, to‘g‘ri va o‘z vaqtidagi nazorat, o‘z xatti-harakatini tuzata olsa va baholay olgandagina, aniq namoyon bo‘ladi.

U yoki bu qadriyat qachonki tashkillashtirish, ob‘ekt tanlash va sharoit yaratish, maqsadli faoliyat amalga oshirilsa va u esa shaxs tomonidan baholash va o‘zlashtirish zaruriyatini uyg‘otsagina, shaxs ehtiyoj ob‘ektiga aylanadi. Demak, ma‘naviy qadriyatlar qachonki, tarbiya ularning interiorizatsiyasi jarayoni sifatida tashkillashtirilsa, inson ehtiyoji ob‘ektiga aylanadi.

Interiorizatsiya umuminsoniy qadriyatlarning shaxs oliy psixik funksiyasiga aylanishiga olib keladi. SHaxs rivojlanishi madaniyatining istalgan funksiyasi ham interpsixik va interapsixik ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. SHu bilan birga interiorizatsiya eksteriorizatsiya bilan birga amalga oshiriladi – muhitni yangi ob‘ektlarni yaratish yo‘li bilan ijodiy o‘zgartirishdir. Oxirgisi yordamida ehtiyojlarni yaratish amalga oshiriladi, u esa shaxs qadriyatli munosabati motivatsiyasi asosini tashkil qiladi.

Interiorizatsiyaning psixologik mexanizmi shaxs ma‘naviy ehtiyojlari dinamikasini tushunishga imkon beradi. Ma‘lum bir sharoitda shaxs tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat, yangi ob‘ektlarni yaratadi, ular esa yangi ehtiyojlarni keltirib chiqaradi. Bu chizmada quyidagicha ko‘rinishga egadir, 1,2,3,4 va h.k.zo raqamlarda ma‘lum bir omillar (shart-sharoit, tamoyil, mazmun, metodlar)ni tashkiliy faoliyati taqdim etilgan. Masalan, uni tashkil etishning individual-ijodiy yondashuv tamoyili. Ob‘ekt sifatida (O1) g‘oyalar bo‘lishi, san‘at asarlari, faoliyatni amalga oshirish usul va metodlari. Sub‘ekt va ob‘ekt o‘rtasidagi aloqa esa, ikkitomonlama tavsifga ega: interiorizatsiya va eksteriorizatsiya. U sub‘ektda ehtiyojni (E 1) tug‘diradi, u esa o‘z navbatida sub‘ektzni yangi ob‘ektga (O 2) yo‘naltiradi, yangi ehtiyoj kelib chiqadi (E 2). Bu esa cheksiz ravishda davom etadi.

Agar “o‘qituvchi-talaba” pedagogik tizimiga tarbiyachining faoliyatini boshqarish uchun ma‘lum bir omillarni olib kirsak, u ma‘naviy ehtiyojlarni shakllanishining kengaygan sharoitlarida mavjud bo‘ladi. Talaba kelajakdagi faoliyatini o‘zining ichki xatti-harakatini joy-joyiga qo‘yib, uni ijtimoiy talablarga mos ravishda bashorat qiladi va ichki holatiga transformatsiyalaydi. Tanlab olingan ob‘ekt (O) ehtiyojlar (E)ga aylanadi, ya‘ni interiorizatsiya mexanizmi ishga tushadi.

Umuminsoniy qadriyatlarni shaxs tomonidan interiorizatsiyalanishi, aynan talabalar tomonidan baholash faoliyatini amalga oshirish jarayonida unga jamiyat etalonlari va belgilangan vazifaga muvofiq yangi faoliyatni loyihalashga yordam beradi. Faoliyatning yangi ob‘ekti (O 1) yangi ehtiyojga (E 2)ga aylanadi – eksteriorizatsiya amalga oshadi, ya‘ni ro‘y beradi. Ushbu jarayonning o‘ziga xos xususiyati va tavsifi, bu erdagi o‘ziga xos faoliyat shaklida inkorni inkor qonuni ko‘zga tashlanadi: ya‘ni bir ehtiyoj ikkinchisini inkor etadi.

U yoki bu ko‘rinishdagi faoliyatni baholash va egallashda aynan ehtiyojlarni qondirish bilan bog‘liq xatti-harakat, yangi ob‘ektlarni yaratadi, u esa yangi, sifat jihatidan ancha murakkab ehtiyojlarni keltirib chiqaradi va alohida motivatsion-qadriyatli munosabat darajasini tavsiflaydi.

SHaxs tomonidan interiorizatsiya va qabul qilish, u tomonidan umuminsoniy qadriyatlarni hamda shaxsiy o‘zining qadriyatli munosabatini “ichki reja” sifatida ishlab chiqish faqatgina anglash (kognitiv) bosqichida amalga oshirilmaydi. Ushbu jarayonda hissiyotlar muhim rol o‘ynaydi. Interiorizatsiya jarayonining hissiyotga boy tabiati ko‘pgina tadqiqotlarda o‘z isbotini topgan. Ularda ko‘rsatilishicha, ijtimoiy qadriyatlar faqatgina ong bilan, oqilona fikrlash bilan emas, balki birinchi navbatda hissiyot bilan qabul qilinadi. Xattoki, ijtimoiy ahamiyatli ekanligini tushunish faqatgina “kuzatilmaydi”, balki hissiyot bilan “bezaladi”.

Hissiyotlarning qatnashishi ushbu tushunchani shaxs tomonidan nafaqat real ravishda qabul qilinishini, balki oddiygina tushunishini belgilamaydi. SHuning uchun, qadriyatlar interiorizatsiyasi kognitiv va xissiy, ratsional va amaliy (faoliyatga tayyorligi), ijtimoiy va shaxsdagi individuallikning dialektik birligini hisobga olinishini talab etadi.

YAngi pedagogik qadriyatlar tizimi

Mustaqillik sharofati bilan tiklanib, qaddini rostlayotgan, to‘xtovsiz rivojlanib borayotgan milliy madaniyatimizning jamiyatimiz taraqqiyotini tezlashtirish, insonni ma‘naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash va kamol toptirishda o‘rni benihoya kattadir. Jamiyatimizda ruy berayotgan ma‘naviy yuksalish, insonning axloqiy, g‘oyaviy, siyosiy kamoloti mamlakatimizda amalga oshirilayotgan milliy uyg‘onish jarayonlari bilan uzviy aloqadorlikdadir.

Insonning ma‘naviy-axloqiy kamoloti nihoyatda keng, ko‘p qirrali, mazmun-mohiyati jihatdan chuqur bo‘lib, o‘z ichiga juda ko‘plab sohalarni qamrab oladi. SHularning ichida markaziy o‘rinni dunyoqarash masalasi egallaydi.

Buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan yuksak madaniyat va ilmiy kashfiyotlar jamiyatimizning oliy qadriyati bo‘lgan – insonning dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Ma‘lumki, dunyoqarash – bu kishilarning olam va uning o‘zgarishi, rivojlanishi xaqidagi ilmiy, falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy va xokazo qarashlari va tasavvurlari majmuasidan iborat. Demak, dunyoqarash olamdagi yaxlit, umumlashtirilgan bilimlar to‘plamidir. Kishilar tevarak-atrofdagi narsa va hodisalar to‘g‘risida qancha ko‘p ma‘lumotga, bilimga ega bo‘lsalar, ularning dunyoqarashi ham shu darajada mukammal va puxta bo‘ladi.

Dunyoqarashning yana bir muhim tomoni shundan iboratki, u insonni qurshab turgan voqelikni anglash, tushunish bilan bir qatorda uni baholash hamdir. Ilmiy bilimlar dunyoqarash tarkibiga qo‘shilib baholangach, insonning tevarak-atrofdagi ijtimoiy va tabiiy reallikda bevosita, amaliy yo‘l tutish maqsadiga xizmat qiladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, dunyoqarash insonning voqelikdagi o‘z o‘rni va rolini belgilab beradigan ongli ravishda to‘plangan, izohlangan va baholangan bilimlar majmuasidir.

Dunyoqarash tarkibiga kishilarning olamni bilish va baholashga oid bo'lgan ishonch va e'tiqodlari, niyat va maqsadlari, orzu umidlari, ular faoliyatiga ma'lum yo'nalish beruvchi barcha qadriyatlar ham kiradi.

Mifologik diniy, falsafiy dunyoqarash – ijtimoiy borliqning in'ikosi bo'lib, u muayyan tarixiy davrda insoniyat yaratgan bilimlar darajasiga hamda ijtimoiy tuzumga bog'liq bo'ladi.

Inson faoliyatida ilmiy falsafiy dunyoqarash asosiy rol o'ynaydi. Uning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u kishilarga tabiat, jamiyat, inson tafakkuri rivojlanishining umumiy qonuniyatlari xaqida yaxlit ma'lumot beradi. SHu bilan birga u insonni qurshab turgan moddiy olamni bilish mumkinligini, materiyaning doimo harakatda va rivojlanishdiligini ta'kidlaydi. Falsafiy dunyoqarash asosida kishilar ob'ektiv olamdagi hamma narsa va hodisalar, jarayonlar o'zidan boshqa narsalar bilan ichki, zaruriy muhim aloqadorlikda, ta'sir va aks ta'sirida ekanligini chuqur anglab oladilar.

Kishilar dunyoqarashini shakllantirishda, ularda tabiat, jamiyat, insonning kelib chiqishi, rivojlanishi haqida tasavvurlar hosil qilishda Markaziy Osiyo mutafakkirlari tomonidan yaratilgan ilmiy falsafiy meros bitmas-tuganmas boylik xazinasini hisoblanadi. Undan unumli va samarali foydalanish hozirgi vaqtda mustaqil jamiyatimizning oldida turgan dolzarb vazifadir.

Falsafiy dunyoqarash narsa va hodisalarni inson ongida yaxlit aks ettirish bilan bir qatorda, u kishilarning tafakkurlash madaniyatini, ichki ma'naviy dunyosini shakllantiradi, ularni ma'naviy kamol toptirishga yordam beradi.

Falsafiy dunyoqarash kishilarga xos bo'lgan rostgo'ylik poklik insonparvarlik vatanparvarlik kabi olijanob fazilatlarini, axloqiy normalar va qadriyatlarni mujassamlashtiradi.

Falsafiy dunyoqarash asosida kishilar jamiyatning tabiat bilan uzviy birligi, inson va insoniyat taqdirining mushtarakligi, turli-tuman halqlar madaniyatining xilma-xilligi va birligi xaqida ishonch hosil qiladi.

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining fikricha, barcha insonlarga xos bo'lgan olijanob fazilatlar eng avvalo, faylasuflarda o'z aksini topmog'i lozim.

«Faylasuflarning xulq-atvori, axloqi ham o'z kasbiga loyiq bo'lishi kerak. SHuningdek, o'z xalqining ra'yini va o'z xalqida bo'lgan eng yaxshi urf-odatlarini qattiq tutgan bo'lishi kerak.

Faylasuf bo'lmoqchi bo'lgan odam o'z axloqi va xislatlari bilan bu aytilgan shartlarga javob bera olsa, shundan keyin u falsafa bilimini o'rganishga va uni boshqalarga o'rgatishga kirishuvi mumkin», - deb yozadi Forobiy.

Inson ma'naviy kamolotining eng muhim ko'rinishi va zarur shartlaridan biri **siyosiy madaniyatning** o'sib borishidir. Agar har bir millat vakilida, har bir insonda yuksak siyosiy ong, siyosiy bilim va madaniyat, siyosiy ziyraklik bo'lmasa mustaqillik barqaror bo'la olmaydi.

Siyosiy madaniyat o'zida halollik va poklikni, ishchanlik va uzoqni ko'zlab ish tuta bilish fazilatlarini mujassam etgan odamlarning g'oyaviy siyosiy etukligi, nazariy bilimlarni istiqbolni yorqin tasavvur etgan holda amalda qo'llay bilish, kun tartibidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va mafkuraviy muammolarni keng miqyosda hal etish mahorati demakdir. Siyosiy madaniyat, aytilganlardan tashqari, insondagi

faollik va tashabbuskorlikni, yuksak axloqiylik, qat'iy irodalik, xushmuomalalik ziyraklik uzoqni ko'ra bilishni ham o'z ichiga oladi.

SHarq mutaffakkirlari jamiyatni ilmiy asosda boshqarish masalalariga katta e'tibor berib kelganlar. Jumladan, Forobiy, Beruniy, YUsof Xos Hojib, Amir Temur, Ulug'bek, Navoiy va boshqalarning asarlarida davlatning tuzilishi, uning ichki va tashqi siyosatining asosiy tamoyillari, davlat rahbarlarining xususiyatlari bo'yicha muhim ma'lumotlar berilgan. Ularni sinchiklab o'rganib, hayotga ijobiy tatbiq etish mustaqil davlatimizning siyosiy asosini yanada, baquvvat qilishda katta zamin bo'lishi shak-shubhasizdir.

Mustaqilligimiz oldida turgan muammolarni, milliy istiqbolimizning nazariy masalalarini yuzaki bilishni, ularning tub mohiyatiga tushunmaslik va so'zda shunchaki qayd etishni siyosiy onglik ham, siyosiy madaniyat ham deb bo'lmaydi. Nazariy bilimlar mustaqillikning amaliy masalalari bilan bog'langan, har bir insonning imon e'tiqodiga aylangandagina faoliyatning asosi bo'lib yuzaga chiqadi.

YUksak siyosiy bilim va madaniyatga, imon-e'tiqodga ega bo'lgan inson jamiyatimiz, davlatimiz, halqimiz va millatimizning eng katta boyligi hisoblanadi.

Ma'naviy barkamollik **huquqiy ongni** ham o'z ichiga oladi. Inson muayyan jamiyatda yashar ekan, uning axloq-odobi shakllanishi mavjud huquqiy mezonlar bilan bog'lanmog'i kerak Insondagi faollik u xohlagan ishni qila berishdan iborat emas. Faollik jamiyat qabul qilgan qonun va qoidalar chegarasida bo'lmog'i zarur. Jamiyat qabul qilgan qonunlarni hurmat qilish, unga asoslanib ish ko'rish, huquqiy qoidalar va mezonlarning buzilishiga yo'l qo'ymaslik ma'naviy kamolot, axloqiy poklik belgisidir.

Inson huquqiy madaniyatining darajasi uning huquqiy bilimi va saviyasi qabul qilingan qonunlar soni bilan emas, balki o'sha qonunlarning barcha sohalarida to'la ijro etilishi bilan belgilanadi. Prezidentimiz tomonidan alohida ta'kidlanganidek, «huquqiy madaniyat darajasi faqatgina qonunlarni bilish, huquqiy ma'lumotlardan xabardor bo'lishdangina iborat emas. U qonunlarga amal qilish va ularga bo'ysunish madaniyati demakdir. U – odil sudni hurmat qilish, o'z haq-huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojaat etish ehtiyoji demakdir. Huquqiy madaniyat degani – turli mojarolarni hal qilishda qonunga xilof kuchlardan foydalanishni rad etish demakdir».

Insonda huquqiy ong va madaniyat o'z-o'zidan shakllanmaydi. U jamiyatda, oilada, jamoatchilik o'rtasida ta'lim-tarbiya natijasida shakllanadi. Ta'lim-tarbiya oldida turgan asosiy maqsad yosh avlodga ajdodlarimizning dono tajribalarini singdirish, insoniy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirish, Vatan va millat oldidagi burch va mas'uliyatni his qilishga o'rgatish, qonunlarga rioya etish xislatini qaror toptirishdan iboratdir. Bu borada ham SHarq falsafasi va islom ta'limotidan unumli foydalanmog'imiz lozim, chunki ajdodlarimiz tomonidan qonunga rioya qilish, unga bo'ysunish kabi masalalar chuqur va atroflicha ishlab chiqilgan. Bunga islom ta'limotining durdonasi hisoblangan «SHariyat» va «Hidoya», «Temur tuzuklari» kabi manbalar, huquq masalasiga oid fikr-mulohazalar misol bo'la oladi.

Madaniyatning inson ma'naviy–axloqiy kamolotidagi ahamiyati aytib o'tilganlardangina iborat emas. O'z erkini qo'lga kiritgan mamlakatda **milliy ong, milliy birdamlik tuyg'usini** qaror toptirish juda muhim. Mustaqil davlatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlari bo'lgani holda, etuk milliy ong bo'lmasa erkinlik, xurriyatni qo'lda ushlab turish behad mushkullashadi.

Ma'naviy barkamol inson o'ziga loyiq ko'rmagan biron-bir nojo'ya ishni o'zgalarga ham ravo ko'rmaydi, hech bir kishiga jabr-zulmni xohlamaydi, jonzotga ozor bermaydi. Vatanga va millatga sodiqlik ham madaniyatlilik, ma'naviy barkamollik, axloqiy poklikning belgilaridan hisoblanadi.

Jismoniy baquvvat, ma'naviy-axloqiy jihatdan etuk bo'lmasdan turib, shaxs barkamol bo'lolmaydi. Ma'naviy, jismoniy sog'lom avlodni tarbiyalash bu boradagi ishlarning asosiy mohiyati va yo'nalishini tashkil etadi.

Abdulla Avloniyning «Turkiy Guliston yoxud axloq» asarida aytilishicha, «badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadurki... Maishatimizni rohatda bo'lmog'i jasadimizning sog'lom bo'lmog'iga bog'liqdir. Biz sihatimizni saqlamoq ila amr bo'linganmiz, shuning uchun vujudimizni har sihatga zid bo'lgan yomon odatlar ila churitmokdan saqlanmog'imiz lozimdir». Jismoniy sog'lom, baquvvat, lekin ma'naviy qashshoq kishilar insoniyat uchun foydadan ko'ra, ko'prok zarar keltiradilar.

Xalqimizda, «sog'lom tanda sog' aql» degan dono naql bor. Sog'lom ijtimoiy muhit shahsiy kamolot zaminiga aylana oladi. «Badan tarbiyaning fikr tarbiyasiga ham yordami bordur, - deydi Abdulla Avloniy, - jism ila ruh ikkisi bir choponning o'ng ila tersi kabidir. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponning ustini qo'yib, astarini yuvub bo'lmoq kabidirki, har vaqt ustiga kir chiqadur».

Allomalarimiz asarlarida ta'kidlaganidek, insonning ma'naviy kamolotida jismoniy va badan tarbiyasidan tashqari **aqliy tarbiya va go'zallik tarbiyasining**, shuningdek, axloqiy, ruhiy, diniy tarbiyaning ham ahamiyati shak-shubhasizdir.

Insof va adolat tuyg'usi, imon va halollik xushmuomalalik va xushxulqlik – bular inson ma'naviy barkamolligining namoyon bo'lish shakllaridir.

Biz hozir milliy tiklanish davrida yashamoqdamiz. Har qanday milliy tiklanish milliy uyg'onish zaminidagina, muvaffaqiyatli amalga oshadi. Milliy Uyg'onish asosan ma'naviyat sohasida, milliy ong, insonning ma'naviy, axloqiy kamolotida yuz beradi. Ma'naviy kamolot faqat o'tmishni to'la tushunib olishgina emas, balki kelajakka intilishdan ham iboratdir. «Taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan etuk odamlar hal qiladi. Texnikaviy bilim, murakkab texnologiyani egallash qobiliyati ma'naviy barkamollik bilim, mustaqil tafakkur bilan birga borishi kerak. Aqliy zakovat va ruhiy ma'naviy salohiyat – ma'rifatli insonning ikki qanotidir».

O'quvchilarda milliy-ma'naviy qadryatlarni egallashga bo'lgan ehtiyoj ularni insonning tabiiy imkoniyatlarini to'la anglab yetishga undaydi. O'quvchi o'zining jismi, ruhiyati, qalbi va ma'naviyatining bir butun, yaxlit hodisa ekanligini anglab yetadi. Chunki insonda 3 ta aniq birlik mavjud- bu jism, qalb va ruhiyatdir. Biz bu uchlik orasida ruhiyat tushunchasiga alohida

to'xtalamiz. Chunki o'quvchida milliy-ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyoji, ruhiyatiga 'edagogik ta'sir ko'rsatish orqali shakllantiriladi.

O'quvchilarda milliy-ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirish haqida fikr yuritganda, e'tiborimizni eng avvalo, o'zbek xalqining mentaliteti bilan bog'liq jihatlariga qaratamiz. Mentalitet- (lotincha mentalis-aqliy) – ayrim kishi yoki ijtimoiy guruhga xos aqliy qobiliyat darajasi, ma'naviy salohiyat. Jamiyat, millat yoki shaxsning mentaliteti, ularning o'ziga xos tarixiy an'analari, urf-odatlarini, diniy e'tiqodini ham qamrab oladi. Har bir millatning mentaliteti uning tarixi, yashab turgan shart-sharoiti, ijtimoiy faolligi va boshqa bir qancha omillar bilan bog'langan bo'ladi.

Chunki ushbu tushunchaning tahlili o'quvchilarda milliy-ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirish tizimini vujudga keltirish uchun nihoyatda muhimdir. O'zbek xalqi milliy mentalitetning asosini islomiy e'tiqod tashkil etadi. O'zbekiston Res'ublikasi 'rezidenti I.A.Karimov o'zbekona mentalitetning o'ziga xos jihatlarini ustida to'xtalib, quyidagi fikrlarni bayon etadi: "Ota-bobolarimiz necha asrlar mobaynida shu be'ayon mintaqada qanday hamjihat bo'lib, qanday qadriyatlar asosida yashab kelgan bo'lsa, bugun ham ta'bir joiz bo'lsa tarix va hayot gardishini, tabiatining o'zi bizni –butun O'rta Osiyo xalqlarini ayonan ana shunday do'stlik va hamkorlik ruhida hayot kechirishga da'vat etmoqda.

O'quvchilarda milliy-ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirishning ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlash uchun muhimligi haqida fikr yuritish davomida, ma'naviyatlilik haqidagi qarashlarimizni ham bayon etishga harakat qilamiz.

Ma'naviy barkamollikka erishish g'oyasi bugungi kun ta'lim tizimi uchun ham bosh maqsad hisoblanadi. Insondagi ko'lab "men"larning uyg'unlashuvi, ularning hayot faoliyatlari ta'lim jarayonida amalga oshadi va markazlashadi.

Milliy qadriyatlarni egallashi natijasida inson ma'naviyati yuksaladi.

O'quvchilarda milliy-ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirishda quyidagi yo'nalishlarni alohida hisobga olish lozim:

1. Qadriyatli yo'nalishlar va ijtimoiy fikrlar ;
2. Milliy-ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyoji va ijodining insonni qo'zg'atuvchi kuchi;
3. O'z-o'zini ritsvojlantirishning yuqori nuqtasi;
4. Atrof-muxitga nisbatan aniq faoliyat ko'rsatishga tayyorlik va unga layoqatlilik kabilar.

Bugungi kunda 'edagogika fani shaxs rivojlanishining turli -tuman imkoniyatlarni o'zaro farqlashga kirishmoqda. Bu tizimda ijtimoiy, jismoniy, ruhiy imkoniyatlar bilan bir qatorda, ma'naviy yo'nalishlar ham ajratilmoqda .

O'zbek xalq 'edagogikasi va ta'lim-tarbiya nazariyasida asrlar davomida shaxs ma'naviyatini shakllantirishga alohida e'tibor berilgan. Garchand milliy

ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyoji atamasi qo'llanilmagan bo'lsada ajdodlarimiz yoshlarda go'zallik axloq-odob me'yorlarini egallash ehtiyojini tarkib to'tirishga alohida e'tibor qaratganlar. SHaxsni ma'naviy takomillashtirish g'oyasi o'zbek xalq 'edagogikasi tarixida alohida o'rin egallab kelgan. Buni Urxun-Enisey yozma yodgorliklari, muqaddas "Avesto". "Devonu lug'atit-turk", tasavvuf ta'limoti, ayniqsa naqshbandiya tariqati mazmunida yaqqol ko'rish mumkin. Mazkur obidalar ma'naviy tarbiya, ma'naviy ehtiyoj mahsuli ekanligi, u shaxslararo ma'naviy muloqotda nomoyon bo'lishi asoslab berilgan. Ma'naviy ehtiyoj insonning taraqqiyotini ta'minlovchi 'edagogik omil ekanligi bayoon qilingan.

O'quvchilarda illiy-ma'naviy qadriyatlarini egallash ehtiyoji shakllanishining uchunchi bosqichi, ehtiyojlarining o'zaro uzviy tarzda bir-birini taqozo qilishi bilan izohlanadi. SHu tariqa o'quvchilarda shakllantiriladigan milliy-manaviy qadriyatlarini egallash ehtiyojining o'ziga xos jihatlarini aniqlash mumkin. CHunonchi:

1. O'quvchilarda shakllantiriladigan milliy-ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyoji o'zining aniq mazmun-mohiyatiga ega.
2. O'quvchilarning milliy-ma'naviy qadriyatlarning egallash ehtiyojini anglashlari, ularning o'ziga xos hissiy holatlari bilan bog'liq
3. O'quvchilarning his-hayajonli holatlari milliy-ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojlarini qanoatlantirish imkonini beradi.
4. O'quvchilardagi milliy-ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojining qondirilishi, ularning his-hayajonlarini 'asaytirish yoki bartaraf yetishga ko'maklashadi.

SHu tariqa ehtiyojlar tabiiy, ijtimoiy hamda madaniy ehtiyojlar tarzida o'zaro farqlanadi. O'ubtlan bir qatorda, A. G. Kavalov tomonidan taklif etilgan guruhlashda ehtiyojlar moddiy, ma'naviy, jamoaviy ehtiyojlar tarzda izohlanadi. Bugungi kunga qadar o'quvchining ma'naviy dunyosining boyitishda muayyan chegaralar mavjud emas. Bu esa insonning hayotiy faoliyati va ijtimoiy turmush tarzi bilan bog'liqdir.

Insonning moddiy ehtiyojlari u ishlab chiqargan buyumlarda aks etsa, ma'naviy ehtiyojlari intellektual. Madaniy faoliyatlarida namoyon bo'ladi.

Ma'naviy ehtiyojlarni tahlil qilish natijasida uning mavjud qirralari aniqlanadi. Bu shundan dalolat beradiki, ma'naviy ehtiyojlar- bu ideal narsalar va xodisalar hamda shunday narsa va hodisalarni yaratish faoliyatini egallashga bo'lgan ehtiyojdir. Demak, biz o'quvchilarda eng avvalo, milliy-ma'naviy qadriyatlarni egallash va jamiyat a'zolarini farovon hayot kechirishi uchun zarur qadrlil narsalarni yaratish faoliyatini egallash ehtiyojini shakllantirishimiz lozim.

O'quvchilarda milliy-ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirish natijasida, ularda axlokiy jihatdan takomillashish maqsadi hosil bo'ladi. Axloqiy ideallar esa, o'quvchilarning o'z hulq-atvorlari, xatti-harakatlarini jamiyat a'zolarining manfaatlari asosida tarkib to'tirishni taqozo qiladi. Yaxshilik, yomonlik inson maqsadlarining mohiyatini ochishga xizmat qiladi. O'quvchining ma'naviy ehtiyojiga aylangan oliy

maqsadlarga erishish, uning o'z "meni" va o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishish yo'llarini ifodalaydi.

XULOSA

Jamiyatimizda ma'naviy yangilanishlar, yuksalishlar jadal kechayotgan, qolaversa, globallashuv jarayoni qadriyatlarimizga o'z ta'sirini ko'rsatib turgan bir 'aytda, yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Ma'naviy merosimizga asoslangan milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, uyg'un holda saqlab qolish, ruvojlantirish hamda kelgusi avlodlarga yetkazib berish asosiy vazifaga aylangan. Zero, " Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'- e'tibori avvalambor farzandlarimizning unid-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir".

Ma'naviy meros – yoshlarda o'zlikni va o'tmishdan faxrlanish tuyg'ularini shakllantiradi. Buning yaqqol ne-ne daholarni, qahramonlarni, chinakam millatsevar, vatan'arvarlarni, bir so'z bilan aytganda, dunyo tamadduniga beqiyos hissa qo'shgan munavvar zotlarni kamolga yetkazgan xalqimizning yaqin o'tmishida ko'rishimiz mshkin. Buyuk, o'lmas qadriyatlarning yaratuvchisi, ijodkori bo'lgan, ayni bir 'aytda, uni avdoddan –avlodga gard yuqtirmay, mo''tabar qilib yetkazib kelayotgan xalqimiz, nihoyat uzoq davom etgan istibdod zanjiridan qutildi. Eng muhimi, asrlar mobaynida shakllangan, sayqallangan, milliy qadriyatlarga bugungi kunda yegalik qilmoqdamiz. Usta-shogirdlik an'analari ustoz oldiga ham, shogird oldiga ham, katta mas'uliyat yuklaydi. Usta-shogirdlik an'anasi faqat hofizlar orasida emas, balki sozandalar, bastakorlar orasida ham, xatto oddiy xat-savod o'rgatish borasida ham keng qo'llanib kelingan. Odatda ota o'z farzandini ustozga shogirdlikka berar ekan, taomil bo'yicha: «Suyagi meniki, eti sizniki» degan iborani ishlatganlar. Bu so'z orqali ustoz har qancha qattiqqo'l bo'lmasin, shogird uning aytganlarini so'zsiz va bekamu-ko'st bajarishi lozim, degan

mazmuni bildiradi. SHogird-ustozdan nafaqat ilm-hunar o'rganish, balki sharqona urf-odatlar, mulozamat va muloqotni, ahloq-odobni ham o'rganishi nazarda tutiladi. Ba'zi shogirdlar ustozining uyida yashab, uning xizmatini ham qilib turar edi. Ota-ona esa unga ketadigan sarf-harajatini va ustozga beriladigan xaqni o'z zimmasiga olar edi.

Xozirgi kun urf-odatiga ko'ra usta-shogirdlik an'anasi o'ziga xos yunalishda rivojlanmoqda. Xozirgi kun talabi va etikasi ilgari talablardan tubdan farq qiladi. SHogirdlarni ustozga so'zsiz bo'ysundiruvchi manqurtlarcha emas balki mustaqil fikrlaydigan yetuk shaxslarga aylantirish maqsad qilib olingan.

Ko'chilik holatda odatlar va an'analar terminlari mazmuni bir narsa deb qaraladi va ularning farqiga borilmaydi. Ular o'rtasida ma'lum umumiylik bo'lgani kabi bir-birlaridan farq

qilinadigan tomonlari ham mavjud.

Musiqa san'ati kishiga butun bir yuksak tuyg'ular, zavq-shavq, yangi g'oyalar olamini ochib beradi. Odamlarni ma'naviy jixatdan boy, sof va barkamol qiladi. Musiqa tufayli inson o'zida yangi, ilgari sezmagan kuch to'adi, hayotga o'zgacha munosabatda bo'ladi. Musiqa insonni hayotni sevishga da'vat etadi. Bir so'z bilan aytganda, inson o'z hayotini, turmush tarzi va borlig'ini musiqa san'atisiz tasavvur etolmaydi. Musiqa va qo'shiqning inson hayotida bu qadar keng o'rin olishi, uzoq yashashi, takomillashib, mazmunan boyib va chuqurlashib borishining sabablari bor, albatta. Chunki qo'shiq insonni mehnat qilishga qiyinchiliklarni yengishga, ruxan tetik, bardam bo'lishga, hayotga ishonch bilan qarashga undaydi. Kindik qoni tukilgan ona Vatanni sevishga, uning barcha boyliklari bilan faxrlanishga da'vat etadi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan bo'lgan mexr-muhabbat, faxr-iftixorning shakllanishi va rivojlanishi ham ma'lum darajada unga bog'liq. Har qanday davlatning madaniyati, ijtimoiy ongining balandligi shu xalqning ruxiy sog'lomligi, aqliy quvvati va yuqori darajadagi tarbiyasi bilan belgilanadi. Agar davlat yosh avlodning ta'lim - tarbiyasiga 'anja orasidan qarsa, unga sarflaydigan mablag'ni iqtisod qilib, boshqa tashvishlarga sarflasa, bu hol jamiyatni so'zsiz inqirozga olib boradi.

Res'ublikamiz prezidenti Islom Karimov O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi yuksak taraqqiy etgan mamlakatlar darajasida gullab-yashnatishning chuqur, ilmiy asoslangan yunalishini ko'rsatib berdi. Tanlangan yo'lning to'g'ri va xaqqoniy ekanligini hayotning o'zi ko'rsatib turibdi. Mamlakatimiz taraqqiyotidagi ijobiy siljishlar mustaqil Res'ublikamizning «Kelajagi buyuk davlat» sifatida qudrati va salohiyatini qadamba - qadam namoyish etmokda. Zero yoshlari bilimli yurtning kelajagi buyuk bo'lishiga ishonamiz.